

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**R.Rasulov
N.Husanov
Q.Mo'ydinov**

**«NUTQ MAHORATI»
(o'quv qo'llanma)**

Toshkent-2006

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**R.Rasulov
N.Husanov
Q.Mo'ydinov**

**«NUTQ MAHORATI»
(o'quv qo'llanma)**

**Oliy o'quv yurtlarining kasbiy ta'lism -
o'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
ta'lism sohasidagi bakalavriat talabalari uchun**

Toshkent-2006

ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanmada nutq mahorati, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq mahorati va adabiy til, nutq madaniyati va uslubshunoslik, nutq mahorati va atamashunoslik haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, nutq mahoratiga oid nazariy ma'lumotlar, amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanadi, nutq mahorati bilan bog'liq xalq og'zaki ijodidan namunalar keltiriladi. Qo'llanma kasbiy ta'lim o'qituvchilik sohasi bo'yicha ta'lim olaltgan bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent O'.Lafasov
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent A.Saparov

Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy kengashning 2006 yil 27 martdagi yig'ilishi qaroriga ko'ra o'quv qo'llanma sifatida chop etishga qaror qilingan.

Kirish

Deni Didro «Kim kitob o'qitishdan to'xtasa, biling-ki, u fikrlashdan ham to'xtagan bo'ladi», deb ta'kidlagan.

O'zbek xalqi esa ta'llim - tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta'llim - tarbiyaga oid asarlari ham ana shu merosning tub negizini tashkil etadi. Lekin, ma'lum bir davrlarda xalqimiz bu durdona asarlardan, undagi odob - axloqqa oid fikrlardan etarlicha foydalana olmadi.

Mustaqillik tufayli xalqimiz dunyoga yuz tutdi va jahon bizni tanidi. Biz tariximizga, madaniyatimizga yangicha nazar bilan qaray boshladik hamda o'z echimini kutayotgan muammolarini ijobiy hal qilishga kirishdik.

Barcha sohalar singari ona tilimiz va u bilan bog'liq muammolar ham asta-sekin echimini topmoqda. Xususan, nutq madaniyatiga doir masalalarni hal qilishda tilshunos olimlarimizning mehnatlari, izlanishlari tahsinga loyiqidir.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustivor yo'naliishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizning «Davlat tili» haqidagi qonuni, «Ta'llim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Har bir kadr, eng avvalo, o'z ona tilining chinakam sohibi bo'lmosg'i lozim. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997 yil 29 avgustidagi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: «O'z fikrini mutlaqo mustaqil, o'z ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin» - deb ta'kidlaydi.¹

Nutq madaniyati hozirgi davrda tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyotida, shuningdek, oliy maktablarda, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, o'rta maktablarda dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bog'liq. Shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda nutq madaniyati fanining barcha o'quv yurtlarida o'qitilishi quvonarlidir. Chunki notiqlik san'ati sirlarini o'rganish barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli inson uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. O'zbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy o'rganish ham o'zbek nutq madaniyati sohasi uchun nihoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til me'yorlarining umumiyl holatini, undagi turg'un va noturg'un hodisalarini chuqurroq tekshirmay turib, adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish mumkin emas.

¹ I.A.Karimov Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T 1997, 9-bet.

«NUTQ MAHORATI» KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo - sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqliknini san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarining obro' - e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi, ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan.¹ Mashhur notiq Tsitseron: «Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak», degan ekan. Bu gapda katta hikmat bor. Harbiy sarkardaning itoatida ko'p sonli lashkar bo'lishini tasavvur qilsak, bu so'z tasodifiy o'xshatish emasligiga amin bo'lamiz. Grek va Rim notiqlari Aristotel, Demosfen, Tsitseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarining hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atining o'ziga xos mifikabini yaratdilar. Tsitseronning «Notiqlik haqida», «Notiq», «Brut» asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning «Notiq bilimi haqida», Aristotelning «Ritorika» kabi asarlari ham qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya'ni va'zzonlik «Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinali foydalanish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, «Nutq odobi», «Muomila madaniyati» nomlari bilan yuritilib kelangan «nutq madaniyati» tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan: Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamashariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy e'tibor berish bilan birga tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozganlar. Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Forobi to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...».¹

Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan «Qobusnama» da ham nutq

¹ R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T.: 1992. 6-bet.

¹ Qarang. T.Qudratov Nutq madaniyati asoslari. -T. 1993. 7-bet.

odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning 6-, 7- boblari so'z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o'quvchini yoqimli, muloyim,o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So'zlaganda o'ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko'z oldiga keltirib, gapirish kerakligini, kishi kamtar bo'lishi,o'zini xalq orasida oddiy tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko'p gapirish donolik belgisi emasligini shunday ifodalaydi. «Ey farzand, sen har qanday notiq bo'lsang ham,o'zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan. Ko'p bilu, oz so'zla, kam bilsang,ko'p so'zlama. Chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi,deganlarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqli odam bo'lsa ham,xalq uni aqlsiz deydi...».²

Ulug' shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo'lган «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash haqida: «Bilib so'zlasa so'z bilig sanalur» degan edi. Qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida:

Ugush so'zlama so'z biror so'zla oz,
Tuman so'z tugunini bu bir so'zla yoz,

deydi. Mazmuni: so'zni ko'p so'zlama,kamroq so'zla. Tuman (ming) so'z tugunini shu bir so'z bilan ech. Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan etkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to'g'riliqi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

O'qub so'zla so'zni eva so'zlama,
So'zung kizla kedin, boshing kizlama.

Mazmuni: (So'zni o'qib so'zla, shoshib gapirma, keraksiz yaramas so'zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma).¹

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rini gipirish,qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamalikni qoralash va boshqa shu kabi mavzularda so'z boradi.

O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u, eng avvalo, o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik sa'nati ustalarini nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar,

² Qarang:T.Qudratov, O'sha asar, 9-bet.

¹ Ahmad Yugnakiy, Hibatul – haloyiq. -T. 1971, 78–bet.

muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini to'g'ri anglovchi sog'lom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to'g'ri tushunib kelganlar. Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mahbub ul-qulub», «Nazm ul-javohir» asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga uning mukammallahishiga ham katta hissa qo'shdi. U o'zining «Mahbub ul-qulub» asarida shunday deydi: «Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar napisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur...»² ya'ni, til shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir.

Alisher Navoiy mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so'zlash odobi haqida shunday yozadi: «So'zni ko'nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko'nglungda bo'lsa, tilga surma». Mazmuni («So'zni ko'nglingda pishitib olmaguncha, so'zlama, ko'nglingda bo'lgan har qanday fikni ham ayta berma»).

O'zbek badiiy nutqi tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur alohida o'rinn tutadi. Shoirning nazmi va «Boburnoma»- si o'zbek nutqining go'zal namunalaridir. Bobur o'zi hammabop yozish bilan birga boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, o'g'li Xumoyunga yozgan bir xatida birovga yuborilgan maktubni muallifning o'zi bir necha bor o'qib ko'rishiga, uning ravonligiga, so'zlarning ko'zda tutilgan ma'noni to'g'ri aks ettirganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng jo'natishga chaqiradi.

Ko'rindiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta o'rganish, uning lug'aviy boyligi va grammatikasini puxta egallah, mantiqli so'zlashni o'rganish, nutqni ichki (mazmun) va tashqi (shakl) ko'rinishiga birday e'tibor berish, go'zal va ta'sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o'rinni ishlatish vazifalarini qo'yadilar va ularning ijrosini kuzatadilar, chuqur tahlil etadilar.

«Nutq va notiqlik mahorati» fani o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy fanlaridan olingen bilimlarga suyangan holda to'g'ri va chiroyli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi. U til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Nutq madaniyati ham fan sifatida o'z tekshirish ob'ekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlari (normalari) va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli) fazilatlaridir. Nutq madaniyati nazariyasida til normasi markaziy tushunchadir. Til madaniyatining asosiy tekshirish ob'ekti adabiy til normalari, asosiy vazifasi esa ushbu normadagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo'lmosg'i kerak.

Shunday qilib, nutq madaniyati fani adabiy til me'yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi undagi ba'zi birliklarning eskirishi, ular o'rnida yangi normativ birliklarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy normalarni yaratmaydi, ba'zi bir hodisalarni norma sifatida majburan kiritmaydi.

² Qarang: R.Qo'ng'uров, E.Begmatov, Yo.Tojiev O'sha asar, 8-bet.

Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, ob'ektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi.¹

«Nutq va notiqlik mahorati» fani hozirgi zamon o'zbek adabiy tilini o'rganar ekan, shu adabiy til asosida vujudga keladigan barcha nutq turlari, adabiy tilga asos bo'luvchi xalq tili shevalari ham uning ob'ektiga daxldordir. Nutq madaniyati sohasi adabiyotshunoslik, poetika,estetika, etika, pedagogika, mantiq, ruhshunoslik, siyosatshunoslik sohalari bilan bog'liq. Milliy mustaqillik mafkurasingning tarkibiy qismi hisoblanmish Davlat tili siyosati va unga oid huquqiy hujjatlar nutq madaniyatining asosiy ashyolaridandir. Notiqlik va voizlik san'tiga oid asarlar, o'zbek madaniy nutqiga asos bo'lgan milliy adabiy meros namunalari, o'zbek milliy hujjatchiligi hamda davlat tilida ish yuritish qonun - qoidalari majmuasi fanning asosiy ob'ektlaridandir.

Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarining barcha fakultetlarida «O'qituvchi nutq madaniyati» fanining o'qitilayotganligi quvonarli holdir. Yosh avlodni tarbiyalashdek o'ta mas'uliyatli vazifani bo'yniga olayotgan talabaning o'z fanini chuqur o'rganishining o'zi etarli emas. Chunki «o'qituvchining nutqi o'tmas, nochor bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, o'ziga ham azob, o'quvchi sho'rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zni ham, so'zni ham qiynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimini yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan, ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir».¹

Hozirgi o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi hech birimizga sir emas. Bu til diyorimiz vakillari uchun umumiyl til sifatida shakllandи.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamizda davlat ishlarining, o'qish-o'qitish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilyapti. Lekin, shuni ham aytish joizki, tilning ijtimoiy vazifasining bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutqimizdagи nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslargina emas, respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki, nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, kishilarni yuksak madaniyat sohibi bo'lishlarini belgilaydi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, xalqaro hayotda ikki qarama - qarshi ijtimoiy guruh o'rtasida mafkuraviy kurash nihoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mafkuraviy kurashning asosiy quroli

¹ Qarang: T.Qudratov O'sha asar. 15-16-betlar.

¹ N.Mahmudov. Ma'rifat manzillari. -T. 1999. 28- bet.

bo'lgan tilning har qachongidan ham o'tkir va keskin bo'lishini taqozo etadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ham bunga alohida etibor berib shunday degan: «*çoyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqt ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin*». ¹

...«Maktablarda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi? Aminmanki, o'rgatilmaydi. Mabodo, biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Printsip ham tayyor: **«Mening aytganim - aytgan, deganim - degan».**

«O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'mini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir». ² Maktabda nutq tadbirkorligini singdirish o'qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg'ulotgacha o'quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Boshqacha aytganda «Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladi, fizika yoki tarix bo'ladi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida, asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir». ³

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qaerda shakllangan?
2. Sharqda nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullangan mutafakkirlardan kimgarni bilasiz?
3. «Nutq mahorati» fanining maqsadi nimalardan iborat?
4. «Nutq mahorati» fanining vazifasi nimalardan iborat?

¹ I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. -T. 2000. 35-bet.

² I.A.Karimov O'sha asar. 17-bet.

³ N.Mahmudov. O'sha asar. 52 - bet.

Tayanch tushunchalar

Nutq - (arabcha) fikrni so'z orqali ifodalash.

Nazm - (arabcha) she'riy asar: she'riyat janri, she'r o'lchovi.

Nasr - (arabcha) proza, prozaik asar, proza janri.

Aruz-she'r tuzilishida qisqa va cho'ziq hijo (bo'g'in) - larning ma'lum tartibda guruhlanib, takrorlanib kelishiga asoslangan vazn sistemasi. Aruz vazni.

Mantiq - (arabcha) tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan: logika.

Madaniyat - (arabcha) ta'lim - tarbiyalik va zillilik.

O'qituvchi - birorta fandan dars beradigan shaxs.

NUTQ MADANIYATI VA ADABIY NORMA. NUTQIY MALAKA

Har bir sohaning o’z madaniyati bo’lgani singari nutqning ham o’z madaniyati, ya’ni nutq madaniyati deb ataluvchi va bugungi kunda alohida hodisa hisoblanuvchi soha mavjud. Nutq madaniyati to’g’risida so’zlashdan oldin nutq nima? uning tildan farqi nimada?, degan savollarga javob topishimiz kerak.

Til va nutq bir-biriga bog’liq, dialektik munosabatdagi hodisalardir. Ularni bir-biridan ajratib qarash asossizdir. Til nutq uchun moddiy materialdir. Shu material asosida esa nutq tashkil topadi.

Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo’ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud bo’lib, so’zning kishilar xotirasidagi obrazlari-ruhiy material; nutq yaratish jarayonida qo’llanadigan so’z shakllari, morfemalar, tovushlar - moddiy material hisoblanadi. Tilning ruhiy hodisaligi uning ongda saqlanishi bo’lsa, moddiy hodisaligi esa undagi tovushlardir.¹

Nutq - bu til deb ataluvchi, o’ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo’lishidir. Nutq harakatdagi til bo’lib, nutq a’zolarining harakati jarayonida paydo bo’ladi va so’z shakllari, so’z birikmalari va gaplardan tashkil topadi.

Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjuddir. Bu tushuncha ma’lum lingvistik me’yorlar, etik va estetik talablar bilan aloqador bo’lgan tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat ma’naviyatini belgilovchi (ko’rsatuvchi) etik va estetik kategoriyadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me’yorlashga (uni qayta ishlash va boyitishga) qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko’tarish, odamlarga ma’lum «til didi» - ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati termini hozirgi zamon tilshunosligi talqinida uch xil hodisani ifoda etadi:

- 1) madaniy nutqning, ya’ni nutqiy hodisaning nomi;
- 2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog’liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi;
- 3) nutq madaniyati muammosini o’rganish bilan shug’ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo’limining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har biri murakkab ko’rinishlariga, qirralariga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmslik lozim.¹

Yuqorida bayon etilgan barcha mulohazalar nutq madaniyati tushunchasini tushunish va ta’riflash tilshunoslikda hozir quyidagi ko’rinishlarga ega degan xulosaga kelish imkonini beradi:

1. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o’ziga xos xususiyatlaridan biri (Praga lingvistik maktabi).

¹ Qarang: T.Qudratov O’sha asar 19-bet.

¹ E.Begmatov, A.Boboeva, M.Asomiddinova, B.Umurqulov, O’zbek nutqi madaniyati ocherklari. -T. 1998, 31 – bet.

2. Nutq madaniyati (til madaniyati) --- bu adabiy til normalarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi).

3. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir (A.Gurevich va b.).

4. Nutq madaniyati kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir (B.N.Golovin va b.).

5. Nutq madaniyati faqat to'g'ri nutqgina emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlik hamdir (G.O.Vinokur va b.).

6. Nutq madaniyati til vositalaridan o'rinali foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir. (A.I.Efimov).

7. Nutq madaniyati bu avvalo fikrlash madaniyatidir. (D.E.Rozental va boshqalar)

8. Milliy o'ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir. (M.Agafanova).¹

Xulosa shuki, nutq madaniyati tilni - aloqa – aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi boshqa omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo'lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori saviyada bo'ladi. Aksincha bo'lsa-chi, unda nutq madaniyati ham past saviyada bo'lishi muqarrar.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda qo'llangan o'rinali va o'rinsiz so'zlarining ishlatilishi to'g'risida bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchov (mezon) ga asoslanish tayin. Mana shu o'lchov (mezon) tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z normalari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z normasiga ega. Xususiy me'yorlar (norma) quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal norma. 2. So'zlashuv nutqi normasi. 3. Argolar, jargonlar normasi. 4. Adabiy til me'yori (adabiy norma).

Adabiy norma. Ma'lum bir hududda tarqalgan uzus imkoniyatlari o'sha hududda yashovchi aholi uchun istisnosiz tushunarli bo'ladi, ya'ni aloqani engil amalga oshirishga imkon beradi. Bu -- tilning o'zi normadan iboratligini ko'rsatadi. Norma -- tilning yashash shaklidir.²

Adabiy norma uzusga asoslanadi, undan olinadi. Adabiy norma adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun -qoidalarini mustahkamlab boradi.

Adabiy norma uzusdan olinganligi sababli hamma uchun tushunarli bo'ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a'zolarini uyushtirishda, katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning normalari jamiyat uchun nihoyatda zarurdir.³

O'zbek adabiy tili normalari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

¹ E.Begmatov, A.Boboeva, M.Asomiddinova, B.Umurqulov, O'sha asar. 45-bet.

² T.Qudratov. O'sha asar, 38-bet.

³ T.Qudratov. O'sha asar, 40-bet.

1. Leksik - semantik norma.
2. Talaffuz – (orfoepik) norma.
3. Yozuv (grafika) normasi.
4. Fonetik norma.
5. Aktsentologik (urg’uni to’g’ri qo’llash) norma.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) norma.
7. So’z yasalish normalari.
8. Imloviy norma.
9. Uslubiy norma
10. Punktuatsion norma.¹

Adabiy normaning og’zaki va yozma ko’rinishlari mavjud bo’lib, og’zaki adabiy normaning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago’y xalq shoir - baxshilari katta hissa qo’shsalar, yozma adabiy normaning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til normasini o’rganish yangi hodisa emas. Til normasi va adabiy norma muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o’rganib kelingan. Adabiy til normasi, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlari-nutq madaniyati sohasining tekshirish ob’ekti hisoblanadi.

Nutq madaniyati sohasining adabiy til normasiga yondashuvi quyidagi xususiyatlari bilan grammatik munosabatda farq qiladi.

a) nutq madaniyati adabiy til normasidagi o’zgarib, buzilib turuvchi nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topishi va ularni tuzatishga intilishi lozim;

b) nutq madaniyati adabiy til normasini doimiy rivojlanib, o’zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshirishi va adabiy til normasi sistemasidagi yangi holatlarni, o’zgarayotgan, o’zgargan holatlarni, shuningdek, «o’lgan», iste’moldan chiqqan holatlarni hisobga olishi kerak.

v) nutq madaniyati adabiy til normasi sistemasidagi qarama - qarshi holatlarni belgilashi hamda tilning barcha yaroslari bo’yicha tekshirishi lozim.

Nutq madaniyati adabiy normani ma’lum maqsad bilan, anig’i madaniy nutqning chegarasi va vositalarini aniqlash maqsadida o’rganadi. Shu sababli, nutq madaniyati sohasi adabiy til va uning normativ sistemasini baholaydi va nazorat qiladi. Nutq madaniyati sohasi adabiy tilga yondashadi, ya’ni adabiy til rivojiga ongli aralashadi.

Ma’lumki, tilning paydo bo’lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog’liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo’ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demakki, shu tilda so’zlashuvchi millatning ma’naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so’nishiga, ma’naviyatning qashshoqlanishiga olib keladi.

¹ Qarang: R.Qo’ng’urov va boshqalar. O’sha asar, 38-bet

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va televidenieni kuzatib borishi orqali hamda tinimsiz mustaqil shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi.

Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Adabiy til madaniyatini egallashda tilga bo'lgan e'tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim rol o'ynaydi. Adabiy til va uning normalarini shunchaki qiziqish, yoki u bilan nomigagina shug'ullanish orqali egallab bo'lmaydi.

Insonning nutq faoliyati uch ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Bular - so'zlash, mutolaa qilish va eshitish. So'zlash deyilganda, so'zlovchining ma'lumot, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum bo'lgan narsalar haqida so'rashi tushuniladi. So'zlaganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi. So'zlashning monologik va dialogik ko'rinishlari mavjud.

Mutolaa qilish o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqatidir. Mutolaa tufayli yozma nutqda aks etgan voqeа - hodisadan xabardor bo'ladi.

O'rta maktabda ta'lim olayotgan yoshlarni, ya'ni, jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini etishtirishda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Jamiyat o'qituvchining qo'liga yosh avlodni, ya'ni o'z kelajagini ishonib topshiradi. Uning kamol topishida o'qituvchining nutqi o'ta muhimdir. Demak, o'qituvchilik kasbi insonparvarlik, vatanparvarlik, yuksak madaniyat bilan birga yuqori darajadagi nutqiy malakaga ham ega bo'lislidagi talab qiladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Til madaniyati bilan nutq madaniyati qaysi jihatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi?
3. Adabiy norma nima? U nimaga asoslanadi?
4. Nutqiy malakaga qanday erishish mumkin?

Tayanch tushunchalar

1. Morfema - (grekcha) tilshunoslikka oid termin bo'lib, so'zning ma'no anglatuvchi, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan qismi (yoki bo'lagi) (o'zak morfema, affiksal morfema).
2. Jargon - (frantsuzcha) biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos va o'zigagina tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan yasama tili.
3. Uzus-biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo'lgan imkoniyatlarning foydalaniib kelinayotgan qismi uzus deyiladi. Uzus bir tilni boshqasidan ajratib turadigan shartlarni ham, tilning ichki normalarini ham o'z ichiga oladi.¹

¹ Qarang: T.Qudratov. O'sha asar, 36-bet.

O'ZBEK ADABIY TILI VA NUTQ MADANIYATI

Hozirgi zamon o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, orfoepik hamda orfografik, imloviy normalarining nisbatan mukammal shakllanganligi o'zbek tili madaniyatining ulkan yutug'idir.

Hech shubhasiz aytish mumkinki, o'zbek tili eng boy, eng taraqqiy etgan tillardan biri bo'lib, o'z shakllanish, rivojlanish tarixiga ega.

O'zbek adabiy tili olimlar, ziyolilar, adiblarning, og'zaki va yozma adabiyotning asosiy ijodkorlari bo'lган xalqimizning asrlar osha mashaqqatli mehnati, tilga sayqal berishi, uni chuqur o'rganishi borasidagi xizmatlari evaziga turkiy tillar oilasida o'ziga xos mavqega ega bo'ldi. Bu tilda juda ko'p o'lmas badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu ham o'zbek tilining madaniy tillar qatoridan o'rinn olishini ta'minladi.

Qadimdan ma'lumki, til eng muhim aloqa-aratashuv, fikr almashuv qurolidir. Bu qurol qator boshqa vazifalarni ham bajaradi: u yoki bu xalq tarixi yoki umuman voqelik haqida xabar beradi, ularni avloddan - avlodga etkazadi, kishilar ongiga ta'sir etadi, estetik zavq bag'ishlaydi. Shuningdek, u bilim berish yoki bilim olish quroli hamdir.

Ana shunday qator vazifalarni bajaruvchi hamda funktional imkoniyati yanada ortib borayotgan bu qurolning - o'zbek adabiy tilining ishlatilishi, uning qay darajada sayqal topganligi, o'tkirligi, muayyan vazifani bajarishga xoslanganligi, tuzilishi, mohiyati bilan shaklining mutanosibligi, go'zal va ixchamliligi kabilar uning qudratli madaniy qurol ekanligini ko'rsatadi. Qurolni yaratish va unga sayqal berish esa shu tilga mansub bo'lган xalq vakillarining, ziyolilar, adiblar, shu qurolni ishlatishga ehtiyoji bor bo'lган barcha kishilar va, nihoyat, shu ish bilan maxsus shug'ullanuvchi mutaxassislarning ishidir.

Navoiy aytganidek: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir...».¹

Darhaqiqat, nutq - bu til deb atalmish noyob quroldan foydalanish jarayoni. Demak nutqiy jarayon – tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir.

«Qobusnama» da Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari – notiqlikni a'lo deb bilgan: «Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi».²

Nutq xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, go'zal yoki quruq - qo'pol bo'lishi mumkin.

O'tkir teshani qo'liga olgan usta u bilan ajoyib bir quticha yasashi mumkin. Shu teshani qo'lga olgan chala bir havaskor usta bir zumda qo'lini chopishi yoki yaxshi narsani ishdan chiqarishi mumkin.

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton «Adabiy asarning mazmuni, undagi g'oyaning oliyjanobligi, tasvir qilingan odamlar va hodisalarning go'zalligi yoki hunukligi - hammasi o'quvchiga asarning tili orqali etadi. Shu sababli til sohasidagi

¹ Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. -T. 1983. 72-bet.

² Qobusnama. T. 1968. 29-bet.

mahorat yozuvchi qobiliyatining eng yorqin alomatidir», -- deganu eng avvalo, til quroldidan foydalanish mahorati haqida fikr yuritgan.

Demak, hamma uchun baravar xizmat qiladigan til - aloqa - aralashuv quroli vositasida go'zal, yaxshi, namunali nutq tuzish ham, qo'pol, yoqimsiz, nojo'ya, tuturuqsiz, quruq nutq tuzish ham mumkin. Bularning birinchisi madaniy nutq, ikkinchisi esa nomadaniy, «xunuk» nutqdir.

Tilshunos S.I.Ojegov yaxshi nutq haqida gapirar ekan, «Yuqori darajadagi nutq, yuqori nutq madaniyati – bu o'z fikrini til vositalari orqali to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir», - deydi.³

Bunday qobiliyatga o'z ona tilini chuqur sevish va hurmat qilish, uni mukammal bilish orqali erishiladi. Shuning uchun ham har bir kishining madaniylik darjasini, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi, nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz notiqdangina emas, balki har bir jamiyat a'zosidan talab qilinadi.

Tilda so'z miqdori qancha ko'p bo'lsa, o'sha tilni boy til deb talqin qilish keng tarqalgan. Bu fikr ma'lum ma'nodagina to'g'ridir. Chunki tildagi so'z miqdori til boyligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lsa ham, til boyligi shu bilangina chekylanmaydi. Bu o'rinda, albatta, o'zbek tilining sinonimlarga, frazeologizmlarga, parafrazalarga nihoyatda boy ekanligi, ular ma'nolarining, shuningdek, umuman o'zbek tilidagi so'zlarning ko'p ma'noliligi nihoyatda yuqori darajada ekanligi ham hisobga olinadi.

Shunday bo'lsa-da, ana shular bilan bir qatorda, u yoki bu tilni boy til deb belgilaganda, shu tilning turli-tuman ifoda vositalariga egaligini ko'zda tutamiz. O'zbek tilida so'zdagi unli tovushni cho'zish yoki undosh tovushni ikkilantirish geminatsiya hodisasi ham ifoda vositasi hisoblanadi: to'yga mashhur xonanda kelgan shekilli, odam!; Mazam yo'qroq, ertaga ishga borolmayman; Mazza qilib dam oling, yaxshilab sog'ayib keting, keyin gaplashamiz. Bu misollardagi «odam» so'zi alohida urg'u bilan aytildi, shuningdek, so'zdagi **o** tovushi ba'zan esa, keyingi bo'g'indagi **a** tovushi cho'zib talaffuz qilinadi. Ana shu cho'ziqlik, kuchli ohang bilan aytish alohida ma'no kasb etadi, ya'ni ushbu tarzda aytulganda, ayni so'zdan odamning ko'pligi, tasirchanlik, his-hayajon kabilar ifodalanadi. Keyingi gapdagagi «mazza» so'zida «z» undoshining ikkilantirilishi ham ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

O'zbek tili ana shunday imkoniyatlarga nihoyatda boydir. O'zbek tilida takrorning ikki turi mavjud:

- a) grammatik takror;
- b) badiiy takror.

Takrorning birinchi turi grammatik takrorda ma'no-odatda ko'plik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: mashina-mashina qovun tushirdik; qop-qop un yopishadi; gapirib-gapirib uxlab qoldi; yugurib-yugurib charchadi; yaxshi-yaxshi gapiring kabi.

Takrorning ikkinchisi turli xil ma'nolarni ifodalaydi: Tong yaqin, oppoq tong yaqin (č.čulom). Gapiring, gapiring, deyapman, gapirsangizchi!

³ Qarang: R.Qo'ng'urov va boshqalar. O'sha asar. 8-bet.

O'zbek tilida so'zlar tarkibidagi turli xil tovush o'zgarishlari, masalan: qoraqaro, ora-aro, ko'ngil-kangul...; oshino-oshno, oshiyon-oshyon, sen bilan – sen ilasenla, ustiga - ustina, bog'in - bog'ini, ko'ksin - ko'ksini kabilar ham o'ziga xos vositalardir.

Hozirgi o'zbek tilida 30 ga yaqin ko'makchi fe'llar mavjud bo'lib, bu ko'makchi fe'llar etakchi fe'l bilan ravishdosh ko'rsatkichlari – b, (- ib) orqali bog'lanib keladi va turli xil nozik ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: ketdi-ketib qoldi; yozdi - yozib tashladi; tashlab ketdi - tashlab ketib qoldi; qochdi - qochib qoldi; urushdi - urishib berdi; qo'lladi - qo'llab yubordi; kului - kulib qo'ydi kabi.

O'zbek tilida bulardan tashqari alohida badiiy tasvir ko'rinishlari, vositalari ham bo'lib, ularga metafora, metonimiya, sinekdoxa, sifatlash, o'xshatish, kesatish (ironiya), istehzo (sarkazm), mubolag'a, kichraytirish, jonlantirish; zidlash (tazod), zinapoyalash, ketma - ket keltirish, ritorik so'roq, bog'lovchisizlik yoki ko'p bog'lovchilik; tushirib qoldirish (ellipsis), badiiy takror, badiiy o'rin almashtirish (inversiya) kabilar kiradi.¹

O'zbek tilida hozirgi kun nuqtai nazaridan eskirgan- tarixiy deb baholanayotgan so'zlar va turli xil grammatik ko'rsatkichlar ham borki, ular ham tasviriy vosita vazifasini o'taydi. Masalan: ulus, kirom, kishvar, kushod, kulba, kutvol, mavlono, majnunvor, mag'firat mahvash kabi so'zlar va - ur (-ar), - mak (-moq), -din (-dan), -kay (-a-di) kabi vositalar.²

Ko'riniib turibdiki, o'zbek tilidagi har bir til birligi, jumladan, tovushlar, qo'shimchalar, so'zlar va iboralar, gaplar ko'rinishlari kabilarning ichki imkoniyatlari rang -barangdir. Til birliklaridagi ana shu imkoniyatlarning ko'pligi va rang -barangligi ifoda vositalarining turli-tumanligi tilning boyligini belgilaydi. O'zbek tili ana shunday imkoniyatlarga boy tildir. Bu imkoniyatlar shu xalq vakillarining hammasiga barobar xizmat qiladi. Biroq, shunga qaramay, ayrimlarning nutqlari boy, ayrimlarning nutqlari esa kambag'al, quruq, ta'sirsiz, ya'ni qashshoq bo'lishi mumkin. Til boyliklaridan bahramand bo'lgan holda, undan nutq jarayonida mohirlik bilan foydalanish ham kerak. Shundagina til boyliklari, tilning barcha imkoniyatlari nutqda o'z ifodasini topadi, o'z imkoniyatlarini namoyish etadi.³

¹ Qarang: Yo.Tojiev, N.Hasanova, H.Tojmatov, O.Yo'ldosheva O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari, T, 1994, 14-betlar.

² Qarang: Yo.Tojiev va boshqalar. O'sha asar, 15-bet.

³ Qarang: Yo.Tojiev va boshqalar. O'sha asar, 16-bet.

Takrorlash uchun savollar:

1. Adabiy til deb nimaga aytildi?
2. Adabiy tilning so'zlashuv nutqidan qanday farqi bor?
3. Tilning boyligi nimada namoyon bo'ladi?
4. Tarixiy so'zlar deb qandan so'zlarga aytildi?

Tayanch tushunchalar:

1. Sinonim – ma'nodosh so'zlar.
2. Frazeologizm – ibora.
3. Parafraza – tasviriy ifoda
4. Epitet – sifatlash.

NOTIQLIK SAN'ATI TARIXIDAN

Notiqlik mahorati og'zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta'sirli etkazish malakasini egallashdir. Notiqlik san'ati murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka va tajriba talab etadi.

Kishilik jamiyatining biror bir jabhasi yo'qki, unda notiqlik san'ati yoki uning elementlari qatnashmagan bo'lsa. Masalan: biror bir rahbarning o'z xodimlariga qarata so'zlagan nutqida ham, o'qituvchining o'quvchilariga beradigan sabog'ida ham, xullas, hamma - hamma erda notiqlik san'ati o'z mavqeiga ega bo'lgan.

Notiqlik san'atining ijtimoiy mavqeい shu qadar keng va sertarmoqki, ularni har bir jabhada me'yori, mazmuni va shakli, o'ziga xosligi, ta'sir kuchi va tomonlari jihatidan alohida - alohida ko'rib chiqish uchun ma'lum bir vaqt, imkoniyat talab qilinadi. Notiqlik san'ati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu holatni quyidagicha uchratamiz.

I. Notiqlik turlari. Nutq ko'rinishlari:

I. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik:

1. Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy iqtisodiy mavzudagi nutq.
2. Sessiya, konferentsiyadagi nutq.
3. Siyosiy nutq.
4. Diplomatik nutq.
5. Siyosiy sharh.
6. Harbiy vatanparvarlik nutqi.
7. Miting nutqi.
8. Ilmiy-ommabop nutq.

II. Akademik notiqlik:

1. O'quv yurtlari ma'ruzalari.
2. Ilmiy nutq (ma'ruzalar).
3. Ilmiy sharh.
4. Ilmiy axborot.

III. Sud notiqligi:

1. Qoralovchi (prokuror) nutqi.
2. Jamoatchi-qoralovchi nutqi.
3. Oqlovchi (advokat) nutqi.
4. Jamoatchi-oqlovchi nutqi.
5. O'z - o'zini himoya qilish nutqi.

IV. Ijtimoiy-maishiy notiqlik:

1. Madhiya (yubiley yoki maqtov nutqi).
2. Ta'ziya (motam) nutqi.
3. Tabrik nutqi (tost).

V. Diniy notiqlik:

1. Xutba.
2. Va'z.¹

Notiqlik san'ati tur va ko'rinishlari jihatidan ana shunday shakllarda namoyon bo'ladi. Biroq bu tasnif notiqlik san'atining butun borlig'ini har tomonlama aks ettiradi, degan gap emas. Chunki, notiqlik san'ati ham borliq bilan hamnafas yashaydi, zamon talabiga moslashadi, ne-ne yangi ko'rinishlarni vujudga keltiradi va b.

Ko'plab fanlarning beshigi bo'lgan qadimgi Yunoniston (Gretsiya) notiqlik san'ati sohasida ham jahon madaniyati tarixining eng yorqin sahifalarini yaratdi.

Yunon notiqligining eng qadimiy sarchashmalari haqida deyarli hech bir yozma ma'lumot qolmagan. Notiqlik san'ati haqidagi ilk ma'lumotlarni esa faqatgina Gomerning (eramizdan oldingi XII asr) «Illiada» va «Odisseya» nomli dostonlaridan olish mumkin.

Gomer dostonlari ma'lumotiga qaraganda qadimgi Yunoniston tuprog'ida eramizdan avval, ana shu davrlarda, Nestor, Menelay, Odissey, Axill kabi bir talay mashhur notiqlar bo'lganlar. Gomer turli voqealar tasviri jarayonida yo'l-yo'lakay eslab o'tgan yuqoridagi to'rtta notiqlarning notiqlik san'atining to'rtta yo'nalishga mansubligi, ulardan ayrimlarining esa maxsus notiqlik maktablarida tahsil olganliklarini qayd etadi. Xususan, Axillning Feniks ismli so'z ustasi darsxonasida saboq olganligini aytadi. Ushbu fikrlar shuni ko'rsatadiki, notiqlik san'ati o'sha davrlarda yoki xuddi harbiy mutaxassislik va boshqa shu kabi ijtimoiy - siyosiy zarur mutaxassisliklar qatori maxsus maktablarga ega bo'lgan. Yunonistonda keyinchalik aristokratiya, demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlari va sud jarayonlarida mamlakatning har bir erkin fuqarosi ishtirok etish, ko'rileyotgan masala yuzasidan erkin muhokama yuritish huquqiga ega bo'lgan. Bu hol keng omma orasida ham notiqlik sa'natining rivojlanishi uchun juda qulay sharoit yaratdi. Chunki notiqlik san'ati har bir fuqaro uchun zaruriy ehtiyojga aylangan edi. Shu bois barcha davlat arboblaridan tortib, xalq majlislarining ishtirokchisi bo'lgan erkin fuqarolar ommasi notiqlik san'atining asoslarini egallash uchun kurashar va maqsadga erishish uchun maxsus ustoz - o'qituvchilardan dars olishardi. Badavlat oilalar esa o'z farzandlarini bolalik chog'idanoq shu mo''tabar san'at bilan qurollantirishga urinar va farzandlarini maxsus notiqlik san'ati maktablariga berib o'qitardi. O'z - o'zidan ma'lumki, ana shu ommaviy ehtiyoj tufayli notiqlik san'atining boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lif

¹ Qarang: S.Inomxo'jaev, Notiqlik san'ati asoslari. -T. 1982. 7-bet.

darajasidagi maktabi mavjud bo'lib, ularda ming-minglab kishilar maxsus ta'limgardan olardi.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, yunon demokratiyasi nechog'liq demokratiya bo'lmasin, biroq u hozirgi tushunchadagi eng progressiv ma'nodagi demokratiya emasdi. Gap shundaki, antik Yunonistonning davlat sistemasi quldarlikdan iborat edi. Erkin fuqarolardan tashqari yana ikki toifa bor ediki, ular qullar va chetdan kelgan,kelgindi, deb kansitiluvchi kishilar bo'lib, ular erkin fuqarolar ega bo'lgan huquqlardan foydalanishga mutlaqo haqlari yo'q edi.

Yunonistonda notiqlik san'atini egallashga bo'lgan ehtiyoj kuchaysa-kuchayganki, aslo susaymagan. Shu bois qadimgi Gretsiyada bu san'at yuksak darajada taraqqiy etdi, jahonga mashhur notiqlar etishib chiqdi.

Sud ishlarida o'rnatilgan tartib notiqlik san'atining yuksalishiga katta bir turtki bo'ladi. Sud jarayonida da'vogar ham, himoyalanuvchi ham - har biri o'z manfaatini himoya qilish uchun kurashardi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo'lishi ko'pincha sudlanuvchi shaxs yoki da'vogarning notiqlik san'atidagi mahoratiga bog'liq edi. Qay tomon o'zining mantiqiy, asosli dalil va ma'lumotlari bilan sud hay'atini ishontira olsa, hukm o'shaning foydasiga chiqarilar edi. Lekin hamma sudlanuvchi yoki da'vogarlar ham etuk notiq bo'lgan raqiblarining tazyiqiga dosh berishlari qiyin edi. Shuning uchun ham antik sud tizimining qoidalariga ko'ra bunday kishilarga u yoki bu kishi nomidan so'zlovchi notiqlardan yordamchi olishga ruxsat berilardi. Sud jarayonida boshqa birov manfaatini ko'zlab, nutq so'zlovchi ana shu toifadagi notiqlarga sinegorlar deyilib, ularning nutqi **sinegoriya** deb atalardi. Bora-bora esa ana shu **sinegorlar** toifasidan sud hay'atining ajralmas qismi bo'lgan hozirgi tushunchadagi advokatlar kelib chiqdiki, bu ma'noda sinegorlar instituti chinakamiga ijobiy, demokratik rol o'ynadi, deb aytish mumkin.¹

Sinegorlar notiqlik san'ati va huquqshunoslikdan maxsus ta'limgardan olgan kishilar bo'lib, ana shu sud jarayonidagi qatnashuvchilar hisobiga o'z himoyalalaridagi kishilardan xizmat haqi olib, tirikchilik qiluvchi professional notiqlar edi. Shu ma'noda ularni ixtisoslashgan notiqlar, deb aytish mumkin. Chunki sud notiqligi oldida birovni oqlash uchun ular bor bilimlarini va mahoratlarini ishga solishga majbur edilar. Bugina emas, ular dastavval olgan ishlarini ipidan ignasigacha o'rganib chiqishlari va nihoyat jonli so'z san'atiga oid bor mahoratlarini ishga solib, sud jarayonida yutib chiqishga harakat qilishlari lozim edi. Shuning uchun ham sinegorlar sud notiqligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

Logograflar ham sinegorlarga juda o'xshash kishilar bo'lib, aslida ularni ham sinegorlardan ajralib chiqqan muayyan ixtisosli kishilar, deb aytish mumkin.²

Logograflar nutq matnlarini tuzuvchi yoki yozib beruvchi kishilar edi. Sinegorlar ham yozib, ham himoya qilgan bo'lsalar, logograflar ko'proq yozib berish bilan shug'ullanardilar. Biroq bu ularning shaxsan nutq so'zlashlarini istisno qilmasdi.

Bu kasb egalari o'z ixtisosliklari taqozosiga ko'ra huquqshunoslik, notiqlik va nutq matnini yozishda iqtidorli kishilar bo'lganlar. Chunki ular qonunshunos

¹ Qarang: S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 66-bet.

² Qarang: O'sha asar. 67-bet.

mutaxassis, ta'sirchan, mantiqiy izchil va ishontiruvchi nutqlarning yozuvchisi, o'rni kelganda notiq sifatida o'z himoyalariagi kishilarni keng omma oldida, demokratik sud oldida oqlab chiqishlari kerak edi. Zabardast notiqlar nutqiga o'rganib qolgan afinaliklar va sud hay'ati oldida bu ishni bajarish juda mushkul bo'lган. Shuning uchun ham logografiya bilan eng bilimdon, zehni o'tkir, tadbirkor kishilargina shug'ullaniganlar. Shunisi ham borki, logografiya bilan muvaffaqiyatli shug'ullanib kelgan kishilarning ko'pchiligi bora-bora yo yirik davlat arbobi darajasiga ko'tarilgan yo yaxshigina badiiy ijodkor-yozuvchi bo'lib etishgan.³

Afina tuprog'ida notiqlik san'atiga juda qiziqish natijasida uning yangi-yangi ko'rinishlari yuzaga kela boshladи. Ana shulardan biri epideyktik notiqlik, ya'ni tantanali notiqlikdir.

Ma'lumki, shu davrgacha ma'lum bo'lган notiqlik ko'rinishlari muayyan amaliy ehtiyoj uchun xizmat qilardi. Epideyktik (tantanali) nutq ko'rinishi esa notiqlik san'atiga bo'lган katta qiziqishning mahsuli bo'lib, faqatgina suxanpardozlik maqsadini ko'zda tutardi. Bunday nutqdan ko'zlangan maqsad o'z notiqlik mahoratini namoyish etish, notiqlik san'atining barcha imkoniyatlarini ishga solib, tinglovchilarga estetik zavq bag'ishlashdan iborat edi.

Epideyktik nutq mavzuiga ko'ra turlichа edi. Masalan; xudolar haqidagi afsonalar, xalq qahramonlari (Axill, Gerakl va h.k.) madhiyasi, mashhur kishilar hayotiga oid ma'lumotlar (Gomer, Aristid) va b.

Tantanali nutq matnlari shu qadar go'zal, silliq, badiiy va lisoniy bezaklarga boy holda tuzilardiki, ularni so'zga usta notiq og'zidan eshitish emas, o'qib chiqishning o'zi ham katta zavq- shavq berardi. Iste'dodli notiq butunlay badiiy o'qishga kirishib ajoyib, mohirona ijrochiga aylanib ketar va tinglovchilarga chindan ham estetik huzur bag'ishlardi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Afina notiqligining epideyktik ko'rinishi o'z ijtimoiy mavqeiga ko'ra badiiy – estetik ijod xarakteriga moyilroq edi. Qolaversa, umuman yozma adabiyotning paydo bo'lishida notiqlik san'atining roli juda katta bo'lganidek, nafis adabiyotning go'zal lirik shakllari yuzaga kelishida ham epideyktik notiqlikning ta'siri katta bo'lган.

Shunday qilib, Yunonistonda notiqlik san'ati yuksak darajada taraqqiy etdi. Yunoniston - jahon notiqlik san'atining yirik namoyandalarini etkazib berdi. Perikl, Lisiy, Demosfen, Aristotel ana shular jumlasidandir.

Perikl yirik siyosiy arbobgina bo'lib qolmay, ko'zga ko'ringan notiq ham edi. Perikl nutqlarining birorta matni ham bizga qadar etib kelmagan. Lekin uning usta, ko'zga ko'ringan notiq bo'lганligi haqida grek tarixchisi Fukidid ma'lumot beradi. Perikl nutqi fikrning chuqurligi, shaklning soddaligi, samimiyligi bilan, tinglovchilar ruhiyatini e'tiborga olganligi bilan xarakterlanardi.¹

Eramizdan oldingi V asr oxiri va IV asr boshlarida yashab o'tgan taniqli sud notiqlaridan biri Lisiy edi. U usta logograf ham bo'lib, o'z himoyasidagi ayblanuvchilarga nutq matnini yozib berardi. Lisiyning notiqligiga xos xususiyatlardan biri hamma notiqlar uchun zarur bo'lган usul-fikrni yangicha shaklga solishni juda oson egallaganligidir. U gapirishi lozim bo'lган kishining

³ Qarang: S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 67-bet.

¹ Qarang: B.O'rınboev A.Soliev. Notiqlik mahorati. -T. 1984. 17-bet.

xarakterini, ijtimoiy ahvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq matnini ishlab chiqishga usta ediki, bu nutq faqat o'sha so'zlovchigagina xos bo'lardi.

Lisiyning notiq sifatidagi ikkinchi xususiyati, hikoyachilik san'atini egallab olganligidir. U har qanday voqelikni sodda, jonli,qiziqarli shaklda hikoya qilishga usta edi. Uning notiqlik san'atidagi uchinchi xususiyat uslubidagi aniqlik, soddalik va tabiiylik edi.¹

Qadimgi Yunonistonning buyuk notiqlaridan yana biri Demosfendir. Demosfen eramizgacha 384 - yilda tug'ilib, 322 - yilda vafot etgan. U dastlab o'zini himoya qiluvchi sud notig'i sifatida tanilgan. Keyinchalik u logograflik qiladi.

Demosfen notiqlik san'atini o'rganish uchun juda ko'p vaqt sarflaydi. Unda jismoniy kamchiliklar mavjud edi, ovozi past va diktsiyasi yomon bo'lган, kifti asabiy ravishda titrab turgan. Ma'lumotlarga qaraganda Demosfen ovozini o'stirish uchun og'ziga mayda toshlarni solib, dengiz qirg'og'ida nutq so'zlardi va to'lqin shovqin - suronini bosib ketishga harakat qilardi. Kiftning titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni shunday ildiradiki, uning o'tkir uchi kiftga yaqin turadi va kifti titragudek bo'lsa, qilichning uchi tegib og'ritardi. Shu yo'sinda olib borilgan uzlucksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergan.² Tinimsiz mehnat tufayli u mashhur notiq bo'lib etishdi.

Demosfen nutqi uning xarakterini aks ettiruvchi oyna edi. Undagi kuchli vatanparvarlik tuyg'usi nutqlarida o'z ifodasini topardi.

Demosfendan keyin o'zining notiqlik talanti bilan nom chiqargan Aristotel eramizdan oldingi 335 yilda notiqlik san'ati nazariyasi - «Ritorika» asarini yaratdi.

Bu asar uch qismdan iborat:

1. Nutq xizmat qilishi lozim bo'lган tamoyillar tahlili.
2. Notiq uchun zarur bo'lган shaxsiy xususiyat va qobiliyat.
3. Notiq nutqida qo'llaniladigan nutq texnikasi, nutq usullari.

Aristotel nutq uslubiga alohida e'tibor beradi. Aristotelning notiq uslubi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. U notiq nutqi uslubining layoqatliligi uning aniqligi bilan belgilanadi, deb juda to'g'ri ko'rsatadi. Agar nutq aniq bo'lmasa, notiq o'z maqsadiga erisha olmaydi, tinglovlashilarga keraklicha ta'sir etolmaydi. Taniqli faylasuf, ayrim notiqlar nutqida epitet, o'xshatish, metafora va boshqalarning o'rinsiz qo'llanishini qoralaydi va ularni to'g'ri qo'llay bilish nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aytadi.³

Rim notiqlik san'ati yunon notiqlik san'atining davomi sifatida yuzaga keldi. Rimdag'i iqtisodiy va siyosiy o'sishning xarakteri notiqlik san'atining yangi tipini yaratdi.

Yunonistonda bo'lganidek, Rimda ham notiqlikning, asosan, uch turini ko'rsatish mumkin: **sud notiqligi** - oqlovchi va qoralovchi, **siyosiy notiqlik, maqtov notiqligi**. Bulardan tashqari, Yunonistonda bo'lganidek, notiqlik san'atini o'qitish uchun xizmat qiluvchi o'quv - mashq notiqligi ham mavjud edi.

Rimda urushning kuchayib ketganligi harbiy sarkardalar nutqining rivojlanishiga ham imkon berdi.

¹ Qarang: B.O'rabloev, A.Soliev. O'sha asar, 18 – bet.

² Qarang: B.O'rabloev, A.Soliev. O'sha asar, 19 – bet.

³ B.O'rabloev, A.Soliev. O'sha asar. 20 – bet.

Rimlik notiqlardan biri eramizdan ilgari III - II asrlarda yashab o'tgan davlat arboblaridan **Mark Partius Kato** yoki **Katondir**. Katon notiq sifatida nutq san'ati nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan maxsus shug'ullangan.

Keyinchalik Rimda aka-uka Tiberiy va Kay Grakx, Mark Antoniy, Mark Tulliy Tsitseron kabi taniqli qator notiqlar etishib chiqadiki, bular ichida eng buyuk va so'zamoli notiq **Tsitseron** edi. Tsitseron va Demosfen qadimgi notiqlarning eng buyuklari edi. Demosfen ko'proq o'zining siyosiy notiqligi bilan shuhrat topgan bo'lsa, Tsitseron sud notiqligi bilan tanildi. Albatta, Tsitseron nutqlari siyosiy jihatdan ham kuchli edi. Rimda, umuman, siyosiy tomonni chetlab o'tgan birorta ham yaxshi notiq bo'limgan.

Tsitseron timsoldida notiqlik san'atining nazariyasi hayot tajribasi va nazariyasi bilan muvaffaqiyatli ravishda qo'shib olib borildi. U notiqlik san'ati nazariyasining ayrim tomonlarini ishlab chiqibgina qolmay, o'z notiqlik chiqishlari bilan buni tajribada isbot etdi. Tsitseron nutqining muvaffaqiyatli chiqishi uchun notiq quyidagilarga alohida e'tibor berishi lozimligini ko'rsatadi:

1. Notiqning o'ziga ishonchi mustahkam bo'lishi kerak. Buning uchun esa notiq o'z nutqida olg'a suriladigan fikrga to'la ishonch hosil qilishi lozim.
2. Nutq to'liq isbotli dalillarga ega bo'lishi kerak.
3. Materialni to'plash nutqqa tayyorgarlikning asosidir.
4. Materialni to'g'ri joylashtirish-ekspozitsiyaga alohida e'tibor berish lozim. Joylashtirish shunday bo'lsinki, u materialni butunlay o'zlashtirib olishga engillik yaratsin. Buning uchun esa nutqni aniq qismlarga bo'lish lozim.
5. Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini bilish hal etadi. Agar notiq o'z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik san'atkor bo'lmasin, o'z tinglovchisini jalg etolmaydi.¹

Tsitseronning notiqlik san'ati nazariyasi va tarixiga oid uchta asari ma'lum: «Notiqlik haqida», «Notiq» va «Brut» (yoki «Taniqli notiqlar haqida»).²

Rim notiqlik san'atining buyuk nazariyotchilaridan biri **Kvintiliandir**. Mark Fabiy Kvintilian notiqlik san'atida yirik notiq va nazariyotchi sifatida shuhrat qozongan. Uning «Notiq bilimi haqida» nomli asari mavjuddir. Kvintilian Tsitseron va boshqa Rim notiqlari fikriga qo'shilgan holda, hamma notiq birinchi navbatda bilimli bo'lishi lozimligini aytadi.¹ Shuningdek, u notiq axloqiy olijanob bo'lishi lozim, busiz hech qachon haqiqiy notiq darajasiga ko'tarila olmaydi, deb biladi.

Kvintilian Rimdag'i notiqlik maktabining asoschisi hisoblanadi. Ungacha notiqlik bilimini berish xususiy maktablarda amalga oshirilgan.

Umuman qadimgi Yunoniston va Rimning notiqlik san'ati tajribalari o'rta asr va keyingi davr notiqlarining vujudga kelishida muhim rol o'ynaydi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham qadimdan so'zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelgan. O'sha davrda notiqlik san'ati - **voizlik**, notiqlar - **voiz**, nutq esa **va'z** deb atalgan.

O'rta Osiyo xalqlari, xususan, IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, etakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. O'rta asr

¹ Qarang: B.O'rboev, A.Soliev O'sha asar. 22 – bet.

² B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 23 – bet.

¹ B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 24 – bet.

fani, madaniyati Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshg'ariy, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi ulug' siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi.

Bu mutafakkir, shoir, san'atkorlar yashagan davr Sharq tarixida **Uyg'onish davri** deb ataldi. Bu davrda madaniyat, san'at, ilm - fan ravnaq topdi. Fan va madaniyat targ'ibotchilari - voizlar etishib chiqdi. Voizlikni qadrlovchi fikrlar vujudga keldi.²

O'rta Osiyoningga emas, balki Yaqin va O'rta Sharqning mashhur mutafakkiri **Abu Nasr Forobiy** ham IX-X asrlarda-iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda yashab ijod etdi. U ilmning turli sohalarini mukammal bilgan va ular haqida mustaqil fikrlar bayon qilgan buyuk insondir. Nutq va aql tarbiyasiga oid ilmlar to'g'risida chuqur fikr yuritgan Forobiy mantiq ilmi xususida shunday deydi: mantiq shunday bir san'atki, kishi notiqlikdan adashib qoladigan bo'lsa, to'g'ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror xulosa chiqariladigan bo'lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o'z ichiga oladi. Uning aqlga munosabati grammatika san'atining tilga munosabati kabidir.³

Forobiy axloqli kishilarning o'n ikki muhim sifatini ko'rsatadi va shundan beshinchisi sifatida notiqlik haqida gapirib: «so'zлари аниқ бўлсин, фикрини ва аytmoqchi bo'lган mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin», - deydi. Forobiyning chiroqli, tartibli, ta'sirchan qilib so'zlash masalalari haqidagi ba'zi mulohazalari ritorika, poetikaga oid asarlarida uchraydi. Forobiyning o'zi esa, manbalarda zikr etilishicha, shirin so'z, hozir - javob, har qanday qiyin masalani ham bir zumda hal etib beruvchi faylasuf - notiq bo'lgan.¹

Kaykovusning XI asr Sharq pedagogikasi tarixida g'oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi «Qobusnom»sida ham notiqlik sharhlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san'atga bo'lgan, uning san'atkoriga bo'lgan qiziqishning orta borganligini ko'rsatadi. «Qobusnom»ning «Suxandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida» deb nomlangan ettinchi bobida va hunarni egallashga bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir bildirilgan mulohazalar nafaqat o'sha davrda, balki hozirda ham katta ahamiyatga ega.²

Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari-notiqlikni a'lo deb biladi. U notiqlikni egallashning yo'li, birinchidan, «tinimsiz mehnat, o'rganishdir», deydi.

Ikkinchidan, nutqing go'zal bo'lzin, - deydi. «So'zning ikki tomoni bordir: biri go'zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so'zing go'zal bo'lzin, bu so'zni xalq qabul qilsin».

Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to'g'ri yo'l topa bilish, shaklga e'tibor berish masalasi.

To'rtinchidan, har bir so'z to'g'ri va asosli bo'lmosg'i lozimligini uqtiradi.

Beshinchidan, har bir nutq ma'lum ilmiy asosga ega bo'lsagina, ta'sirchan bo'ladi. Ya'ni nutq qaratilgan predmetni yaxshi o'rganib chiqish lozimligini ta'kidlab: «Bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm ma'rifatni bilaman deb, da'vo qilsang hech narsa hosil bo'lmaydi va behuda zahmat chekasan», - deydi...

² B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 24 – bet.

³ Qarang: B.O'rboev, A.Soliev O'sha asar. 25-bet.

¹ Qarang: B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 26-bet

² Qarang: B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 28-bet

Nutqni egallahsdan maqsad xalq diliiga yo'l topa bilishdir, deb biladi muallif va «agar ko'ngillarga sevimli bo'lishni istasang, xaloyiqning maqsadini so'zla», - deydi.³

Umuman musulmon sharqi madaniyatining salmoqli zarvaraqlarini tashkil etuvchi notiqlik san'ati tarixiga oid talaygina manbalar bor bo'lsa-da, ulardan hech biri Alisher Navoiy qoldirgan meros kabi qimmatli va boy emas.

Alisher Navoiy o'z davrining buyuk mutafakkiri, so'z ustasi bo'lish bilan birga kishilarga yaxshi so'z bilan ta'sir eta bilish san'atini juda ham qadrlovchi, ulug'lovchi, bunday san'at ustalariga e'tibor qilib, ehtirom ko'rsatuvchi bir shaxs edi. Navoiy omma o'rtasida yaxshi nutqning ta'siri va tarbiyasini ham chuqur his etadi. Notiqlikdagi yaxshi va yomon tomonlarni ko'ra bilish va ularni farqlay olishga chaqiradi:

To'tiyu shorik agar notiqdurur,
Har biriga o'zga bir mantiqdurur.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» nomli falsafiy asarining 24-faslini «Nasihat ahli va vozilar zikrida» deb ataydi va bunda vozlik san'atiga, va'zga, vozga o'z munosabatini bildiradi.¹

Navoiy voz qanday kishi bo'lishi kerakligi haqida shunday fikr yuritadi: «Voiz Haq so'zni targ'ib qilishi, Payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi Haq va payg'ambar yo'liga kirishi, so'ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq - musofirni yo'ldan adashtirib biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi - uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da'vat etganiga o'xshash bir narsadir». Demak, voz, avvalo, o'zi shariat va tariqat yo'liga kirgan notiq bo'lishi kerak ekan.

Navoiy nazdida, «Va'zzon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga bo'sh kirgan odam to'lib chiqsin, to'la kirgan odam esa engil tortib, xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish ko'rurvchi bo'lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo'ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o'zi qilmasa, uning so'zlari hech kimga ta'sir etmaydi va foyda keltirmaydi. Voiz bilimdon, halol ish ko'rurvchi, sidqu sadoqat bilan faoliyat ko'rsatuvchi shaxs bo'lishi bilan birga, xalqning ruhiyatini yaxshi biladigan, xalqning dardi bilan yashaydigan bo'lishi kerak. Ana shundagina uning va'ziga yurak-bag'ri g'am-alamga, dardu tashvishlarga to'lib kirgan kishi dardlaridan forig' bo'lib, ko'ngli bo'shab, engil tortib chiqadi. Qalbida ma'naviy ruhiy bo'shliq bo'lgan odam esa bunday vozning suhbatidan olam - olam ma'naviy zavq olib, ko'ngli, shuuri fikriy nurga to'lib chiqadi.

Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do'sti bo'lgan Husayn Voiz Koshifiy Sharqning mashhur allomalaridan biri bo'lgan. U axloq, tarix, tasavvuf, nujum (astronomiya) riyoziyot, fiqh sohalariga doir qirqdan ortiq asar yaratgan. Uning «Futuvvatnomai sultoniy», «Axloqi Muhsiniy», «Javohir ut - tafsir», kabi o'nlab asarlari besh yuz yildan beri sharqona odob, va axloq dasturi sifatida yurtma-yurt, qo'lma - qo'l o'qib kelinmoqda.

³ Qarang: B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 29-bet

¹ Qarang: B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 31-bet.

Husayn Voiz Koshifiyning nutqlari o'zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qila olgan. Aytishlaricha, uning bunday so'z san'atidagi mahoratini Alisher Navoiy bilan birga Sulton Husayn Boyqaro ham yuksak baholagan va ular o'z asarlarini aholi o'rtasida rasmiy ijro etish lozim bo'lgan paytlarda bu ishga Husayn voizni munosib ko'rganlar. 898 (1492) yil 8 - noyabr kuni buyuk shoir, Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiyning dafn marosimida Alisher Navoiy o'zining bag'ishlov she'rini o'qib eshittirishni, shu marosimda va'z aytgan Husayn voizga topshirganligi buning dalilidir.¹

Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida Xo'ja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Muin voiz kabi yana bir qancha voizlar haqida ham atroflicha fikr bildiradi.

Shuningdek, mumtoz merosimizda axloq-odob o'rgatuvchi voizning o'z odobi haqida ko'p fikr yuritiladi. Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al - Əazzoliyning «Oxiratnama» asarida ham shunday. Əazzoliy voizlarning voizi bo'lib, voizlarga dastur ul-amal tariqasida pand-nasihat aytadi. U voizning tili – nutqiga, voizning uslubiga alohida e'tibor qaratadi: «Mabodo, va'z o'qitishdan boshqa ilojing qolmasa, ikki narsada ehtiyot bo'l: birlamchi-so'zlaring ortiqcha ibora-yu ishoratlar, asli puch hikoyatlaru ma'nisiz baytlar ila yasangan, ya'niki sertakalluf bo'lmasin! Chunki Olloh taolo takalluf qiluvchilarga g'azab qiladi, ularni do'st tutmaydi. Haddan tashqari sertakalluflik voizning batamom xarob, qalban g'aflatda ekanidan dalolat qiladi». Darhaqiqat, notiqning nutqi asosiy maqsadga qaratilgan, har qanday ortiqcha so'z va iboralardan xoli bo'lishi kerak. Aksariyat notiqlar nutqlarini sertakalluf, jimjimador so'z va iboralar bilan bezashga harakat qiladilar. Ular nutqlarining chiroyli bo'lishini istaydilar va uning tashqi chiroyiga zo'r beradilar. Aslida esa nutqqa chinakam zeb beradigan narsa fikrdir. Voizni eshitimli qiluvchi omillardan biri hayotiy va ibratli hikoyatlar va baytu g'azallar bilan omixta gapirishdir. Albatta, me'yorni unutmaslik lozim.

Takrorlash uchun savollar.

1. Notiqlar deb kimlarga aytildi?
2. Notiqlikning qanday ko'rinishlari bor?
3. Voiz deb kimga aytildi?
4. Notiqlikning voizlikdan qanday farqi bor?

Tayanch tushunchalar

Akademik notiqlik - ilmiy uslubdagi nutq.
Sinegor - sud notiqligi.
Suxandonlik - notiqlik sirlaridan bahramandlik.

¹ Qarang: B.O'rınboev, A.Soliev. O'sha asar. 34-bet.

NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to'liq etib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutq oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo'lib, unda nutqning mantiqan to'g'ri, aniq, chiroyl va maqsadga muvofiq bo'lishi nazarda tutiladi.

1. Nutqning to'g'riliği. «To'g'rilik deganda, -deb yozadi V.G.Kostomarov, - nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik normalarini egallashni tushunish lozim bo'ladi».¹

Nutqning to'g'riliği uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatlari, ya'ni mantiqiyligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur etadi.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga - urg'u va grammatik normaga qattiq amal qilishni talab qiladi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noring ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim. Masalan: olma so'zi. Bu so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda, uning qanday ma'noda qo'llanilayotganini aniqlash qiyin. Faqat urg'u undagi ma'noring aniqlanishiga ko'maklashadi. Ya'ni olma tarzida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda, harakat, olma kabi oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi. Tilimizda bunday so'zlar anchagina. Masalan, hozir - hozir, yangi-yangi, yigitcha-yigitcha, o'quvchimiz - o'quvchimiz so'zlarining ma'nosi ham faqatgina urg'u yordamida oydinlashadi.

Gap tarkibidagi ayrim olingen so'zga tushadigan urg'u, ya'ni mantiqiy (logik) urg'uning ham ma'noni farqlashda xizmati katta. Hamma tillarda ham qaysi ma'no alohida nazarda tutilayotgan bo'lsa, shu ma'noni ifoda etayotgan so'z alohida urg'u bilan talaffuz qilinadi. Masalan, Anvar xat yozdi gapida kim yozganligi, nima yozganligi yoki nima ish qilganligi nazarga olinib, bu gapdagi so'zlarning har uchallasidan biriga urg'u tusha oladi. Bunday o'rnlarda mantiqiy urg'u ma'noni takidlash uchun kerak.

Lekin shunday holatlar ham borki, bo'g'in urg'usida bo'lgani kabi mantiqiy urg'uni ham to'g'ri ishlata bilish kerak. Chunki bunda xatoga yo'l qo'yilsa, nazarda tutilgan ma'no anglashilmay qolishi mumkin. Demak, nutqni to'g'ri ifodalash uchun ham so'z urg'usining, ham mantiqiy urg'uning to'g'ri ishlatalishiga amal qilishimiz zarurdir.

Grammatik normaga rioya qilish deganda, gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarini qo'shishda xatoga yo'l qo'ymaslik, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonuniyatları tushuniladi.

¹ V.G.Kostamarov Kultura rechi i stil. – M. 1960, 24-bet.

Tilimizda morfologik, sintaktik chalkashliklar tez-tez uchrab turadi. Ko'pchilik holatlarda kelishik qo'shimchalari farqlanmasdan ishlatiladi. Bu esa ba'zan mazmunda xatolikka olib kelishi mumkin: Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi, deyish qiyin. («Qishloq haqiqati»). Tilimizning mohir bilimdoni A.Qahhor ham qaratqich va tushum kelishigining ba'zan farqlanmay ishlatilishidan o'zining «San'atkor» hikoyasida asar qahramonining savodsizligini fosh etishda ustalik bilan foydalanadi: Pojarniy «gugurtni erga tashlamang», dedi. Rejissyorimiz esa «gugurtning erga tashlamang», dedi.¹

Xullas, ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy - joyida ishlatish, ya'ni nutqning to'g'ri tuzilishiga erishish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biridir.

2. Nutqning aniqligi. – nutqning aniqligi so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. carb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Aristotel: «Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi»,-- degan, Kaykovus: «Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang, qushga o'xshaysan...», deydi.² Yana «Shunday kishini notiq (suxango'y) deymizki, uning har so'zi xalqqa tushunarli bo'lsin va xalqning har so'zi unga ham ma'lum bo'lsin».

Aniqlik nutqning muhim xususiyati, fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash bilan, nutq predmetining ma'nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga xos so'zlar tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga mos vazifalar yuklasa, nutqning aniq bo'lishi tayin. Demak, aniqlik nutqda so'z qo'llash me'yorlariga amal qilishdan iborat. Bu jihatdan aniqlik to'g'rilikning boshqacha ko'rinishi hisoblanadi. Ba'zan notiq o'zi ishlatadigan so'zning ma'nosini bilishga uncha e'tibor bermaydi. Natijada so'zning ma'nosi nutqdan ko'zda tutilgan maqsadga mos kelmaydi. Ko'pincha bunga bir-biriga yaqin narsalarni anglatuvchi so'zlar sabab bo'ladi. Masalan: Abdulla Qahhor yozuvchi Ma'ruf Hakimning «Qahramonning o'limi» hikoyasini tahlil qilib, «Botir beliga qator beshta bomba qistirib...», «Qo'liga bomba ushlagan holda ko'chaga yugurdi» jumlalaridagi bomba so'zining noto'g'ri qo'llanilayotganligini, yozuvchining bomba va granatani farqlamasligini tanqid qiladi.¹

Aniqlik ikki xil bo'ladi: narsaning aniqligi va tushunchaning aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko'rindi. Nutqda mavjudlikning narsa va hodisalari to'g'ri aks etishi uchun notiq o'zi so'zlayotgan narsalarni yaxshi bilgan bo'lishi lozim. Nutq predmetini bilmaslik yoki chala bilish, shuningdek, ularni o'rganishda loqaydlik qilish orqasida yuzaga kelgan noaniqlik yoqimsiz bo'lib, tinglovchini

¹ Qarang: R.Qo'ng'urov va b. O'sha asar. 52-bet.

² Qarang. R.Qo'ng'urov va b. O'sha asar 53-bet.

¹ Qarang: T.Qudratov. O'sha asar. 55-bet.

ranjitadi. Masalan: «Na tashkilotchilik, na rahbarlik, na bilimdonlik qobiliyati bo’lmanan kishi birdaniga kimning nazariga tushdi?» (Gazetadan).²

Ko’rinadiki, so’zlovchi **na** yuklamasining nutqdagi ma’nosi - ma bo’lishsizlik qo’shimchasi anglatgan ma’noga teng ekanligini unutgan. Odatda na inkor yuklamasi ishtirok etgan gaplarning kesimi bo’lishli shaklda bo’ladi.

Nutqning har tomonlama to’g’ri bo’lishi uchun narsa aniqligining o’zi etarli emas. Tushunchaviy aniqlik nutq mazmunining unda belgilangan tushunchalar tizimiga mos kelishini talab qiladi.

Shunday qilib, aniqlik nutqning aloqaviy fazilatlaridan biri bo’lib, u moddiy borliq bilan nutq mazmunining mosligi sifatida yuzaga chiqadi.

Aniq nutq yaratish so’zlovchidan quyidagilarni talab etadi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakligini ajratib, nutqda qo’llash;

b) nutqda ishlatiladigan so’zning anglatgan ma’nolarini har tomonlama bilish;

v) so’zning ko’p ma’noligiga jiddiy e’tibor berish, ko’p ma’noli so’z nutqda qo’llanganda uning qaysi ma’no qirrasi ko’zda tutilayotganini aniq tasavvur qilish; fikrning yuzaga chiqishida bu so’zning boshqa ma’no qirralari monelik qilish-qilmasligini ko’z oldiga keltirish;

g) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;

d) paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e’tibor berish;

e) tor muhitda ishlatiladigan, chetdan kirgan, kasb -hunarga oid, arxaik, eskirgan, dialektizm so’zlarning ma’nolarini yaxshi anglagan holda nutqqa kiritish.¹

3. Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish - kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, toza nutq hozirgi o’zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo’lishi, turli til, g’ayriadabiy til elementlaridan holi bo’lishi kerak.² Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar halaqt beradi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so’z, ibora, shuningdek, grammatic shakkllar, so’z va so’z birikmalarining talaffuzi, urg’usi.

2. O’rinsiz qo’llangan chet so’z va so’z birikmalari.

3. Jargonlar.

4. Vulgarizmlar.

5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so’zlar.

6. Kantselyarizmlar.

Sanab o’tilganlardan o’rinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir so’zlovchi o’z nutqining adabiy normalar darajasida bo’lishi uchun harakat qilishi lozim.³ O’z shevasiga xos bo’lgan til vositalarini nutqqa o’rinsiz olib kirish nutqni buzadi. Lekin dialektizm va varvarizmlar badiiy asar tilida ma’lum badiiy - estetik vazifani bajarishi, muallifning ma’lum g’oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi ham mumkin. Muallifning milliy koloritni

² Qarang: T.Qudratov. O’sha asar 56-57 – bet.

¹ Qarang: T.Qudratov. O’sha asar. 58-bet.

² Qarang: T.Qudratov. O’sha asar. 50-bet.

³ Qarang: T.Qudratov. O’sha asar. 50-bet.

berish uchun, asar qahramonining qaerlik ekanligiga ishora qilish uchun dialektizm va varvarizmlarga murojaat qilishi hatto zarurdir.⁴ Masalan: «Yoshulli, siz buni emas, meni tinglang! Bu mang’layi qoraning sherigi bor» (T.Malik). Ushbu misolda dialektizmlar territorial koloritni berishga xizmat qilayotgan bo’lsa, quyidagi misolda varvarizmlar - chet so’zlar xarakter yaratishda yozuvchiga ko’maklashgan. «Ishondim, o’rtoq ginrol. Hammasi est bo’ladi. Uyda xaladiynada muzdagi bor, olib chiqaymi? Sizga tekin (T.Malik).

Lahjaviy so’zlarning badiiy adabiyotda o’rni bilan ishlatilishi faqatgina maqsadga muvofiq bo’lib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qolishiga xizmat qilishi ham mumkin. Masalan: nutq nihol o’tkazish haqida bo’lganida adabiy tilda varianti yo’q bo’lgan «xancha» so’zi ishlatilsa va o’z o’rnida unga izoh berilsa, o’rinli bo’lardi. Chunki bu so’z nihol o’tkazish uchun kavlangan chuqurchaning nomi bo’lib, boshqa chuqurchalarga nisbatan ishlatilmaydi.

Nutqda o’rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so’zlar varvarizmlar deb ataladi.

Ayrim kishilarning o’z nutqini nazorat qilmasligi, «yoqimli» so’z qidirishda erinchoqlik qilishi, ruscha atamalarning o’zbekcha shakllarini bilmasligi, ba’zi hollarda o’zining ruschani ham bilishligini namoyish etishga intilishi natijasida varvarizmlar nutqqa kirib keladi: Ertalab zvonit qildim, bibliatekaga bordim kabi. Keyingi paytlarda nutqimizda mana shunday so’zlarning ko’paygani juda achinarlidir. Ulardan qutulishning birdan-bir yo’li ona tilini har tomonlama chuqr o’rganish, unga hurmat bilan qarash, badiiy asarlarni ko’p o’qish, o’qiganda notanish so’zlarning ma’nosiga e’tibor berish va boshqalar. Ayrim kasb egalarining, ayrim guruhlarning o’z «tili» bo’lib, ular bu «til» orqali so’zlashda boshqalardan ajralishga, ifodalanayotgan fikrlarini kishilardan bekitishga intiladilar. Bunday so’zlar jargon so’zlar deb ataladi. Masalan, novcha (aroq), qizil (vino) - ichuvchilar nutqiga xos.

Vulgarizmlarga axloq normalariga to’g’ri kelmaydigan: kishini so’kishda, haqoratlashda ishlatiladigan so’zlar kiradi. Ularni ishlatish so’zlovchining past madaniyatli, qo’pol, johil kishi ekanligini ko’rsatadi. Badiiy adabiyotda ham ulardan foydalaniadi:

- Uxlab o’tiribsanmi, xunasa?! Ming marta chaqirishim kerakmi?! (T.Malik).

Parazit so’zlar deb ataluvchi lug’aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so’zlashuv nutqida ko’p ishlatilib, notiqning o’z nutqini kuzatib bormasligi, e’tiborsizligi natijasida paydo bo’ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. A.Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida buxorolik Sharifboy nutqida «pa’lanat» («padar la’nat»)ni parazit so’z sifatida ishlatib, uning nutqini individuallashtirgan. Sharifboy har gapida bu so’zni qo’shib gapiradi.

«Sharifboy yostiqdan burilib, yonidagi uchinchi yigitga qaradi:

- Pa’lanat, qachon kelgan ekan?»

«Kantselyarizm»lar ish qog’ozlari uchun zarur bo’lgan, ma’lum bir shaklda saqlanadigan so’z birikmali, gaplardir. Ular o’z o’rnida juda zarur. Chunki ish qog’ozlari qat’iy bo’lgan ma’lum shakllarni talab qiladi. Bunday «qat’iy shakllar», shablonlar so’zlashuv nutqiga, badiiy adabiyotga, publisistikaga o’tsa, nutqni buzishi

⁴ Qarang: T.Qudratov. O’sha asar. 60-bet.

mumkin. O'rinsiz kantselyarizmlar majlislarda, kengashlarda, gazetalarda, radio va televideniedagi nutqlarda ko'plab uchraydi.

«Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o'z hayotimizda qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik...» (A.Qahhor). Gapdag'i «365 kun muqaddam», «qat'iy burilish yasab», «zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik» birliklar siyqasi chiqqan bo'lib, ular ijtimoiy hodisalarini ifodalashga moslashgan, bu o'rinda esa nobopdir.¹

4. Nutqning mantiqiyligi. Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari bo'lган to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq etib bormasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga olib keladi. Nutqni tuzishdagi e'tiborsizlik natijasida ba'zan mantiqsizlik yuz beradi. Quyidagi misolga e'tibor qiling «Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajaradilar (Gazetadan). Gapda so'zlarning tartibi to'g'ri bo'lmasligi, «olti oylik» birikmasining «sotish» so'zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur etyapti, hatto xato fikr ifodalanayapti.²

Nutqda mantiqiylikka erishish uchun qo'llangan so'zlar bilan ularning predmetlik ma'nolari mos bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, har bir so'z nutqda qo'llanganda, o'ziga xos ma'nonigina ifodalashi zarur.

Mantiqiylikni predmet mantiqiyligi va tushuncha mantiqiyligi deb ikkiga ajratish mumkin. Predmet mantiqiyligi nutqdagi til birliklarining o'zaro ichki munosabatlarining mosligidan iborat. Tushuncha mantiqiyligi mantiqiy fikr tuzilishidan hamda bu tuzilishning nutqdagi til belgilarining ma'noviy aloqalaridan iborat. Tushuncha mantiqiyligi alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo'lishini taqozo qiladi. Ammo, bu talabni nutqning hamma ko'rinishlariga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Masalan: ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini ko'rib chiqaylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir tuzilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo'lib, ular yagona bir halqaga birlashadi. Matnda berilgan fikrlar qat'iy izchillikda bayon qilinadi.

Badiiy nutq tuzilishi esa bir oz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelinadiyu, birdaniga uzilish yuz beradi, ya'ni boshqa voqealar hikoya qilinadi.. Bu narsa go'yo mantiqiy izchillikka putur etkazganday ko'rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng qamrovlik tasvir qurilishini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqqa putur etmaganligi bunday asarlarning oxirida ma'lum bo'ladi.

Xulosa shuki, nutqning mantiqiyligi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga mos holda ishlataladigan nutqni tushunamiz.

¹ T.Qudratov. O'sha asar, 53-bet.

² R.Qo'ng'urov va b. O'sha asar, 56-bet.

5. Nutqning ta'sirchanligi.

So'z kuchidan yiqilur minbar ham, dor ham,
So'z birla chiqar indan ilon – murdor ham.

(Abu Shukur Balxiy)

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham e'tiborga olinishi lozim. Ya'ni, bunda notiq tinglovchilarini ularning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqining qanday qabul qilayotganigacha nazorat qilishi zarurdir. Professional bilimga ega bo'lган kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lмагани каби, oddiy, etarli darajada ma'lumotga ega bo'lмаган tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish maqsadga muvofiq emas. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lган fikrni to'laligicha tinglovchilarga to'liq etkazishga harakat qilish vazifa qilib belgilanadi. Xo'sh, ta'sirchan nutq deganda qanday nutqni tushunmoq kerak? B.N.Golovin aytganidek, ta'sirchan nutq tinglovchi va o'quvchining e'tiborini va qiziqishini hisobga oladigan nutqdir.

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ifodalananayotgan fikrga ishontira olish notiqlar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqorida aytiganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab tinglovchilarini nutq rejasi bilan tanishtirish lozim. Vaqtini hisobga olish notiqlik fazilatlaridandir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, iloji bo'lsa, nutq sal oldinroq tugatilsa, ayni muddao bo'ladi.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhimdir. Chunki shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchilikdan voz kechiladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi. Notiq fikrlarini o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir sub'ektiv fikr mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqollardan, matallar, hikmatli so'z va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur. Yozuvchi A.Qahhor o'z hikoyalarida epigraf sifatida berilgan maqollar orqali o'quvchilar diqqatini darhol egalaydi. «Osmon yiroq - er qattiq» («Bemor»), «Otning o'limi – itning bayrami» («O'g'ri») va b.

6. Nutqning maqsadga muvofiqligi. Nutqning maqsadga muvofiqligi juda muhimdir. Nutq madaniyati adabiy til me'yorlarini puxta egallah va ulardan nutqda to'liq foydalanish demakdir.

Nutq madaniyati yuksak bo'lган kishi, birinchidan, o'z nutqini to'g'ri, adabiy til me'yorlariga muvofiq tuzadi. Ikkinchidan, til vositalaridan eng muvofiq, eng zarurlarini tanlab olib, nutqning joyibali bo'lismisini ta'minlaydi. Shuningdek, nutqning ixchamligi, mazmundorligi ham katta ahamiyatga egadir.

Abulla Qahhor ta'kidlaganidek, «Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishini boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak», «Surat oldirayotgan kishi suratga chiroyli va kelishib tushmoqqa behuda zo'r berib, o'zining tabiiy holatini buzganday, yozuvchi chiroyli va qoyil qilib yozishga zo'r bersa, adabiy asar uchun zarur bo'lган tildagi soddalik, tabiiylik buziladi».

Nutq to'g'ri, ammo, ayni vaqtida tushunilishi qiyin bo'lishi mumkin. Nutq to'g'ri, biroq nutq so'zlanayotgan sharoitga mos bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham atoqli o'zbek shoir va yozuvchilar o'z asarlarini qayta-qayta ishlaganlar. Bu borada A. Qodiriy, Oybek, A.Qahhor, S.Ahmad, A.Oripovlarni ko'rsatib o'tish joizdir. Yozuvchi S. Ahmadning aytishicha, A. Qahhor ba'zi hikoyalari matnini 27 martagacha qayta ishlagan.¹

O'zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin shunday yozadi: «Adib o'zini tahrir qilishi, asarlarida haykaltaroshdek g'adir-budur marmarni ishlab, jonli inson yaratishi kerak. F.Dostoevskiyning «Aka-uka Karamazovlar» romani qulyozmasini ko'rib, og'zim ochilib qoldi. Shu darajada ko'p tahrir qilinganki, ko'chiruvchi mashinachilarga juda qiyin bo'lgan bo'lsa kerak. Abdulla Qodiriy, Oybek qo'lida yozgan, bir sidra oson yozilgan yaxshi asar yo'q, har qanday zako va etuklik ham tahriru ter to'kishni taqozo etadi».

Ko'rindiki, yozuvchilar so'z va so'z birikmalarining birini boshqasi bilan almashtirganda, normaga mosligini emas, maqsadga qay darajada muvofiq kelishini ko'zda tutadilar.

Nutq faoliyatida muallif o'z oldiga qo'ygan maqsadni eng aniq, eng to'g'ri, eng yaxshi, eng ta'sirli, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so'zlarni, so'z birikmalarni, gaplarni, topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib, «maqsadga muvofiqlik» deb belgilash mumkin. So'zlovchining u yoki bu so'zning, u yoki bu sintaktik qurilma matnining maqsadga muvofiq tuzilganini sezishi, shunga muvofiq ish olib borishi lozim. Norma va maqsadga muvofiqlikning birgalikdagi harakati nutq madaniyatini mukammallashtirishdir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning kommunikativ sifatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning to'g'riliqi nutq madaniyati uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Qanday nutqni biz aniq nutq deymiz?
4. Nutqning aniqligiga qanday yo'llar bilan erishiladi?
5. Nutqning mantiqiyligi deb nimaga aytildi?
6. Mantiqiylik nimaga asoslanadi?
7. Ta'sirchanlik deb nimaga aytildi?
8. Ta'sirchanlikning qanday omillarini bilasiz?
9. Nutqning maqsadga muvofiqligi deb, nimaga aytildi?

¹ T.Qudratov. O'sha asar, 75-bet.

Tayanch tushunchalar:

Jargon – (frantsuzcha jargon). Biror guruh vakillarining, o’z nutqi bilan ko’pchilikdan ajralib turish maqsadida, o’zicha mazmun berib, ishlatajigan so’z va iboralari.

Vulgarizmlar – (lot. Vulgaris-oddiy, sodda) – dag’al so’z, dag’al ibora.

Kommunikatsiya – (lot. communicatio – xabar, aloqa). Biror mazmunning til vositalari orqali berilishi, xabar qilinishi.

TIL VA NUTQ. NUTQ ODOBI. TIL VA MADANIYAT

Til – aloqa quroli, til - hayot ko'zgusi, til – ma'naviyat belgisi. Insonni hayvonot olamidan ajratib, uni koinot sarvariga va gultojiga aylantirgan omil ham tildir. Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur «mevalari» til va nutq orqali yuzaga chiqadi.

Qadimgi islomiy manbalarda aytilishicha, bani basharning yaratuvchisi Tangri taoloning bir og'iz «bo'l» degan so'zi bilan olam yaralgan ekan. Shuning uchun so'zga e'tiqod, so'zga berilgan ta'rifu tavsiflar, so'zning tarixiy xizmatiga aytilgan sharaflar cheksizdir. Ulug' Alisher Navoiy so'zga shunday baho beradi:

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdurki, berur jong'a xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin.
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

So'zning tarixiy - madaniy, ma'naviy xizmati cheksiz, albatta. Lekin tilning imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo'lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida til va nutq munosabatini shunday izohlaydi; «Til shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa, tilning ofatidir».

Demak, til har qancha zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilarkan. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog'liq. Kamon qanchalik mustahkam bo'lsa, mo'ljalga bexato uradigan bo'lsa, tilning, ya'ni o'qning qudrati shunchalik yaqqolroq namoyon bo'ladi.

«Qobusnomda»da Kaykovus «Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi», deydi. Bu so'zlarda shunday hikmat borki, so'zga chechan, so'zamol, notiq kishi hamma joyda obro' - e'tibor, hurmat topadi. Bunga Alisher Navoiy hayoti va faoliyatidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Zero nutq va tafakkur salohiyati uni vaziri a'zam darajasiga ko'targan edi.

çarb donishmandlaridan R.Emirsonning ta'kidlashicha, «Nutq - qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi.» Bu gapda nutqning shunday fazilati ta'kidlanayaptiki, u, birinchi navbatda, ishontirish san'atidir. O'quvchilar bilan muloqotda bo'layotgan o'qituvchi ishonarli gapirishi, nutqi dalillangan, puxta asoslangan bo'lishi lozim. O'quvchilarning ishonchini, mehrini qozongan o'qituvchinigina haqiqiy ustoz deyish mumkin.

Qadimgi notiqlik san'ati harbiy sarkardalik san'ati bilan tenglashtirilgan. Bu bejiz emas. Chunki lashkar bilan zabit etib bo'lmaydigan davlatlar va sarhadlarni so'z san'ati bilan bo'yundirish mumkin.

Alisher Navoiy:

Olibmen taxti farmonimg'a oson
Cherik chekmay Xitoydin to Xuroson,-

deydi. Cherik-bu lashkar. Shoir lashkar tortmasdan Xitoydan Xurosongacha bo'lган sarhadni zabit etganligi haqida faxrlanib so'zlamoqda. Ma'lumki, Alisher Navoiyning ta'sir doirasi va darajasi har qanday harbiy sarkardadan ham ustun bo'lган. Sulton Xusayn Boyqaroning o'zi ulug' shoirni maxsus risolasida ta'riflab «So'z sohibqironi» deb atagan edi.

1. So'zning sehriga, qudratiga, sarkarda bajara olmaydigan vazifani so'z sohibqironi uddalaganligiga yana bir hikoyatni misol qilib keltirish mumkin. Hikoyat mazmuniga ko'ra Husayn Boyqaro uzoqda shikor bilan mashg'ul ekan. Saroyda malika og'ir, betob yotgan ekan. Kunlardan bir kuni malika hayotdan ko'z yumibdi. Ammo podshohga o'lim xabarini etkazishga hech kim jur'at etmabdi. Shunda saroy ayonlari so'z sarkardasi Navoiyga murojat qilishibdi. «Shohga shum xabarni etkazgan kishi, shubhasiz, jazoga mahkum bo'ladi. Mushkulni faqat sizning tadbirkorligingiz, suxandonligingiz oson qilishi mumkin», -- deyishibdi. Shunda Navoiy bir satr she'r yozib beribdi. Uni chopar orqali Husayn Boyqaroga etkazishibdi. Podshoh o'qibdi:

Sarvigulning soyasida so'ldi gul, netmoq kerak?

Husayn Boyqaro darhol misraning mazmunini tushunibdi. Hech bir talvasaga tushmasdan, vazminlik bilan she'riy savolga she'riy javob yozibdi:

Sarvidin tobut yasab, guldin kafan etmoq kerak!

Saroy ahli chopar keltirgan xatni o'qib, so'zning qudratiga qoyil qolishibdi, dafn marosimiga kirishishibdi.

Til va nutq bir - biriga bog'liq hodisalar ekan, ularni bir-biridan ajratib qarash asossizdir. Til nutq uchun «ham ashyodir» imkoniyatdir: nutq esa voqelikdir. Ya'ni nutq til materiali asosida tashkil topadi. Jamoa a'zolari uchun umumiyyidir. Til ruhiy va moddiy materialdan iboratdir.

So'z, morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy material hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma'lum tovush tizimda namoyon bo'ladian so'z va morfemalar moddiy materialdir. Tilning ruhiy hodisaligi uning onda saqlanishi bilan bog'liqdir.. Tilning moddiyligini nutq jarayonida yuzaga keluvchi mavjud tovushlar belgilaydi.

Biz xotiramizda saqlanadigan qoidalardan tezkorlik bilan foydalanib, biror fikrni yuzaga chiqarish uchun so'zlar grammatik ma'no tashuvchi morfemalar va so'z shakllari, asosan, gaplarni hosil qilamiz. Masalan, miyamizda kitobning qaerdan olinganligini bilish haqidagi fikr tug'ildi, deylik. Uni quyidagi savol ko'rnishida yuzaga chiqaramiz: Sen kitobni qaerdan olding?

Bunda biz sen, kitob, qaer, ol leksemalaridan; -ni, -dan, -ding morfemalaridan va so'roq gap modelidan - qoidasidan foydalandik. Bu gapni aytish jarayonida ongimizdag'i leksemalar alohida affiks morfemalarni olib, so'z shakllariga aylandi va yuqoridagi tartibni egalladi. Til ruhiy hodisadan moddiy hodisaga aylandi.

Nutq tildagi ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir. Nutq nutq a'zolarining harakati sababli paydo bo'ladi. Nutq ikki xil bo'ladi: ichki nutq va tashqi nutq. Kishilarning og'iz ochmasdan, gapirmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi ichki nutqqa misol bo'ladi. O'pkadan chiqqan havoning nutq a'zolariga ta'siri, shu ta'sir natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir.

Nutq harakatdagi tildir. Nutq tilga tegishli birliklarni ma'lum vaqt bo'lagida bir-biriga qo'shami, harakatga keltiradi. Nutq so'z shakllari, so'z birikmalari, so'z tartibi va gaplardan tashkil topadi.¹

Nutq odobi insonning ma'naviyatini-ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir.

Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rindi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos holda adabiy normadagi ifodalar bilan etkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor etkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odobaxloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim.²

Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: «Bitta salom bilan beshta narsaga - o'zini engil sezish, shon - shuhrat topish, qut-barakali, ilmi bo'lish va nihoyat uzoq umr ko'rishga erishiladi».

Ha, salomda gap ko'p. Ammo salomlashish, salom berishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Afsuski, keyingi chorakam bir asr mobaynida o'zimizning sharqona salomlashish odobimizni ham unutib yuborayozdik.

Avvalo, har bir muslim va muslima salomlashish ham farz, ham qarz ekanligini yaxshi anglab etmog'i lozim. Chunki «So'z boshi -- salom», deganlaridek, suhbatdoshlar muloqoti «assalomu alaykum», «vaalaykum assalom» jumlalari bilan boshlanadi. Bu suhbatdoshlarning tanish yoki notanishligidan qat'i nazar, o'zaro hurmat va ehtirom belgisi hisoblanadi. Ammo keyingi paytlarda biror joyga kirib borayotgan, telefonda suhbat boshlayotgan kishilarning salomlashishni unutib borayotganligiga tez-tez guvoh bo'lib qolmoqdamiz.¹

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida nutqiy vositalar mavjud. O'qituvchi ularni o'z o'rnida ishlatishda hamma uchun va o'z shogirdlari uchun o'rnakdir.

¹ Qarang: T.Qudratov. O'sha asar, 20-bet.

² T.Qudratov. O'sha asar, 77-bet.

¹ Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati, Farg'ona 1997, 27 – bet.

Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi lozim. O'z aybi uchun uzr so'rash o'z g'ururini erga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir.

Etuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan «xayr sog' bo'ling», «xayr, ko'rishguncha», «xayr, omonlikda ko'rishaylik» kabi ta'sirchan iboralar mavjud. O'qituvchi sinfdan chiqayotganda «xayr, sog' bo'linglar», «xayr, yaxshi qolinglar» iboralarini ishlatsa, o'rinli bo'ladi.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o'z vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o'rgatib borish lozim. Tilimizda rag'batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o'z o'rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O'qituvchi topshiriqni yaxshi o'tagan o'quvchilarni «ofarin», «barakalla», «rahmat», «otangizga rahmat», «minnatdorman» kabi so'zlar bilan rag'batlantirishi mumkin.

«Har bir kishining madaniylik darajasi, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi» (S.Ibrohimov).

Til dunyoni bilish, bilimlarni toplash, saqlash, keyingi avlodlarga etkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriylarini voqelantirish kabi qator vazifalarni bajarishiga qaramasdan, asosiy e'tibor uning kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Tom ma'nodagi madaniy kamolotning muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining muhim jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-marifiy islohotlar har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizning «Davlat tili haqida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlarida, «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi» va boshqa juda ko'plab hujjatlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida ahamiyat beriladi. Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis zamon bilan hamqadam bo'lishi, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim.

Til jamiyat bilan, uning ma'naviyati, ma'rifati va madaniyati bilan birgalikda yuksaladi.

Takrorlash uchun savollar:

Til, qanday hodisa?

Alisher Navoiy til va nutqni qanday ta'riflaydi?

Nutq odobi deganda nimani tushunasiz?

Nutqiy etiket deganda nimani tushunasiz?

Tayanch tushunchalar

Odob - muomalada o'zini tuta bilish.

Nutq odobi - adabiy normadagi nutq.

So'z - ma'no ifodalovchi nutq birligi.

NUTQ MADANIYATI VA STILISTIKA

Stilistikaning tilda tutgan o'rni beqiyosdir. Stilistika me'yorlarni shakllantirish, mashhur tilshunos olim G.O.Vinokur ta'kidlaganidek, nutq madaniyatining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi, uning eng muhim vazifasidir. Chunki stilistik me'yorni yaxshi bilmasdan, ularni mukammal egallamasdan turib, nutq madaniyatiga, madaniy nutqqa erishib bo'lmaydi.¹

Ma'lumki, har bir so'zni o'ylab, tanlab, ularning har bir ma'nosiga, ma'no qirralariga yaxshi e'tibor qilib, o'rini ishlatish haqida juda ko'plab xalq maqollar, hikmatlari mavjud. Bu haqda qadimgi davr faylasufi Aristotelning «Poetika» va o'zbek klassik shoiri Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarlarida ham qimmatli fikrlar aytilgan.

Tilda har bir so'zni, grammatic formani, har bir sintaktik qurilmani o'z o'rnida, ya'ni shu so'z, shu grammatic shakl yoki sintaktik qurilma (gap) ishlatilayotgan vaziyatni (tinglovchi saviyasi, ularning holati kabilar) hisobga olgan holda to'g'ri qo'llash, ularning shu vaziyatga eng mos tushadiganini tanlab, nutq jarayonida ulardan unumli foydalanish, eng ixcham va fikrni lo'nda ifodalaydiganini, eng sodda va hammaga tushunarlisini ishlatish nutqning raxonligini, tushunarliligini, aniqligini ta'minlaydi, uni g'alizliklardan xalos etadi. So'zlarni, grammatic shakllarni befarq qo'llash, vaziyatga mos tushmaydigan gaplarni beixtiyor, nazoratsiz aytib yuborish, bo'lar - bo'lmasga u yoki bu so'zdan yoki grammatic shakllardan foydalanaverish, umuman, ularni ortiqcha qo'llash, o'rinci - o'rinsiz takrorlayverish nutqni bachkana qiladi, fikrni xiralashtiradi, uning ta'sirchanligiga putur etkazadi.¹ Zero, donolar aytganidek:

Nodonlardek yuzlab so'zni qilma qator,
Donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor.
(Sa'diy Sheroyi)

yoki

So'z joyu vaqtiga bo'lar ekan mos,
Sehru afsun uchun u bo'lar asos.
(Abdurahmon Jomiy)

Ma'lumki, uslubiyat - fikrni ifodalash yo'llari, til vositalarini – materiallarini to'g'ri tanlay bilish haqidagi ta'limot-uslublar ilmi bo'lib, tilning vazifalariga mos ravishda bir necha ko'rinishlarga ega: so'zlashuv uslubi, kitobiy uslub, ilmiy-ommabop uslub, rasmiy, publitsistik va badiiy uslub kabilar.

Xuddi shu narsani uslubiyatning tarkibiy qismiga kiruvchi grammatic stilistika uchun ham aytish mumkin.

Grammatikaning morfologiya va sintaksis nomlari ostida ikki qismga ajratilish holati grammatic stilistikada ham saqlanadi va u morfologik stilistika hamda sintaktik stilistika kabi ikki ko'rinishda bo'ladi.

¹ Qarang: Yo.Tojiev va b. O'sha asar. 90–93 betlar.

¹ Qarang: Yo.Tojiev. va b. O'sha asar, 91-bet.

Grammatika so'zning shakl yoki sintaktik qurilmaning lug'aviy va grammatik ma'nolarini o'rgansa, grammatik, stilistika ularning qo'shimcha - ekspressiv ma'nolarini, vazifaviy xususiyatlarini o'rganadi.

Grammatika bilan stilistika birgalikda faqat grammatik shakllarning nimani ifodalanishini emas, balki qanday ifodalanishini ham o'rganadi.

Grammatik stilistikaning bir qismi bo'lgan morfologik stilistika har bir grammatik shaklning, so'z yasovchi vositalar va har xil boshqa shakllarning stilistik xususiyatlarini o'rganadi.

O'zbek tilida affikslar doirasidagi ma'nodoshlik (sinonimiya) hodisasi ham keng tarqalgan: **shu sababli // shu sababdan; talabalardan biri // talabalarining biri; otga mindi // otni mindi; savlatli // savlatdor // basavlat...** kabi.

O'zbek tilida so'z yasovchi va grammatik ma'no ifodalovchi juda ko'p affikslar o'z variantlariga ega yoki bir-biri bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, jo'nalish kelishigi ko'rsatkichi **-ga** hozirgi tilimizda **-ka, -qa** variantlarida uchrasa, eski o'zbek tilida **-g'a (borarg'a - qilurg'a, so'rarg'a)** ko'rinishda uchraydi. Fe'llardagi **-giz** ko'rsatkichi **-kiz, -g'iz, -qiz; -kaz; -gaz** va hatto, ba'zan **-kar (o'tkar, etkar)** variantlarida uchraydi.¹

Bundan tashqari, bir kelishik qo'shimchasi o'rnida ikkinchi kelishik qo'shimchasi qo'llanadi va ikki xil sintaktik qurilma hosil qiladi. Bu hodisa hozirda morfologik stilistikaning tekshirish ob'ekti sifatida qaralmoqda. Har holda o'zbek tilida shu sababli // **shu sababdan; talabalardan biri // talabalarining biri** tipidagi qo'llanishlarda go'yo **-li** affiksi bilan **-dan** affiksi yoki **-dan** affiksi bilan **-ning** affiksi sinonim sifatida qo'llanayotgan bo'lsa ham, boshqacha aytganda, gap go'yo **-li -dan**, va **-ning** affikslarining stilistik xususiyatlari haqida borayotgan bo'lsa ham aslida bunday holatlar sintaktik stilistikaning tekshirish ob'ekti bo'lishi kerak. Chunki ular faqat shunday sintaktik qurilmalar, shunday qurshovlardagina shu holatda ishlatiladi: bu o'rinda lisoniy birliklar yaxlit holida o'zaro munosabatda bo'ladi. Quyidagi holatda ham shu hodisani kuzatish mumkin: **Pul berib daftar, qalam olib kelishga buyurdi (kelishni buyurdi); Barcha kerakli adabiyotlarni ko'rib chiqishga // chiqishni tavsiya qilaman;** Ba'zan bunday qurilmalarda sintaktik shakl o'mida analitik shaklni ishlatish hollari ham uchraydi: **O'z qarashlarini gapirdi // o'z qarashlari haqida gapirdi; Har kim o'z dardini gapirdi // har kim o'z dardi to'g'risida gapirdi** kabi.²

Ma'lumki, bunday qurilmalarning har biri stilistik jihatdan bir-biridan farq qiladi va sintaktik stilistika bularning o'ziga xos xususiyatlari hamda imkoniyatlarini talqin qilib berishi, har birining qaysi nutq uslubiga xoslanganligini ajratib berishi lozim. Jumladan, sintaktik shakl ishtirok etgan holatlar jonli so'zlashuv nutqi uchun xoslangan bo'lib, analitik shakl ishtirok etgan holatlar publisistik, rasmiy nutq uslublariga xoslangandir.

Tilimizda ba'zan ayrim grammatik shakl pleonastik (qo'sh) qo'llanadi. Bunday qo'llash nutqda ortiqchalikni vujudga keltirishi, nutq ravshanligiga putur etkazishi, fikrni xiralashtirishi, bachkanalashtirishi mumkin: **toychoqchaginam, kichkinagina,**

¹ Yo.Tojiev va b. O'sha asar, 90-bet.

² Qarang: Yo.Tojiev va b. O'sha asar, 97-bet.

ichilib qo'yildi, to matabgacha, Yangiqishloq qishlog'i, bir kalima so'z, o'n yillar o'tdi. 6 ta o'g'il - qizlarim bor, har bir dalillarni kabi qo'llanishlarda grammatic shakllar yoki so'zlarning o'rinsiz, maqsadsiz qo'llanishi natijasida ana shunday hol yuz bergenini kuzatamiz: kichkinagina tipidagi qo'llashlarida **-gina**, solinib bo'lindi qo'llanishidagi **-in**, ichilib qo'yildi tipidagi qo'llanishlarda oldingi so'zdagi **-il**, to matabgacha qo'llanishida **to** elementi (bunda ba'zan kuchaytirish ifodalanishi mumkin, ana shunday vaqtda to elementining ishlatilishi o'zini oqlaydi), keyingi birikmalarda **qishlog'i, kalima so'zlari, o'n yillar o'tdi, oltita o'g'il - qizlarim bor, har bir dalillarni** birikmalarida -lar affiksi ortiqcha ishlatilgan va nutqda g'alizlik tug'dirgan.

Har bir dalillarni birikmasida **har bir** belgilash olmoshining ishlatilishi **-lar** qo'shimchasining qo'llanishiga yo'l qo'ymaydi va aksincha. Chunki **har bir** olmoshi miqdorni chegaralab, umumdan ajratishni, yakkalikni bildiradi, ya'ni ko'pdan birni ajratadi, -lar affiksi esa, ko'plik ko'rsatkichi. Shuning uchun **har bir** olmoshi ishlatilgan o'rinda **-lar** affiksi va **-lar** ishlatilgan o'rinda **har bir** olmoshini ishlatish o'zini oqlamaydi.¹

Biroq, shuni ham aytish kerakki, grammatic shakl yoki boshqa vositalarni pleonastik qo'llash hamma vaqt ham nutqda ortiqchalik tug'diravermaydi. Ba'zan juda o'rinali, tushungan holda, ma'lum bir maqsadni ko'zda tutib, shunday qilinsa, nutqni ravon qiladi, fikrni aniq, lo'nda, bor nozikliklari bilan ifodalashga yordam beradi, nutq ta'sirchanligini oshiradi, ma'noni kuchaytiradi, bo'rttiradi: Ulug' ayyom kunlari; shuncha yil tuz - namak bo'ldik; besh panjasini og'ziga tiqadi; aytganini qilmay qo'ymaydi; biz o'zimiz aytib qo'yamiz tipidagi qo'llanishlarda ana shu holni kuzatamiz. To'g'ri, namak, kalima, ayyom, panj so'zlari fors-tojik tillarida tuz, so'z, kun, besh so'zlariga to'g'ri keladi. Biroq, o'zbek tilida ular, birinchidan, boshqa ma'noda qo'llanilishi mumkin bo'lsa, ikkinchidan, kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaruvchi sifatida ishlatilishi mumkin. Jumladan, **ulug' ayyom kunlari** birikmasida **ayyom** so'zi kun ma'nosida qo'llangan emas, u ma'lum bir sanani ifodalagan, besh panjasini birikmasida panja so'zi barmoq ma'nosida, **bir kalima so'z** birikmasida kalima so'zi **so'z** leksemasining aniqlovchisi bo'lib kelgan va aqli, fikrli, lo'nda so'zlari ma'nosida qo'llangan; tuz-namak qo'llanishida esa o'zbek tilida, og'zaki nutqda ko'p uchraydigan non - pon, choy - moy tipidagi holatni kuzatamiz.

Bundan tashqari, bu qo'llanishda **tuz - namakning** ibora holiga kelib qolgani ko'zga tashlanadi va u birga turdik, birga bo'ldik birikmalari ifodalagan ma'noni anglatadi. Xuddi shu birikmada ularidan bittasini qo'llash hech mumkin emas.

Keyingi misolda inkor formasining (-ma) ikkala so'zda ham ishtirok etishi tasdiq ma'nosini ancha kuchaytirib, bo'rttirib bayon qilishni ta'minlagan.¹

Quyidagi misolga e'tibor qilaylik: Birlari mo'ltoninamo xiylag'ar, birlaridir gavsifatu gavda har (Muqimiyl). Bu misoldagi **birlari** so'zi tarkibidagi -lar affiksi go'yo ortiqchadek. Chunki bir sonidan keyin ko'plikni bildiruvchi -lar ko'rsatkichi, odatda, ishlatilmaydi. Biroq shoir bu o'rinda stilistik maqsadda juda o'rinali foydalangan (-lar affiksini kinoyani ifodalash uchun unga yangi vazifa yuklab

¹ Yo.Tojiev va b. O'sha asar, 93 - bet.

¹ Yo.Tojiev va b. O'sha asar, 94-bet.

ishlatgan). Shuningdek, nutqimizda (asosan, og'zaki nutqda) **kelinglar** o'rnida **kelingizlar, hormanglar** o'rnida **hormangizlar** tipida qo'llashlar uchraydi. Bunday o'rinda ham **-lar** va **-iz** ko'rsatkichlarini pleonastik tarzda qo'llash o'zini oqlaydi. Chunki bunda hurmat ma'nosи бироз bo'rttirib berilgan, so'zlovchining sub'ektiv munosabati, holati, hatto xursandligi, samimiyligi, hech bo'limganda o'zini shunday qilib ko'rsatmoqchi bo'lganligi yoki, qolaversa, o'zini shirinsuxan qilib ko'rsatmoqchiligi ifodalangan bo'ladi. Misollar: - Kelishdilar, taqsir, kirsinlarmi? O'g'il o'stirish bu turda bo'lmas: u tilasin - tilamasin shartta - shartta tilaganingizcha qilingizda, qarab tura beringiz, Otobek uni ortiqcha bir e'tibor bilan eshitar edi, sarxushchasiga:

- So'zlay beringiz! – dedi... (A.Qodiriy).²

Keltirilgan misollardagi **qilingiz - da, so'zlay beringiz** so'zlaridagi **-iz** ko'rsatkichiga aslida ehtiyoj yo'qdek. Chunki hurmat ma'nosи kechiring, **so'zlang** so'zlaridagi **-ing** affiksi vositasida ifodalangan. Yozuvchi esa o'sha hurmatni yanada bo'rttirish uchun bu shakl ketidan yana **-iz** ko'rsatkichini qo'llagan va o'z fikrini, o'z munosabatini yanada aniqroq ifodalagan.

O'zbek tilida, umuman olganda, **-lar** affiksi turli - tuman ma'nolarni ifodalab keladi. **Boshlarim og'ridi. Samarqandlarga olib bordim, Shunchalar kuttirasizmi?** tarzidagi qo'llanishlarda ham buni kuzatish mumkin.

Grammatik stilistikada ayrim grammatik shakllarning o'rnini almashtirib qo'llashning o'ziga xos tomonlari borligi keng o'rganilishi kerak. Adabiy me'yorda har bir ko'rsatkichning o'zak-negizlarga qo'shilishdagi o'rn qat'iy belgilangan. Ammo ma'lum bir stilistik maqsadni ko'zda tutgan holda ularning o'rnini almashtirish mumkin: Qalbimni sen ko'zimdanmi anglading (Oybek); Osmondagi bulutlarning xo'mrayishidanmi qo'rqedingiz (Oybek); boringlar -- borlaring, ketinglar-ketlaring; borganmi edi - borgan edimi, aytib edimmi -- aytibmi edim; dadang uydalarmi-dadang uydamilar; aytmabmidim - aytmab edimmi (og'zaki nutqda).

Keltirilgan misollarga diqqat qilsak, birinchi ikki gapda **-mi** yuklamasi aslida, adabiy me'yorga ko'ra, **anglading** va **qo'rqedingiz** so'zlariga qo'shilib kelishi kerak edi: angladingmi, qo'rqedingizmi tipida. Ammo yozuvchi bu shaklni oldingi so'zga qo'shadi va bu bilan o'ziga xos ekspressivlik hosil qiladi, ta'sirchanlikni oshiradi, nutqqa poetiklik ato etadi. Keyingi misollarda **-ing** va **-lar** affikslarining o'rnini almashtirish hurmat yoki hurmatsizlik ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, borganmi edi – borgan edimi tipidagi qo'llanishlarda ma'noni kuchaytirish, nutqqa ekspressivlik ato etish, ta'kidlash, jonlilik, jo'nlik, tasviriylik o'z ifodasini topgan.¹

Ko'rinish turibdiki, hozirgi o'zbek tilshunosligida grammatik shakllar stilistikasini o'rganish alohida ahamiyatga egadir. Grammatik shakllarni o'z o'rnida to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash, ulardan o'rinli foydalanish nutqimizning ta'sir kuchini oshiradi, uni har xil g'alizliklardan xalos etadi.

Nutqda bir xillikdan qochish, ta'sirchanlikni ta'minlash, nutqqa ekspressiv-stilistik bo'yoq berish, har bir uslubning o'ziga xosligiga e'tibor berish va uni

² Yo.Tojiev va b. O'sha asar, 94-bet.

¹ Yo.Tojiev va b. O'sha asar, 96-bet.

ta'minlash, grammatik sinonimlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish ham stilistikaning diqqat markazida bo'lsagina amalga oshadi.²

Xullas, tilimizda ishlatilayotgan grammatik shakllar pleonazmni, nutqda ortiqchilikni tug'dirsa ham, agar ulardan ma'lum bir maqsadda to'g'ri foydalanilsa, ortiqchilik umuman sezilmaydi. Aksincha, bunday qo'llash nutq ta'sirchanligini oshiradi, nutq aniqligi, ifodaliliginini ta'minlaydi, u tasviriy vosita vazifasini bajaradi.

Shuningdek, ayrim grammatik shakllarni adabiy me'yorda belgilanganidan (odatdagidan) boshqacharoq qo'llash, ma'lum bir nutq stilining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib qo'llash nutqning buzilishiga olib kelmay, balki nutqning rang-barangligini ta'minlaydi, ekspressivligini oshiradi, hatto xarakter yaratish uchun ham xizmat qiladi. Ammo bundan boshqacharoq qo'llash u yoki bu uslubning o'ziga xos stilistik me'yorlari taqozo etgan darajada bo'lsagina o'zini oqlaydi. Masalan, **qora, ora, menga** so'zlarini faqat she'riyatdagina qaro, aro, mango tipida qo'llash, -ur, -mak kabi shakllarni ham faqat she'riyatdagina, poetik stildagina ishlatish ana shunday natiya berishi mumkin.¹

Takrorlash uchun savollar

Uslubiyat deganda nimani tushunasiz?

Grammatik stilistika nima?

Tayanch tushunchalar

Stilistika - adabiy til uslubi,

Qoshimcha - shakl va so'z o'zgartiruvchi hamda yasovchi affiks.

² Yo.Tojiev va b. O'sha asar, 97-bet

¹ Yo.Tojiev va b. O'sha asar, 98-bet

NUTQ VA TERMINOLOGIYA

Respublikamiz o'z mustaqilligiga, ona tilimiz esa Davlat tili maqomiga erishgan bugungi kunda turli fanlar, jumladan, o'zbek tilshunosligi oldida yangidan-yangi vazifalar ko'ndalang bo'lmoqda.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, O'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarini echish vazifasi turibdi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlarni yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Qayd etish lozimki, o'zbek tilshunosligida U.Tursunov, S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, O.Usmonov, N.Mamatov, R.Doniyorov, X.Jamolxonov, N.Qosimov, A.Madvaliev, N.Mahkamov, Z.Mirahmudova kabi yuzlab olimlarning monografiya, dissertatsiya va lug'atlari, ko'plab maqolalari yuzaga kelgan. Shunga qaramay, yana qator terminologik tizimlar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy halning hamma jabhalarida yangicha fikr yuritilmoqda. Jumladan, yangicha fikrlash tamoyili ijtimoiy fanlarni to'la qamrab oldi, chunki uning oqibati jamiyatda inson holtiga, kelajak taraqqiltiga, uni qamrab olgan olamga tegishlidir. Shuning uchun ham kishilar, millatlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda bиринчи о'rinda ijtimoiy aloqalar ilgari surilmoqda.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida kelajak ravnaqi uchun, albatta, o'z ichki va tashqi silsatida va iqtisodiy aloqalarida ham mustaqil bo'lishi lozim.

Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o'zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunlning juda ko'p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo'l ochildi. Bu omillar o'zbek tilida yangi-yangi terminlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda. Shu boisdan fan va texnika taraqqiiting hozirgi bosqichida iqtisodiy terminlarni ham tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy, ayniqsa, nazariy masalalarini hal etish uchun iqtisodiy terminlar tizimini, ularning yasalish qonunlarini, shakllanish manbalarini, umumtilda qo'llanish doirasini, mazkur tizimda ro'y beraltgan kamchiliklarni va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash kabi qator masalalarini o'rganish zaruriyati paydo bo'ldi.

Fanning yana bir maqsadi hozirgi o'zbek tilida qo'llanib kelinaltgan iqtisodiy terminlarni to'plash va tizimlashtirishdan ham iboratdir.

Hozirgi bosqichda, ya'ni yuqori saviyadagi ilmiy-texnik inqilob davrida ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha sohalarida yangidan-yangi narsa, predmetlar va tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bu hol til lug'at tarkibining salmoqli ravishda boyishiga olib kelmoqda. Binobarin, termin muammosi hozirgi leksikologiyaning,

asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi. Alovida ta'kidlash lozimki, termin hamda terminologiyaning u lki bu masalasini hal etish nafaqat ishlab chiqarish, fan va texnikaning tegishli sohalari uchun balki tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga egadir.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgunga qadar va u amal qila boshlangandan keyin qator-qator matbuot xodimlari, hatto ayrim tilshunoslar Davlat tili haqidagi qonunni to'liq joriy etish o'mniga, uning ayrim bandlariga deyarli e'tibor bermay, ko'pdan buln qo'llanib kelinaltgan va omma nutqiga singib ketgan ko'plab terminlarni, ularning ichki mazmunini o'rganmay turib, yangidan noto'g'ri hosil qilingan leksemalar bilan almashtira boshlashdi. Hatto «termin», «terminologiya» kabilar «atama», «atamashunoslik» leksemalari bilan almashtirib qo'llanadigan b bo'ldi. Binobarin, «atama», «atamashunoslik» kabi tushunchalar umumxarakterda bo'lganligi e'tiborga olinmadi. Chunki, «atama» deyilganda onomastika (toponimiya, antroponomiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi.

Shunga ko'ra, avvaldan is'temolda bo'lgan baynalmilal «termin» va «terminologiya» leksemalarini qo'llashni lozim.

Garchi, chet el va umuman, sho'ro tilshunosligida termin nazariy jihatdan nisbatan to'liqroq o'rganilgan bo'lsa ham uning ta'rifi, termin va termin bo'limgan so'zlarning bir-biridan farqlanuvchi belgilari, terminning tarkibi (uning nechta elementdan iborat bo'lishi singari masalalar) hali oxirigacha o'rganilmagan va hal qilinmagan. Bu hol to'laligicha o'zbek tilshunosligi va terminologiyasiga ham taalluqlidir.

«Termin» tushunchasiga yuklangan mazmun terminlarni umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun quyidagicha belgilarga asoslanadi:

- 1) termin-umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z lki birikmadir;
- 2) termin-konkret narsa-predmet, ashli, mavhum tushunchalar-ning maxsuslashtirilgan nomidir;
- 3) termin uchun muayyan ta'rif zaruriydirki, uning lrdamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Demak, terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqilti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazarat ostida bo'ladi. «Terminlar paydo bo'lib qolmaydi», aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda «o'ylab topiladi», «ijod qilinadi». Shuningdek, oddiy so'zdan farqli ravishda, terminning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lmaydi, muayyan leksema terminologik ma'nosida va o'z terminologik maydonida qo'llanar ekan, ayni ma'no saqlanib qolaveradi. Biroq ko'p ma'noli terminlarning aniq ma'nosini ajratib olish uchun kontekstning zarurligi shubha tug'dirmaydi.

Terminologik birikmalarning ko'p leksemaliligi, ya'ni ular komponentlarining soni nechtagacha bo'lishi keyingi yillarda terminshunoslarning diqqat-e'tiborini jalb etib kelmoqda.

Haqiqatan ham keyingi yillarda miqdoran ortib boraltgan ko'p komponentli birikma terminlar tushuncha mazmunini to'laroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qo'llash va ldda saqlab qolish ancha noqulaydir. Aslini olganda, bunday terminlar ikki, nari borsa uch, to'rt komponentdan iborat bo'lishi lozimki, natijada, birikma terminlarning komponentlari, tegishli belgilarni to'laroq aks ettirish maqsadida, aniqlovchilar, sifatdoshli o'ramlar qo'shish orqali hosil qilinishi darkordir. Bu tushunchani ifodalashning dastlabki bosqichiga xos holat bo'lib, keyinchalik tushuncha haqida muayyan tasavvur yuzaga kelgach, u qadar ahamiyatsiz belgilarni ifodalagan komponent (so'z)lar qisqartirilishi, binobarin termin ixchamroq holga keltirilishi mumkin. Biroq bu jaraln boshboshdoqlik, tavakkalchilik asosida emas, balki ma'lum qonun-qoidalar asosida ongli ravishda amalga oshirilishi lozim.

Ta'kidlash joizki, terminlar masalasi bilan shug'ullangan deyarli barcha olimlar mazkur tushunchaning ta'rifini berishga urinib ko'rishgan. Ularning barchasigina emas, ayrimlarini, ham namuna tariqasida keltirib o'tish ko'plab sahifani egallagan bo'lardi. Shuning uchun ularni jamuljam etgan holda «termin» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Termin kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim ob'ektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtai nazaridan bilish hamda o'zlashtirish jaralnida ishlatiladigan so'z lxud birikmadir.

Haqiqatan ham shunday, chunki har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o'sha soha, tarmoq doirasida qo'llanadi, aniqroq qilib aytganda, kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o'zaro nutqiy muomala uchun shart-sharoit yaratadi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb-hunar lxud mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar ko'pincha u lki bu sohaning o'ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko'radi. Masalan, iqtisodchilarning lzma lki og'zaki nutqida kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag' ajratish, renta kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir. O'z-o'zidan alnki, bu xildagi terminlar iqtisodiltadan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodilt sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi.

Bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, xaridor, bozorchi, olib-sotar, chaycovchi kabilar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash lozimki, nafaqat iqtisodilt balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni yig'indisi terminologiya deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbilt terminologiyasi, iqtisodilt terminologiyasi va boshqalar.

O'zbekistonda keyingi davrlarda fan va texnikaning barcha sohalari rivojlandi. Natijada o'zbek tilida fan va texnikaning barcha sohalariga oid terminlar vujudga keldi; o'zlashtirildi, yangi terminlar yasaldi. Mavjud terminlarning ko'pchiligi o'zgardi, yangilandi. Bu terminlarning aksariyati umumadabiy tilga o'tib, ommalashib ketdi va hamma uchun tushunarli bo'lib qoldi. O'zbek tilida chiqayotgan

gazetalarga e'tibor beriladigan bo'lsa, ularda vodoprovod, radio, elektr, televizor, geografiya, geologiya, biologiya, trolleybus, tramvay, avtobus, shofyor, vokzal kabi yuzlab so'zlarni uchratish mumkin. O'zbek tili terminologiyasida ilgari mavjud bo'lgan, ko'proq arab tilidan o'zlashgan jumhuriyat, munajjim, muarrix, munaqqid, muallif, inqilob kabi so'zlarning o'rnini rus tilidan yoki u orqali o'zlashgan baynalmilal so'zlar egalladi. Keyingi davrda esa yana o'sha arab tilidan o'zlashgan so'zlarni qo'llash kuchaydi. Bir qator so'zlar borki, ularni hozirgi o'quvchilar maxsus lug'atlarsiz tushuna olmaydilar: munshiy, qozi, dodxoh, haram, avrapo'sh, sipohsolar, voiz, vomiq, behbud, badho', alfoz, anduh, andoza, andisha, asno, afgor, axbor, aftoda, misqol, mufti, koranda, chorakor, qushbegi, pansod kabi. Bu so'zlarning bir qismi tarixiy so'zlar sifatida, bir qismi eskirgan so'zlar sifatida ishlatilmoqda.¹

Yangi vujudga kelgan yoki o'zlashayotgan atamalarni anglamay turib, qadimda tilimizda keng qo'llangan so'zlarning ma'nolarini tushunmay, bilmay turib, o'zaro to'g'ri fikrlashish, o'zaro bir-birini to'g'ri anglash, yozilgan asarlarning tub mohiyatidan to'la bahramand bo'lish mumkin bo'lmay qoldi. Shuning uchun ham ilmiy jarayonda, o'qish - o'qitishda terminlarni chuqur bilishning hamda to'g'ri, o'rinni, tanlab qo'llay bilishning, qisqasi, terminologiya madaniyatining ahamiyati beqiyosdir. Terminlarni o'rinni-o'rinsiz ishlatish, tushunmagan holda qo'llash, soxta bilimdonlikni niqoblash uchun boshqalarga tushunarsiz so'zlarga hadeb murojaat qilaverish nutq madaniyatiga putur etkazadi.

Har bir sohaning o'ziga xos tushunchalari bor. Bu tushunchalarning jami shu sohaning tushunchalar sistemasini tashkil etadi. Shu sohaga oid tushunchalarni ifodalovchi maxsus terminlar ham mavjud. Ana shu terminlarning jami shu sohaning terminalogik tizimini tashkil etadi. Ya'ni shu soha terminalogiyasi bo'ladi. Jumladan matematika, fizika, biologiya, ximiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, meditsina va hokazo. Ularning o'zlariga xos terminlar mavjud: qo'shuv, oluv, kvadrat, ildiz, tangens, kotangens, sinus, kosinus; zaryad, kuchlanish, bosim, havo oqimi, molekula, mikroorganizm; morfologiya, sifat, ega, kesim, o'zak, negiz, qo'shimcha, aruz, g'azal, turoq kabilari. Keltirilgan so'zlar ana shu tushunchalarni ifodalovchi terminlardir. Ko'rindaniki, terminalogiya «tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika» bo'lsa, «keng ma'noda umumiylug'at tarkibining ayrim sohalarda ishlatiladigan qismidir» (S.F.Akobirov).²

Har bir sohaning terminologik sistemasida bitta termin faqat bitta tushunchani ifodalaydi. Terminlarning bir ma'noli bo'lishi haqidagi asosiy talab ana shu nuqtai nazardan belgilanadi. Shu talabdan kelib chiqilganda bosh, qo'l, oyoq, qosh, quloq so'zlari anatomiyada maxsus terminlar sifatida qo'llanib, faqat kishi organizmining qismlarinigina ifodalasa, adabiy tilda esa oddiy so'z sifatida baholanadi va ko'p ma'noli hisoblanadi.

Shuningdek, bir vaqtlar o'zbek tili nuqtai nazaridan termin sifatida baholangan elektr, kosmos, radio, televidenie, raketa, mashina, avtobus, trolleybus, mashinist kabi

¹ R.Qo'ng'urov va b. O'sha asar, 150-151 – betlar.

² Qarang: R.Qo'ng'urov va b. O'sha asar, 151-bet.

til birliklari terminlar o'z sohalari doirasidan chiqib, keng omma o'rtasida qo'llanadigan, adabiy tilga xos, hamma tushunadigan so'zlarga aylanib ketgan.

Birikmalarni qo'llashda har qanday murakkab fikrni ixcham, oson, lo'nda va aniq, shuningdek, tushunarli ifodalash, shu yo'l bilan fikr almashuvini osonlashtirish maqsad qilib qo'yildi. Terminologiya til leksikasining tarkibiy qismi hisoblangani uchun kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, terminlarga xos bo'lgan ma'no jihatdan aniqlik, tushunchaning mohiyatini yoki eng asosiy belgisini aniq ifodalab berish, ulardagi tuzilish jihatidan ixchamlik, qisqalik, ishlatishga qulaylik kabilar nutqning tushunarli aniq, mantiqli, qisqa bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday ekan, terminlarni nutqda qo'llashga alohida e'tibor berish, bu borada yo'l quyilayotgan xato va kamchiliklarni to'g'ri belgilash, sabablarini aniq ko'rsatish ham fan taraqqiyotiga, ularning o'qitilishiga hamda nutq madaniyati sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Terminlarni qo'llashdagi kamchilik va xatolarni belgilash normativlik maqsadga muvofiqlik - nutq madaniyati printsiplari talabidan kelib chiqadi.

Terminlarni qo'llashda ma'lum kamchiliklar sodir bo'layotgan ekan, buning sabablari ham mavjuddir: 1. Nutq muallifi terminning tub ma'nosini to'g'ri anglab etmaydi. Natijada, uni mantiqan mos kelmaydigan so'zlar bilan biriktiradi va jumla tuzadi. Uningcha, termin to'g'ri ishlatilganday tuyuladi. Masalan: Uning sochlaridan kelayotgan juda ingichka bir hindiy mushk isi boshimni aylantiradi. gapida ingichka so'zi o'rinsiz ishlatilgan. 2. Muallif o'z nutqiga jiddiy e'tibor bermaydi, uni kuzatmaydi, unga baho bermaydi. Natijada terminlar pala - partish ishlatilib yuboriladi. Ba'zan esa ongli ravishda mavjud terminlarni yaxshi bilgani holda an'anaviy qo'llanilib kelinayotgan, hamma uchun tushunarli bo'lgan terminlardan voz kechib, o'zini shu fanning bilimdoni qilib ko'rsatish maqsadida hech kim uchun tushunarli bo'limgan, qo'llanilishi o'zini oqlash - oqlamasligi hali noma'lum bo'lgan terminlarni qo'llash hollari ham uchraydi. Bu bilan nutq muallifi o'zini go'yo «yangi narsa» aytgan hisoblaydi. 3. Tilni chuqur bilmasak, uning sintaktik va semantik imkoniyatlarini egallamaslik natijasida nutqda terminlar noto'g'ri ishlatilib yuboriladi. 4. So'z yasalishi, jumladan, terminlarning yasalish qonun-qoidalalarini yaxshi bilmaslik natijasida noto'g'ri terminlar - so'zlar hosil qilinadi va ularning nutqda ishlatilib yuborilishi ham so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqani qiyinlashtiradi: «Shu yashayotgan joyimda nojoyligimdan emas nimadanligini o'zim ham bilmayman, tushuntirilishi, ammo...» (A.A'zam).

Keltirilgan misoldagi nojoy so'zining yasalishi g'alizdir. Chunki o'zbek tilida tarkibida o'unli bo'lgan undosh – unli -undosh tarkibidagi bir bo'g'inli so'zlarga no prefaksi qo'shilib, yangi so'z hosil qilish me'yor emas: nonon, nojon yasalishlari uchramagani holda nonsiz, jonsiz yoki benon, bejon yasalishlari norma hisoblanadi. Bundan tashqari, ba'zan, har xil sabablarga ko'ra, termin yasashda, terminologiya talablariga zid ish tutiladi. Ma'lumki, terminlar ixcham, aytilishi va yozilishi qulay bo'lishi kerak. Bunga zid ravishda, masalan, fizik xossalalar tipida termin yasashlar uchraydi. 5. Ba'zan mavjud termin bor bo'lgani holda, uni bilmaslik oqibatida, boshqa su'niy terminlar hosil qilish yoki mavjud terminni o'z mustaqil qarashlariga

mos ravishda o'zgartirish, ayrim hollarda esa, tushunchani, hodisani o'z nuqtai nazaridan baholagan holda uni mavjud termin bilan ifodalash hollari uchraydi.¹

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng terminlarni o'zbekcha-lashtirish yo'lida bir qator yutuqlar bilan birga ma'lum kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Bir tushunchani ifodalash uchun turli so'zlar ishlatildi: rayon - nohiya – tuman; institut - oliv ilmgoh - oliv ta'limgoh - dorilmuallimin; jurnal – majalla – jarida – oynoma – oybitik; gazeta - ro'znama - haftanoma, qo'nalg'a - uchargoh - uchardargoh - tayyoragoh (aeroport) kabi. Atamalarni tartibga solish bo'yicha «Atamashunoslik qo'mitasi» tomonidan ko'pgina xayrli ishlar amalga oshirildi. Masalan: tilimizda muqobili yoki uni yasash imkonini bo'limgan hollarda baynalmilat atamalarning o'zi ishlatilaverishi to'g'risida shunday deyiladi: «...keyingi taraqqiyot davomida ko'plab mashinalar, texnika vositalari, ilm-fan tushunchalari o'z nomi bilan hayotimizga kirib kelgan. Predmet yoki tushunchalarni ifodalaydigan bunday atamalar o'z so'zimiz bo'lib qolgan va lug'at boyligidan o'rinni olgan: traktor, avtomobil, tramvay, aeroport, atom, yadro, neytron, fizika, texnika kabilalar»².

Takrorlash uchun savollar

1. So'z va atamaning farqi?
2. Istiqloldan so'ng o'zbek terminologiyasida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

Tayanch tushunchalar

Termin - bir ma'nodagi so'z.

Atama - atoqli ot; termin.

¹ R.Qo'ng'urov va b. O'sha asar, 155-bet.

² Qarang: O'zbek tili atamashunosligi. Fan, -T. 1992 y. 21 - betlar.

IQTISODCHI - PEDAGOG NUTQI VA ATAMASHUNOSLIK

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar boshlab yuborildi. Amalga oshirilaltgan iqtisodiy islohotlar natijasida xususiy mulk hamda tadbirkorlar manfaatini himoya qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Islohotlar taqdiri esa yuqori malakali mutaxassislarga bog'liqdir.

Etuk mutaxassislar tayrlash tizimini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayrlash Milliy dasturi» muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, bakalavr-iqtisodchi mutaxassisligi uchun talaba 4 yil ta'lif oladi. U 4 yil davomida 45-50 ta fandan reyting natijasi bo'yicha yakuniy nazorat topshirishi, 4-5 ta kurs ishi, diplom ishi lzishi lozim.

Yuqori malakali bakalavr-iqtisodchilarni tayrlash esa ta'lif tizimiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida kadrlar tayrlash muammosining hal qiluvchi masalasi barcha bosqich o'quv yurtlarida o'quv adabili bilan ta'minlash ekanligini ta'kidlab o'tdilar: «ta'lif darslikdan boshlananadi... deyarli barcha sohada darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas». Shu sababli davr ruhiga mos tushuvchi bozor iqtisodilti g'oyalarini aks ettiruvchi yangi o'quv qo'llanmalarni, darsliklar hamda ommabop risololarni yaratish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Iqtisodiy terminologiya sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 1997 yildan boshlab «Mehnat» nashrilti iqtisod fanlari fanlari doktori, professor Lrqn Abdullaev rahbarligida tayrlanaltgan «Iqtisod, islohot va moliya-kredit tizimi» turkumini chop etmoqda. Turkumni tayrlashda moliya, kredit, pul, bank, soliq, sug'urta, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, audit, statistika, makro va mikroiqtisodilt, buxgalteriya hisobi sohasida ko'p yillik nazariy tajribaga ega bo'lган etakchi olimlar, mutaxassislar ishtirok etishmoqda. 30 ta kitobdan iborat bo'lган mazkur turkum savol-javob asosida tuzilgan, bo'lib, ularda iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish tamoyillari, bu borada qabul qilingan farmon va qarorlar, banklar bilan bo'ladigan munosabatlar, soliqlar va ularning ijrosi xususida so'z yuritiladi.

Shuningdek, har bir kitobdan o'rinni o'lgan test savollariga javob berish bilan egallangan iqtisodiy bilimlar darajasini sinab ko'rish mumkin.

Iqtisodiltga oid bu qo'llanmalarga I.Karimovning «Istiqlol yo'li: muammo va rejalar», «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqilt yo'li», «O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «Iqtisodiy islohot: mas'uliyatli bosqich», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» va boshqa asarlari asos qilib olingan.

Akademik M.Sharifxo'jaev va professor A.O'lmasovning «Iqtisodilt nazariyasi», M.Sharifxo'jaev va L.Abdullaevning «Menejment» darsliklari, L.Abdullaevning «Statistika nazariyasi», A.Vahobov, A.Ibrohimovlarning «Moliaviy tahlil» dasrliklari, professorlar A.O'lmasov va N.To'xlievlarning «Bozor iqtissodilti» kitoblari hamda «Ishbilarmonlar lug'ati» va boshqa adabiltlarda iqtisodiltga tegishi ko'plab muammolar aks etgan. Bu adabiltlar faqatgina iqtisodiy bilimlar manbai

bo'lib qolmasdan, iqtisodchi bakalavrlarni ma'naviy, madaniy, ijtimoiy, insoniy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi iqtisodiy islohotlar iqtisodilt tilida jiddiy o'zgarishlar bo'lishiga asos bo'layapti. Vujudga kelaltgan iqtisodiy tushunchalar yangi iqtisodiy so'z va terminlarni talab qilayapti. Demak, iqtisodilt tilining lug'at tarkibi to'xtovsiz ravishda boyib borayapti. Iqtisodilt tili haqida so'z yuritar ekanmiz tushuncha, so'z, termin, birikma va gap haqida qisqacha ma'lumot berishni lozim deb topamiz.

Tushuncha moddiy borliq, predmet lki uning xossasi, hodisa lki voqeanning kishi miyasidagi in'ikosi, umumlashgan aksidir. Tushunchaning umumlashtirish xususiyati nihoyatda muhim belgidir, chunki inson tajribalarining umumlashtirilgan natijasigina tushunchada aks etadi. Tushunchaning umumlashtirish xususiyatlari so'zda ham o'z ifodasini topadi, chunki tushuncha so'z ma'nosining yadrosini tashkil qiladi. So'z tilining asosiy birligidir, chunki u birinchidan, konkret predmetlarni lki abstrakt tushunchalarni (voqe-hodisalar, harakat, belgi, holat) ataydi, ikkinchidan grammatik qoida-qonuniyatlarga tayangan holda gap tuzish va fikr ifodalash imkonini beradi, uchinchidan, kishi emotsiyasini, ruhiy holatini ifodalaydi.

Tushuncha va so'z munosabatini «bozor» leksemasi misolida ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, tovar ayiraboshlash bozorning dastlabki shakli bo'lган. Bozor bu alohida savdo-sotiқ qilinadigan joy. Bozor-bu oluvchi bilan sotuvchi uchrashadigan joy.

Ba'zilar terminni so'zga qarama-qarshi qo'yishadi, holbuki terminni ham leksikologiya va grammatika kategoriyalari orqali o'rganish terminning imkoniyatlari kengligini tasdiqlaydi. Termin so'z singari ba'zi xususiyatlarga ega:

- 1) Polisemantik, xususan sinekdoxa va metanimiya terminlarda ham bo'ladi: *kreditning elastikligi, o'rnbosar tovarlar, o'rmalovchi inflyatsiya*.
- 2) Iqtisodiy terminlarning ba'zilarida omonimiya mavjud: *chek, muomala*.
- 3) Iqtisodilt terminologiyasida sinonimiya mavjud: *sarmoya-mabla*; *mezon-o'lchov, ustama-φO'shimcha, φarzdor-debitor, φarz-kredit*.
- 4) So'z yasovchi affikslar, terminlar yasashda ishtirok etadi: *xazinachi, /isobchi, undirma, tadbirkor, mulkdor, φarzdor, shartnoma, ta'minot, bojxona, mulkchilik, sudxo'r, merosxo'r*.

So'z birikmasi ikki lki undan ortiq so'zning birikishidan hosil bo'ladi. So'z birikmasi ma'no xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) erkin birikma, 2) turg'un birikma.

Erkin birikmada iqtisodiy so'zlar ma'no va grammatik jihatdan birikadi: *qo'oz pullar, pul tizimi, kredit kartochkasi*.

Turg'un birikmada esa so'z lki terminga ko'chma ma'noda qo'llaniladi: *o'rmalovchi inflyatsiya, suzib yuruvchi inflyatsiya, yuguruvchi inflyatsiya*.

Iqtisodilt leksikasi xalq tilining boyishiga, rivojlani-shiga katta ta'sir etadi. O'zbek iqtisodilt leksikasini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Umumiste'mol iqtisodiy so'zlar.
2. Iqtisodiy terminlar.

Umumiste'mol iqtisodiy so'zlarga bozor, pul, qarz, boylik, savdo, soliq, pul va shu kabi hammaga tushunarli bo'lган so'zlar kiradi.

Iqtisodiy terminlar esa umumiste'moldagi so'zlardan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Iqtisodiy termin o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki xususiyatiga va

vazifasiga ko'ra kashf etiladi. Iqtisodiy terminning ma'nosi bitta bo'ladi. So'z esa bir necha ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. O'zbek tilining iqtisodiy terminlari iqtisodiltning turli sohalariga bog'liqdir.

Ularni ixtisosliklardan kelib chiqqan holda quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Bank ishi: *milliy valyuta, so'm, çıymat, narx, talon, kupon, jam'arma, xazina, ço'oz pul, banknot, veksel, chek, kredit kartochkalari, pul oboroti, pul massasi, pul agregati, bank, pul tizimi, metallik nazariyasi, miçdoriylik nazariyasi, pul muomalasi, inflyatsiya, kredit, tijorat krediti, bank krediti, davlat krediti, xalçaro kredit, kreditning chegaralari, lizing, /isobli kredit, lamsbardli kredit, lizing operatsiyalari, lizing shartnomasi, kredit mexanizmi, kredit yi'indisi, foiz stavkasi, kredit xavf-xatari, aktiv, passiv, foiz marjası, eksportli kredit, muammoli ssuda.*

2. Soliq va soliqqa tortish: *soliç ob'ekti, soliç sub'ekti, soliç manbalari, soliç normasi, soliç birligi, soliç stavkasi, soliç dekloratsiyasi, soliç siyosati, soliç mexanizmi, soliç tizimi, tO''ri soliç, egri soliç, bojxona boji, davlat boji, ijara xaççı, tO'lov, yi'im, daromad soli'i, foyda soli'i, avans tO'lovlari, foyda, yalpi foyda, korxonalar daromadi, soliç tO'lovchi, çO'shilgan çıymat soli'i, aktsiz, aktsiz soli'i, er soli'i, mol-mulk soli'i, a'oli soli'i, soliç idorasi, soliç çO'mitasi, soliç çonunchiligi.*

3. Moliya: *moliya funktsiyasi, moliya silsati, moliya nazariyasi, moliyaviy nazorat, moliyaviy resurs, moliyaviy munosabat, iqtisodiy munosabat, mulkiy munosabat, davlat byudjeti, amortizatsiya ajratmalari, amortizatsiya fondi, ish /açi fondi, ra'batlantirish fondi, taçsimlash, tartibga solish, pensiya fondi, bandlik fondi, moliya rejasi, daromad va xarajat balansi, biznes reja, rejalahtirish, xO'jalik sub'ekti, xayriya fondi, yalpi ichki ma/sulot va boshqalar.*

Umuman iqtisodiy so'z va terminlar uzoq davrlar mobaynida yaratilgan leksemalardir. Ma'lumki har qanday jamiyatda iqtisodilt muhim rol o'ynaydi. Shu sababli iqtisodiltga tegishli so'z va terminlar aniq, lo'nda va mantiqan asoslangan bo'lmos'hil lozim.

O'zbek iqtisodiy terminologiyasida milliylik va baynalmilallik masalasi murakkab masaladir, chunki u nafaqat o'zbek tilida balki boshqa tillarda ham etarlicha hal qilinmagan.

Ma'lumki, terminni tilga qabul qilish murakkab jaraln hisoblanadi. Chunki o'zbek tilining tovush tizimi va grammatic qurilishi termin qo'llanilaltgan tilnikidan keskin farq qiladi. Shu bilan birga kirib kelaltgan so'z lki termin aynan o'z ma'nosida boshqa tilda qo'llanilmasligi mumkin. Ba'zan esa terminning kirib kelish jaralnida ma'no o'zgarishlar ro'y beradi. Ma'lumki, terminlar bir tildan ikkinchi tilga o'taltganida bir qator xususiyatga ko'ra farq qiladi.

Xususan fonetik lki tovush jihatidan qabul qilinaltgan iqtisodiy so'z lki termin o'zbek tilining tovushlariga mos bo'lishi lozim. Mos kelmaydigan tovushlar esa tushib qoladi lki almashinadi. O'zbek tiliga kirib kelgan va kelaltgan iqtisodiy so'zlarning asosiy qismini rus va evropa tillarning leksikasi tashkil etadi.

Mustaqillikdan so'ng rus tilidan iqtisodiy so'zlarni o'zlashtirishda qonuniy va ongli yo'l tanlandi. Mustaqillikka qadar ko'pgina iqtisodiy so'zlarning rus tilidagi va o'zbek tilidagi variantlari parallel qo'llanilgan edi:

Soliq - nalog

Iqtisodiyot - ekonomika

Foiz - protsent

Mustaqillikdan so'ng o'zbek iqtisodiy terminologiyasida o'ziga xos yo'l tutildi.

Bu quyidagilardan iborat:

1. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlar o'zbek tilida aynan tarjimasiz qo'llanilmoqda: *valyuta, dollar, kredit, banknot, akkreditiv, lizing, forfeiting, libor* va boshqalar.

2. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlarning ba'zilari tarjima qilindi lki uning o'zbek tilidagi muqobillari qo'llanila boshlandi: *anketa-so'rovnoma, defitsit-taçchil, biznesmen-bizneschi, litsenziya-ru'satnoma, kapital-mabla'*; *reforma - islo'ot*.

Umuman baynalmilal iqtisodiy so'zlarni o'zbek tiliga qabul qilishda ko'p jihatlarni e'tiborga olmoq lozim. Iqtisodiy termin o'zbek tiliga kirib kelaltganda uning quyidagi jihatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi: terminning o'zbek tilini tovush tizimiga mosligiga; uning o'zbekcha muqobili bor-yo'qligiga; kalka lki tarjima qilish zaruriyatiga; iqtisodiy terminning mazmuniga; uning sodda va ravonligiga; mohiyatiga va o'ng'ayligiga.

Boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelaltgan iqtisodiy terminlar dastlab mutaxassislar muhokamasidan o'tmog'i, so'ngra Oliy Majlisning tegishli qo'mitasidan tasdiqlanmog'i lozim. Ana shundagina bunday iqtisodiy terminlar qonuniy kuchga kiradi va ularni bemalol qo'llash mumkin.

Mamlakatimizda bozor iqtisodi, tiga o'tish jara, nida tilimizga ko'pdan-ko'p terminlar (atamalar) kirib kelmoqda. Bularning muayyan qismi ona tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirib berilmoqda, ma'lum qismi esa baynalmilal o'zlashma sifatida ishlatilmoqda.

Iqtisodiy terminlarining o'zbek tilida qo'llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin: ko'plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o'zbek tilidagi tay'r muqobillari bilan berilmoqda, ma'lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o'zbek tili qonun-qoidalari asosida yasalmoqda. Masalan: *auktzion-kimoshdi, makler-dallol, kommersant-tijoratchi, komissionnie voznagrajdeniya-vositachilik /açı, ekonomika-iqtisodi, chek na pred'yavitelya-oç chek, shaxssiz chek, aktsioner-aktsiyador, biznesmen-bizneschi* va hokazolar.

2. Yana bir usul dun,ning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelina, tgan baynalmilal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlamoq zarurki, yangidan kirib kela, tgan terminlarning hammasiga ham o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dun,ning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu qo'llanish dun, bizneschilar axborot almashinuvni uchun qulay. Masalan: *auditor, avizo, valyuta, lizing, menedjer*.

3. Terminlarning ma'lum qismi turli muqobillarda har xil qo'llanildi. Chunonchi, rus tilidagi «aktsionerne obshchestvo» termini o'zbek tilida *aktsionerlik jamiyati, /issadorlik jamiyati, aktsioner jamiyat* kabi variantlarda, «barter» termini *mol ayraboshlash, tovar ayriboshlash, muvozanat, barter* variantlarida, «broker» termini *broker, dallol, kelishtiruvchi, bitishtiruvchi, vositachi* variantlarida,

«demping» termini esa demping, arzonga sotish, narxni tanlash, molni chetga juda past narxda sotish kabi variantlari ishlataliyapti. Albatta, bunday har xilliklar soha mutaxassislarini chalkashtiradi, axborot almashinuvini qiyinlashtiradi. Shuning uchun terminologiyadagi asosiy printsip-«bir tushunchaga bitta termin» ishlatalishiga erishish eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Takrorlash uchun savollar

1. Bakalavriatning mohiyatini tushuntiring.
2. Iqtisodilt terminologiyasi qanday adabiltlarda aks etgan.
3. So'z va terminning o'xhash jihatlari.

Tayanch tushunchalar

Moliya - davlat byudjeti

Soliq - davlat byudjetini shakllantiruvchi talab

Bank - pul muomalasini amalga oshiruvchi muassasa.

NOTIQLIK MAHORATI

Notiqlik mahorati juda ham qadimiy tarixga ega. Bu san'at g'arbda va sharqda qadimdan rivojlangan. Sharq notiqlaridan Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz, Navoiy va Boburlarning nutqlari va asarlari buning yorqin dalilidir. Har bir davrda notiqlik san'atiga o'ziga xos e'tibor qaratilgan, notiqlik san'ati o'sha davrning g'oya va mafkurasiga bo'yundirilgan. Shunga qaramasdan, notiqlik mahoratini ifodalovchi bir qator omillar mavjud.

Ma'lumki, har bir kishi o'z nutqining mazmunli, chiroyli va ta'sirchan bo'lishini orzu qiladi. Ammo bu orzuni amalga oshirish ancha mushkul va qiyin, chunki har bir inson o'ziga xos bilimlarga, xislatga va imkoniyatga ega. Qolaversa, nutq jarayonidagi holat ham notiqqa o'z ta'sirini ko'rsatadi: tinglovchilarining kam yoki ko'pligi, auditorianing katta yoki kichikligi, qatnashuvchilarining tarkibi va saviyasi, notiqning tajribasi va mahorati. Qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har qanday kishi ham, notiqlik mahoratining egallashi mumkin. Buning uchun eng avvalo, notiqlik mahoratini egallah uchun kuchli qiziqish va o'z ustida uzluksiz, tinimsiz ishlash kerak. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, mashhur va taniqli notiqlar bu maqsad yo'lida tinimsiz mehnat va mashq qilganlar.

Nutqning mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmati bilan belgilanadi. «Madaniy nutq», «nutq madaniyati», «notiqlik» degan so'zlar mavjud. Nutqning xarakteri ularning mohiyatini bilish bilan izohlanadi. Ularning lingvistik birlik sifatida o'z xususiyatlari bor. Ularni o'zaro fikr almashishdagi nutqiy jaralnning bosqichli shakllari deyish mumkin. Bular to'g'ri nutq - nutq madaniyati - notiqlikdir. To'g'ri nutq hozirgi o'zbek adabiy til normalariga rioya qilib tuzilgan nutqdir. Yuqori nutq madaniyati esa, S.I.Ojegov fikricha «bu fikrlarni til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir». Notiqlik esa og'zaki nutq madaniyatining yuqori darajasi, etuk nutqiy san'atdir. Nutq madaniyati aslida, adabiy til mezonlari asosidagi nutqiy faoliyat, nutqiy malaka, nutqiy ko'nikma birligidan iborat. «Adabiy tilsiz nutq madaniyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Adabiy til nutq madaniyatining to'g'ri so'zlash va lzishning o'lchovi, mezonidir»¹.

¹ (R.Qo'ng'uров, E.Begmatov, L.Tojiev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari; T.: O'qituvchi, 1992, 27 bet).

OG'ZAKI VA LZMA NUTQ IMKONIYATLARI

Og'zaki nutqning ham, lzma nutqning ham o'z talabalari, imkoniyat doirasi bor.

Og'zaki nutq lzma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jaraln. Og'zaki nutq qo'llanish usuliga ko'ra ikki xil bo'ladi: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi.

Og'zaki nutqda shevachilik ta'siri sezilib turadi. Og'zaki nutq tezkor, avtomatik jaraln bo'lgani sababli o'ylab turish, so'ng so'zda davom etish qiyin. (12 bet).

So'zlov va o'ylov bir vaqtning o'zida amalga oshadi.

Og'zaki nutq shaxsiy, individual faoliyatdir. Shunnig uchun ham fikriy baln va nutqiy uslub, ovoz ifodalari bir-biriga o'xshayvermaydi. Og'zaki nutq so'zlovchining kayfiyati, ruhiyati, tabiatiga hamda vaziyatiga, nutqiy a'zolarning sog'lom va normal ishslashiga ham bog'liq.

Og'zaki nutq o'ziga xos grammatik tuzilishiga va qurilish tartibiga ega bo'ladi. Unda gap bo'laklarining tushib qolishi, qisqarishi, almashinishi, takrorlar, keraksiz unsurlarning bo'lishi kuzatiladi. Og'zaki nutqdagi ma'no ottenkalari, munosabatdagi tasdiq lki inkor alomatları, ohang, talaffuz, imo-ishora vositalari orqali amalga oshirildi.

Lzma nutqda imloviy va punktuatsion normalari muhim rol o'ynaydi. Lzma nutq, avvalo, u manba. Xohlagan paytda uni qayta o'qish, tuzatish boshqa so'z va so'z birikmalar bilan almashtirish mumkin. Lzma nutq namunasidagi maqsadni to'la anglash uchun imlo hamda tinish belgilarining xususiyatlarini o'quvchi ham yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Lzma va og'zaki nutqning jilosi tafakkur mashqlaridir. Shu haqda so'z yuritib, adabiltshunos olim Nusratullo Atoullo o'g'li Jumaxo'ja lzadi: «lzma nutq bilan shug'ullanmagan notiq nutqining rivoji sust, sayqal topishi qiyin kechadi. Uning so'z boyligi, ifoda imkoniyatlari cheklangan bo'ladi». (Istiqlol va ona tilimiz, Sharq, 1998, 72 bet). 13 bet.

Og'zaki va lzma nutqning o'zaro bog'liqligi ularning shakllanish jaralnidagina emas, balki taraqqiy etishida, sayqal topishida muhim ham muqimdir. Davraga chiquvchi notiq demoqchi bo'lgan maqsadini to'la bo'lmasa-da, homaki tarhini qog'ozga tushirib rejalashtiradi. Nimadan nimaga o'tish, qancha to'xtalish, nimalarni aytish lki aytmaslik haqidagi chizgilar notiq so'zlaltgan paytda ham uning ko'z oldida xuddi qog'ozdagidek xalliy suvrati namoln bo'lib turadi.

Aks holda nutq me'lri buzilib, vaqt cho'zilib ketishi, auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin. Qo'pol aytganda, notiq o'zining fikr tizginini jilovlay olmasdan talmovsirab qilishi mumkin.

«Notiqning fikru o'ylari, qalb kechinmalari lzma nutq jaralnida rosa ishlanadi, pishib mumtoz darajaga etadi. So'ng og'zaki nutqda jamol ko'rsatadi. Og'zaki nutq ham ijod jaralni. Unda inson favqulodda nolb fikr, g'oyalarni, badiiy ifodalarni kashf etadi. Ularni so'zlab yurib, pishitib sayqal toptiradi va qilmini quyma qilib lzma nutqida terib lzadi» (Istiqlol va ona tilimiz, 73 bet).

NUTQNING FONETIK VOSITALARI

Nutq ta'sirchan va qiziqarli chiqishi uchun ifodali o'qishni o'zlashtirish lozim. Ifodali o'qishda quyidagi fonetik vositalar alohida ahamiyatga ega (ovoz, artikulyatsiya, diktsiya, nafas).

Ovoz kishining bo'g'zida ko'ndalang joylashgan elastik un paychalarini o'pkadan chiqaltgan havo kuchi tebranish natijasida hosil bo'ladi: unli tovushlar, sonorlar va jarangli undoshlar yuzaga keladi. Jarangsiz undoshlar esa havo oqimining til, tanglay, tish, lab to'siqligiga uchrashi natijasida sodir bo'ladi. Og'iz bo'shlig'i, halqum, burun va lndosh bo'shliqlar ovozni kuchaytiradi va o'ziga xos ohang beradi.

O'pkadan chiqaltgan havo kuchi un paychalarining tebranish holatiga ko'ra ovoz baland lki past, kuchli lki kuchsiz bo'ladi.

Tiniq, ravon va jarangdor ovozning paydo bo'lishi nutq organlariga bog'liq. Nutq organlarining yallig'lanishi va burun halqum kasalliklari natijasida ovoz o'zgaradi va buziladi. Shuningdek qattiq baqirish, tishning yo'qligi ham ovozga o'z ta'siri ko'rsatadi.

Artikulyatsiya - muayyan tovushni hosil qilishda nutq organlarining harakat holati va ishtirotidir. Nutq organlarining holati va harakatini yaxshilash uchun uzuksiz mashqlar bajarish kerak.

Diktsiya - nutq mahoratining asosini tashkil etuvchi fonetik vosita bo'lib, so'zlarni hamda tovushlarni aniq va ravshan talaffuz qilish me'lridir. Diktsiya notiq va o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega: nutq tovushlarini to'g'ri va aniq talaffuz qilish nutqdagi nuqsonlarni bartaraf qilishga asos bo'ladi. Demak, diktsiya talaffuz etish xususiyatlarini o'zlashtirishga bog'liq.

Nafas - o'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo. Diafgrama va qovurg'alararo muskullarning qisqarishi natijasida ko'krak qafasining hajmi kattalashib o'pka kengayadi. Atmosfera bosimi o'pka ichidagi bosimdan havo farq qilgani uchun o'pkaga (nafas) kiradi. Ko'krak qafasi kichrayishi va ba'zi muskullarning qisqarishi natijasida nafas chiqariladi. O'pkaga kiradigan havo miqdori nafas hajmini belgilaydi. Nutqni tinglovchiga etkazishda nafas olish va uni chiqarishning ahamiyati katta.

Nutqning fonetik vositalari nutqning ifodali, ta'sirli, aniq, jarangdor, kuchli, ravon va tiniq bo'lishini ta'minlaydi. Nutqdagi nuqsonlar va kamchiliklar nutqning fonetik vositalariga etarlicha e'tibor bermaslikdan kelib chiqadi.

DADILLIK VA ISHONCHNING NUTQDAGI AHAMIYATI

Har bir kishi ortiqcha hayajonlanmasdan, ishonchli va dadil nutq so'zlashini istaydi. Bu xususiyatga ega bo'lish esa oson emas. Shunga qaramasdan jiddiy harakat qilgan inson o'z maqsadiga erishishi mumkin. Ba'zi notiqlar katta auditoriyada va ko'pchilik oldida mahorat bilan nutq so'zlaydilar. Holbuki, yakka suhbatda ularning nutqi unchalik jozibali bo'lmaydi, chunki, ko'pchilikning bo'lishi ularni jonli va chiroyli nutq so'zlashiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, har bir kishi nutq so'zlashi oldidan bir oz hayajonlanadi, chunki taniqli notiqlar ham hayajonlanishgan. Ammo ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng bu hayajon yo'qoladi.

Notiq o'z maqsadiga erishish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratishi lozim. Birinchi omil shundan iboratki, notiq o'z nutqini qat'iyatli va ta'sirchan boshlashi kerak. Ikkinci omil notiq nima to'g'risida gapirishini yaxshi bilishi zarur, ya'ni oldindan puxta o'ylangan, rejalashtirilgan mavzusi bo'lishi kerak. Uchinchi omil notiq o'ziga ishonishi va dadil bo'lishi kerak, ya'ni tetiklik va jur'atlilik alohida ahmiyatga ega. Tinglovchilarning ko'ziga tik qarab ishonch bilan gapirish lozim, asabiylashmaslik va ortiqcha hayajonlanmaslik kerak. To'rtinchi omil - uzluksiz mashq qilishdir. Qo'rquv va ishonchsizlik tajribaning, malakaning kamligidan kelib chiqadi. Uzluksiz mashq qilish va qaytarish natijasida tajriba va mahorat paydo bo'ladi.

NUTQQA TAYYORGARLIK KO'RISH

Yaxshilab tayyorlangan nutq nutqning 90% muvaffaqiyatini yuzaga keltiradi. Shu sababli notiq mavzu to'g'risida etarlicha g'oyaga, ma'lumotga ega bo'lsa o'z niyatiga etadi. Ba'zilar tayyorgarlikka kam vaqt ajratishadi va noqulay ahvolda qolishadi.

Nutqni shakllantirish, yuzaga keltirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Tayyorgarlik nimalardan iborat bo'ladi? Qog'ozga so'z va iboralarni yozib qo'yishmi? Haqiqiy tayyorgarlik notiqning o'zidan chiqqan fikrlar asosida namoyon bo'ladi. Eng avvalo, notiq nutq mavzusini chuqur va atroflicha o'ylab ko'rishi kerak. So'ngra mavzuni tanlashi, uni muhokama qilishi, o'z fikrlarini tartibga solishi va tanlashi, o'z maslagini ishlab chiqishi va taxt qilishi lozim. Nutqni bir o'tirishda tayyorlab bo'lmaydi.

So'ngra mavzuga oid materiallarni yig'ishga va to'plashga kirishiladi. Bu jarayon ma'lum reja asosida amalga oshiriladi. Mavzuga doir adabiyotlarni o'qib chiqish va ulardan kerakli ma'lumotlarni olish dastlabki bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda kutubxonalaridan, kitoblardan keng foydalanish zarur. Nutq uchun materiallarni iloji boricha ko'proq to'plash kerak. So'ngra ulardan eng yaxshilari va mos keladiganlari ajratib olinadi. Olingan ma'lumotlar notiq tomonidan qayta ishlanadi va uning o'z uslubiga, fikriga, maqsadiga moslashtiriladi. Shundagina har bir notiqning o'ziga xos nutqi vujudga keladi.

TANIQLI NOTIQLAR TAJRIBASI

Taniqlik suxandon va notiqlarning nutqini hamda ish uslubini o'rganish ham notiqlik mahoratini egallashda muhim manba hisoblanadi. Har bir notiq o'ziga xos uslubga, bilimga va xislatga ega bo'lgani uchun uning nutqi o'zgalarnikidan farq qiladi. Shu sababli taniqli notiqlarning nutqiga ko'r-ko'rona taqlid qilish va takrorlash yaxshi samara bermaydi. Shunga qaramasdan, ular foydalangan uslub va imkoniyatlardan ongli hamda ijodiy foydalanish mumkin. Har bir nutqning o'ziga xos mavzusi va muammolari mavjud. Ana shu muammo va mavzuni e'tiborga olgan holda nutqni tuzish lozim. Nutqni tuzish haqida aniq ko'rsatma va qoidalar mavjud bo'lmasa-da, taniqli notiqlar tomonidan qo'llanilgan quyidagi usullarni ko'rsatib o'tish mumkin:

I - usul

1. Faktlarni bayon qilish;
2. Faktlardan kelib chiqib, o'z fikrini mulohazalarini bildirish;
3. Harakat qilishga undash;

II - usul

1. Lmon narsa ekanligini namoyish qilmoq;
2. Mushkul axvolni to'g'rakash yo'lini ko'rsatmoq;
3. Hamkorlik qilish haqida iltimos qilmoq;

III - usul

1. Qiziqtirishga va e'tiborni tortishga erishmoq;
2. Ishonch qozonmoq;
3. Faktlarni bayon qilmoq;
4. Kishilarni harakat qilishga undovchi dalillarni keltirmoq.

Faktlarning aniqligi va tushunarli bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Notiq nutqini o'qib bermasligi lozim. Chunki, o'qilgan har qanday nutqning ta'siri va ahamiyati kam bo'ladi. Demak, ma'lum bir mavzuda nutq so'zlamoqchi bo'lgan kishi unga puxta tayyorgarlik ko'rishi, fakt va misollarni tartibga solishi, ularni ketma-ketlikda joylashtirishi, nutqni bir necha marta takrorlashi, iloji bo'lsa, magnit tasmasiga yozib olib eshitishi hamda nutq jarayonidagi xatti-harakatlarini tartibga solishi lozim. Nutq tartibga solingandan so'ng uni o'rganib chiqish hamda qayta-qayta mashq qilish zarur.

NOTIQLIK VA XOTIRA

Har bir notiq o’z fikrini izchil, mazmunli, aniq va mantiqiy bo’lishiga intiladi. Nutqning uzviyligi, tadrijiyligi va yaxlitligini ta’minlashda xotiraning o’rni beqiyosdir. Taniqli psixolog, professor Karl Sishor inson xotirasi to’g’risida shunday yozadi:

«O’rtacha kishi xotirasidagi tug’ma imkoniyatlarning 10 foizidan ko’p bo’lmaganidan foydalanadi. Bu imkoniyatlarning qolgan 90 foiz yo’qolib ketadi, chunki, inson ldda tutishning tabiiy qonuniyatlariga rioya qilmaydi».

Karl Sishor «Tabiiy qonunlar» deb ta’riflagan «Ldda tutish tizimi» 3 qismdan iborat:

1. Xotirada qolgan narsa, taassurot;
2. Qaytariq lki takrorlash;
3. O’xshash tasavvur hosil qilish (fikrni eslatadi bog’lanish).

Ldda tutishning birinchi sharti - taassurot o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi, ldda tutish uchun narsa lki xodisa haqida chuqur, aniq va mustahkam taassurotga ega bo’lish kerak.

Buning uchun esa diqqat e’tiborni bir erga to’plash zarur. Zero, 5 daqiqalik chuqur va atroflicha fikrni bir joyga jamlash, kun bo’yi noaniq (chuvalgan) fikrda yurishdan ko’proq natija beradi.

Taassurotni mustahkamlashda yana bir omil mavjud: - ziyraklik. Ziyraklik jiddiy hamda chuqur kuzatishni taqozo qiladi. Xotirani mustahkamlashda ko’rish va sezish organlarining ahamiyati beqilsdir. Ayniqsa, ko’z bilan ko’rish ko’proq natija beradi. Shu sababli bekorga aytilmagan: «Yuz marta eshitgandan bir marta ko’rgan yaxshi». Demak, xotirani mustahkamlashda ko’rish, eshitish va ta’m bilish (his qilish) muhim omil hisoblanadi.

Ldda tutishning ikkinchi tabiiy qonuni qaytariq lki takrorlashdir. Uzluksiz va tinimsiz takrorlashlar natijasida ba’zilar Qur’oni Karimni to’liq lddan bilishadi, xitoylik talabalar, lsh olimlar esa bir nechta diniy kitoblarni va mumtoz asarlarni lddan aytib berisha oladi. Bu o’rinda shuni ta’kidlash lozimki, takrorlash ko’r-ko’rona bo’imasligi lozim. Eng avvalo, takrorlash jaralni ma’lum bir tanaffuslar bilan olib borilishi lozim, shundagina inson miyasi qabul qila oladi. Ikkinchidan, takrorlash uzluksiz va doimiy davom etishi lozim.

Ldda tutishning uchinchi qonuniyati assotsiatsiya, ya’ni o’xshash tasavvur hosil qilish lki fikrni eslatadigan bog’lanishdir. Assotsiatsiyani xotirada ahamiyati beqilsdir. Fikriy bog’liqlikni shakllantirish o’z-o’zidan bo’lmaydi. Har bir yangi narsa bilan tanishaltganda quyidagi savollarga javob olinsagina fikriy bog’lanish vujudga keladi:

1. Nima uchun shunaqa?
2. Bu qanday sodir bo’ladi?
3. Qachon shunaqa bo’ladi?
4. Qaerda shunaqa bo’ladi?
5. Kim shunaqa deb aytdi?

Yuqoridagi savollarga javob olinsa, assotsiatsiya yuzaga keladi. Masalan, biron kishi bilan tanishganda uning familyiasi va ismiga alohida e’tibor berish lozim. Iloji

boricha ismnинг ма’носини билиш ва бунга е’тбор qaratish lozim. Uning tashqi va ichki xususiyatlari, ko’rinishi, kiyinishi hamda so’zlashish tarzi, xulqi ismiga qilsan tahlil qilinsa xotirada uzoq qoladi.

Sanalar va telefon raqamlarni xotirada tutishda o’xhash tasavvurlar alohida ahamiyatga ega. Buning uchun eng avvalo, muhim sanalardan lki tarixiy shaxslarning tug’ilgan yillaridan qilsan keng foydalanish mumkin.

Masalan, 21 raqami «Davlat tili to’g’risida»gi qonun qabul qilingan kunni, 1441 Alisher Navoiyning tug’ilgan kunini, 1991 yil mustaqillikka erishilgan yilni anglatadi.

Bu raqamlardan foydalanib telefon raqamini ldda saqlash mumkin. Aytaylik, 199-12-18 telefoni olib ko’raylik, bu telefonni ldda saqlash uchun - Mustaqillik qabul qilingan yil, Davlat tili to’g’risidagi qonun qabul qilingan kun va Xotin qizlar bayramini eslash kifoya.

Telefon raqamlari lki sanalarni xotirada saqlashda inson o’ziga tanish bo’lgan raqamlar va sonlardan foydalansagina yaxshi natijalarga erishadi. Aytaylik, siz 18-03-66 raqamiga duch keldingiz, uni xotirada saqlash uchun quyidagicha fikriy bog’liqlikni shakllantirishingiz lozim. 18 sizni lshingiz, 03 tez lrdamning raqami, 66 uy nomeri bo’lishi mumkin. Demak, xotirani mustahkamlashda bu usullardan foydalanish mumkin. Xotirada nutqni saqlashda ham assotsiatsiyadan keng foydalanish mumkin. Chunki nutqda, fikrlarda ketma-ketligini esda saqlash muhim omil hisoblanadi. Notiqning hayajonlanishi, auditoriya va sharoitning ta’siri natijasida nutqdagi ketma-ketlik xotiradan ko’tariladi.

Nutqdagi izchillikni ta’minalash maqsadida fikriy bog’lanishni ya’ni, o’xhash tasavvurni vujudga keltirish lozim. Aytaylik, «Talabalarning bo’sh vaqtidan foydalanishi» mavzusida ma’ruza qilmoqchisiz. Buning uchun ko’z oldingizga talaba hayoti bilan bog’liqlikdagi rasmlarni keltirasiz: talaba divanda ltibdi, talaba televizor ko’rayapti, talaba kompyuter o’ynayapti, talaba kitob o’qiyapti, talaba to’p tepayapti, talaba kafeda o’tiribdi.

Xotirani mustahkamlashda yuqoridagi usullardan uzluksiz va doimiy foydalansagina keng camara beradi. Demak, nutq jaralnida xotiraning o’rnini beqilsdir.

NUTQNING MUVAFFAQIYATLI ChIQISH SHARTLARI

Inson nimani o'rganar ekan yoki egallar ekan unga birdaniga erisha olmaydi. Ayniqsa, notiqlik mahorati yillar davomida hamda uzlusiz mashq evaziga o'zlashtiriladi. Bu jarayonda birdaniga muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Ba'zi bir narsalarni o'zlashtirish uchun ko'proq mehnat va vaqt talab etilsa, boshqalarda qisqa muddatda ko'proq va kattaroq yutuqlarga erishiladi. Nutq jarayonida tirishqoqlik va qat'iyat alohida ahamiyatga ega. Nutqning muvaffaqiyali bo'lishi uchun astoydil harakat qilish va o'z fikrida qattiq urish lozim. Har qanday inson ham nutqning boshlang'ich jaralnida hayajonlanishi mumkin, ammo dadil bo'lsa bir oz vaqt o'tgach bu hayajon bosiladi.

Notiqlik san'ati bilan shug'ullanaltgan har bir lsh qat'iylik va jasurlik bilan harakat qilsagina nutq mahoratini egallaydi.

Nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi notiqning tabiiy qobiliyatiga va maqsad yo'lidagi intilishiga ham bog'liq.

Har bir taniqli notiq ham uzlusiz mehnat, qat'iylik, jasurlik, hozirjavoblik, vazminlik xislatlarni egallagani uchun ham notiqlik mahoratiga ega bo'lган. Demak, notiqlik mahoratini egallah uchun har bir shaxs o'ziga ishonishi, vazminlik va hozirjavoblik bilan qat'iy matonat ko'rsatishi lozim. Shundagina u notiqlik mahoratini egallaydi.

YAXSHI NUTQ SIRI

Har bir nutqda ma'lum bir mavzu aks etadi. Bu mavzu so'zlar orqali ifodalanganligi sababli, nutq jaralnida nimani gapirish emas, balki mavzuni qanday gapirish alohida ahamiyatga ega. Taniqli notiqlar nutq jaralnidagi uchta muhim narsaga e'tiborni qaratishadi:

1. Kim gapirdi?
2. Qanday gapirdi?
3. Nimani gapirdi?

Mutaxassislarning fikricha, bulardan eng kam ahamiyatlisi uchinchisidir. So'zlash jaralnida notiqning holati uning auditoriya bilan bog'lanishi ham muhim ahamiyatga ega. Nutq lrqin va qiziqarli bo'lishi uchun quyidagi usullarga e'tibor qaratishdir:

1. Asosiy so'zga urg'u berish darkor va gapdagi boshqa so'zlarni unga bo'ysundirish, urg'u qo'yilgan so'zlarni aniqroq talaffuz qilish;

Sen *institutga* boardingmi?

Sen *institutga* *boardingmi*?

2. Ovoz ohangini o'zgartirish.

Nutq jaralnida ovoz ohangini uzlusiz o'zgartirib borish ham katta samara beradi, chunki ba'zi so'z va iboralarni yuqori ovozda, ba'zilarini pastroq ovozda talaffuz qilish tinglovchilarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onaga muruvvat, farzandga shafqat, ojizlarga ko'mak, beva-bechoralarga marhamat tuyg'usi bo'lмаган тили bilan dili, suvrati bilan siyrati nomutanosib shaxsni komil inson deb bo'larmikan.

3. Nutq tempini o'zgartirish. Bunda bir gapni lki so'z birikmasini tez lki sekin talaffuz qilish nazarda tutiladi. Masalan: chiroyli - chirooyli;

4. Muhim fikrlar oldidan va undan so'ng pauza qilish, ya'ni jim turish. Taniqli notiqlarning ko'pchiligi bu qoidaga jiddiy rioya qilishgan. Chunki, asosiy fikr tinglovchilar ongiga aniq va to'liq etib borishi uchun bu usuldan foydalanilgan.

MINBARDAN TURIB NUTQ SO'ZLASH VA SHAXS

Nutq jarayonida xususan, omma oldida chiqishlarda shaxsning roli beqiyosdir. Chunki har bir shaxsda o'ziga xos jihatlar aks etgan bo'ladi. Ma'naviyat, kuch-qudrat moyillik, jo'shqinlik, aql tuzilishi, tajriba, bilim va boshqalar. Shaxsi irsiyatga va tevarak atrofqa uzbek bog'langan holda bo'ladi hamda uni o'zgartirish ancha qiyin kechadi. Har bir notiq o'ziga xos xislatlarni namoln qilishi uchun nutq so'zlashdan oldin yaxshi dam olmog'i lozim. Buning uchun notiq mavzu bo'yicha ancha oldindan tayyorgarlik ko'rishi, so'ngra uni mustahkamlashi, nutq so'zlashidan oldin esa dam olgan bo'lishi shart. Nutq oldidan, ovqatlanish ham zarur. Aniqroq qilib aytganda, notiq och holatda va charchagan bo'lmasligi lozim. Taniqli notiqlar nutq oldidan yaxshi dam olishadi va ovqatlanishadi.

Nutq jarayonida kiyinish ham alohida ahamiyatga ega. Chunki toza va yaxshi kiyingan notiq o'ziga ishongan bo'ladi va tevarak atrofdagilarning hurmat bilan qarashlariga sazovor bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda notiqning tuflisi tozalanmagan, shimi dazmullanmagan, ko'krak cho'ntagidan avtoruchkasi ko'rinish turgan lki ln cho'ntagidan gazetasi ko'rinish turgan bo'lsa u tinglovchilar e'tiborini torta olmaydi.

Nutq so'zlash oldidan notiq yaxshi kayfiyatda bo'lishi, yuzi va ko'zida muloyimlik va xursandchilik aks etishi, chehrasi ochiq bo'lishi lozim. Shundagina u tinglovchilarga lqishi, ularni jalg qila olishi mumkin. Bu o'rinda xitoy xalqining ajoyib maqolini eslab o'tish lozimdir: «Chehrasida kulgu aks etmagan inson savdo bilan shug'ullanmasligi kerak».

Nutq jaralnida tinglovchilar bir joyda to'planib o'tirishlari lozim. Ayniqsa, zal juda katta bo'lsa, va odamlar tarqoq holda o'tirishsa nutqning samarasi kam bo'ladi. Shu sababli notiq ularni bir joyga yig'ishi va yaqinroq o'tirishini uyuştirishi kerak. Shuningdek, auditoriya lki zalning havosi toza bo'lishi lozim. Buning uchun nutq oldidan fortochka lki derazani ochish, auditoriyani toza havo bilan to'ldirish lozim. Sahnada lki minbarda ortiqcha narsalar bo'lmasligi lozim. Iloji bo'lsa, stol-stul va turli ortiqcha narsalarni sahnada bo'lmasligi ko'proq samara beradi. Ba'zan prezidium tashkil qilinadi va bir qancha odamlar u erni band etishadi. Bunday vaziyatda sahnalardagilarning har bir harakati tinglovchilar nazarida bo'ladi. Ular notiqqa ham, sahnadagilarga ham e'tiborni bir vaqtida qaratganligi uchun ham kichik bir narsa ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Notiqning o'tirishi, yurishi, xatti-harakati, nutq jaralnida muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir xatti-harakat tinglovchilarning ko'z o'ngida bo'ladi va o'z ta'sirini ko'rsatadi. Notiq tana harakatlarining mosligiga, to'g'rilingiga alohida e'tibor berishi lozim. Notiq o'z fikrini yurakdan chiqarib tinglovchilarga etkazsa, uning qo'li va olg'i bilan bog'liq beo'xshov harakatlari sezilmaydi.

Nutq jaralnida xatti-harakat va imo-ishoralar ham katta ahamiyatga ega. Ammo bu xatti-harakatlar har bir shaxsning o'ziga xos va o'ziga mos bo'lmos'i lozim. Ayniqsa, imo-ishoralar tabiiy va jonli bo'lishi hamda notiqqa yarashishi, mos kelishi kerak.

Notiq mavzu bo'yicha bilganlarini puxta o'ylaydi, mavzuga daxldor, aytish kerak bo'lgan ma'lumotlar, fikrlarni tartibga soladi, ko'proq bilimga ega bo'lish, o'sha sohaga taalluqli ko'proq ma'lumotlarni yig'adie

Mavzu haqida etarli ma'lumotlar va bilimga ega bo'lgandan so'ng ularni joylashtirish, ixchamlashtirish zarur.

Mavzu izchillik bilan ketma-ket joylashtirilishi kerak. Tinglovchilar ommasi diqqatini tortish, e'tiborini bir maromda ushlab turishdan iborat.

Notiq uyda llg'iz holda mashq qilishi, tinglovchilar jamoasini tasavvur qilib, qo'l harakatlari, yuz imo-ishoralari muvofiqlashtirib mashq qilishi lozim. Bu jaraln qancha ko'p takrorlansa, notiq uchun shuncha foydali bo'ladi.

Nutqni bir necha bor ovoz chiqazib o'qib chiqish asosiy fikrlarni mantiqiy bog'liqligi va izchilligini ta'minlash uchun joylashtirish kerak.

NUTQNING BOSHLANISHI

Qadimga davrlardan nutq jaralni uchga ajratilgan: nutqning boshlanishi, nutq va xulosa. Fan va texnika jamiyatning taraqqiy etishiga qaramasdan nutq jaralnidagi uch holat bugunga qadar saqlanib qolgan. Taniqli notiqlar notiqni boshlanishida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor bergenlar:

1. Nutqni qiziqarli va kulgili voqeani so'zlash bilan boshlash.

Bu usul tinglovchilar bilan ular orasida o'zaro, ichki bir yaqinlik hosil qiladi. Ba'zi notiqlar o'ta jiddiy mavzuni ham humor ularning hazilomuz so'zlari va hajviyalari orqali ifalaydilar

Ma'lumki, tinglovichlarni qiziqtirish, ularni kuldirish katta samara beradi. Ammo voqea-hodisani odamlarga ta'sir etadigan darajada kulgi va humor bilan so'zlab berish har qanday notiqning ham qo'lidan kelavermaydi. Shu sababli notiq voqea-hodisani qiziqarli va kulgili qilib ifodalashi uchun uzoq mashq qilishi, mahorat bilan so'z va imo-ishoralardan foydalani bilishi lozim. Shundagina zaruriy natijaga erishish lozim.

2. Nutqning boshlanishida hech qachon kechirim so'ramaslik kerak. Ya'ni, notiq «men notiq emasman, bu mavzuga tayyorgarlik ko'rмаганман, sizlarga yangilik aytolmayman» kabi gaplarni aytmasligi lozim.

3. Auditoriyada jiddiy qiziqish uyg'otish lozim. Buning uchun qiziqarli, hayratomuz xabarlar va yangiliklardan foydalanish kerak. Shuningdek, muammoli savollarni qo'yish va ulardan so'ng nutqni boshlash ham yaxshi samara beradi.

4. Narsa va predmetlarning aniq rasm va suratlarni ko'rsatish ham kO'ngildagidek yaxshi natija beradi.

5. Mashhur kishilarning fiklarini keltirish nutq jarayonida alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur va boshqalarning fikrlari.

6. Tinglovchilarni qiziqtirgan haliy masalalarga bog'liq mulohaza bilan boshlash ham nutqni samaradorligiga xizmat qiladi. Chunki auditoriyadagilarning birinchi navbatda o'zlariga bog'liq muammolar qiziqtiradi.

7. Nutqni juda ham rasmiy tarzda boshlamaslik lozim. U tabiiy, erkin tarzda bo'lsagina tinglovchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

SHE'R O'QISH YOKI RIVOYAT AYTISH BILAN BOSHLASH

Ba'zi notiqlar adabilt va san'atni sevgani uchun qanday mavzu bo'lishidan qat'iy nazar, nutqni adabiy shakllarda ifodalashni ma'qul ko'radilar.

ERKIN SUHBAT, SAVOL-JAVOB BILAN BOSHLASH

Bunday notiqlar tinglovchi bilan o’zini o’ta yaqin tutgani uchun auditoriya bilan notiq orasida «xitoy devori» bo’lmaydi. Tinglovchilarga murojaat qilish, ularning fikriy munosabatlarini eshitish notiqni auditoriyaga birmuncha yaqinlashtiradi.

KUTILMAGAN, TASODIFLI BIR VOQEADAN BOSHLASH

Bu usulda mavzuning xarakteriga qarab dramatizmga boy o’ta qiziqarli hodisani tanlanadi. Endi nima bo'larkin, degan mazmunda auditoriya notiqqa tikilgan. Notiq tinglovchilarni hodisa sababini bilishga qiziqtirib qo’ygach, mavzuni ustalik bilan unga bog’laydi¹.

Notiq nutqining ta’siri ikki xil omilga bog’liq. Nutq jaralnida ana shunga rioya etilmasa, maqsad oqibatsiz tugaydi. Bu nutq sifatlari va nutq texnikasidir. Nutqning to’g’riliqi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, taxesirliligi, jo’yaliligi, boyligi, ifodaviyligi, soddaligi, qisqaligini talab etuvchi omillar uning sifatini tashkil etsa, ovoz, nafas, pauza, intonatsiya, diktsiya, urg’u nutq texnikasini tashkil etadi. Har ikkalasini amalda to’la va o’rinli qo’llay bilmagan notiq yutqazadi.

¹ Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. T., Adolat, 2005, 75 b.

NUTQNI YAKUNLASH

Har bir narsaning boshlanishi va yakuni alohida ahamiyatga ega. Nutq jaralnida uning yakuni alohida ahamiyatga ega bo'lib, notiqning so'nggi so'zлari tinglovchilar Idida saqlanib qoladi. Shu sababli notiq nutq jaralnida so'ngida aytiladigan har bir so'z va iboraga jiddiy e'tibor berishi shart. Ba'zi tajribasiz notiqlar nutqini shunday tugatishadi:

«Nutqimni tugatayapman, sizlarga aytmoqchi bo'lgan gaplarim shulardan iborat», «Nutqimni shu bilan tugatayapman».

Nutqni shunday tugatish kerakki, uni tinglovchilar bilmay qolsin, unga alohida urg'u berish to'g'ri emas.

Taniqli notiqlar nutqning so'nggi so'ziga alohida e'tibor berish va tayyorgarlik ko'rishgan. Notiq so'nggi so'z sifatida aytiladigan yakunga 2-3 variantda tayyorgarlik ko'rib qo'yish lozim. Tajribasiz va go'l notiqlar bunga e'tibor berishmaydi va yaxshi tayyorgarlik ko'rishmaydi. Umuman, nutqni quyidagi ko'rinishlarda yakunlash yaxshi natija beradi:

1. Nutqdagi asosiy fikrlarni qisqa bayon qilish;
2. Nutqdan kelib chiqib tinglovchilarni harakat qilishga chorlash;
3. Tinglovchilar sha'niga qisqa maqtov so'zlar aytish;
4. Yumoristik va hajviy narsani, voqeani aytib tinglovchilarni kuldirish;
5. Mavzuga doir she'riy satrlar bilan yakunlash;
6. Qur'on va hadislardan na'muna keltirish;
7. Nutqni avjiga etkazib dolzarb va qiziq narsani aytish bilan yakunlash.

Nutqni shunday yakunlash kerakki, tinglovchilar uning tamom bo'lganligini sezmay qolsin.

Notiq quyidagilarga tayangan holda o'z chiqishini baholaydi:

- a) tinglovchilar auditoriyasining e'tiborini qay darajada torta olgani;
- b) mavzuga qay darajada kirib borilgani va uni qanchalik tushuntirilgani; bunda berilgan savollarning xarakteri va mohiyatiga tayaniladi.
- v) mavzuning qaysi jihatni tinglovchilarda ko'proq qiziqish uyg'otgani;
- g) mavzuga doir yana qanday kitoblarni ko'rib chiqish zarurligi;
- d) tinglovchilardan ayrimlarining yakka holda mavzuning Iritilishi xususidagi shaxsiy fikrlarini eshitishi;
- e) keltirilgan misollarning haliyligi va dalillanganligi;
- l) qanday nutqiy nuqsonlarga yo'l qo'yilgani;
- j) keyingi mavzu yuzasidan jiddiy tayyorgarlik ko'rish, mutolaa, faktlarni to'plash, auditoriya psixologiyasini o'rganish va hokazo¹.

¹ Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. T., Adolat, 2005, 75 b.

NUTQNING MAQSADI VA ANIQLIGI

Har bir nutq ma'lum bir maqsadni aks ettiradi. Notiqlar nutqning maqsadini quyidagicha 4 guruh bo'lishadi:

1. Biror masalani tushuntirib berish;
2. Fikr tug'dirish;
3. Ta'sir qilib ishontirmoq;
4. Ko'nglini ochmoq yoki ovutmoq.

Nutq jarayonida aniqlik va yorqinlik ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, qilsiy materiallardan keng foydalanib nutqni aniq va qiziqarli ifodalash mumkin.

Masalan: «Mamlakatimizda aholining zinchligi turlichadir», jumlasini olib ko'raylik. Bu juda umumi gapdir. Bu gapni qiyosiy tahlil etsak yanada yorqin bo'ladi «Andijon viloyatining maydoni 4,2 ming kv.km, aholisi 2 200 000 kishi bo'lsa, Tomdi tumanining maydoni 42,4 ming kv.km, aholisi 26,5 ming kishi». Demak, Tomdi tumanida 1 kv.km ga 0,5 kishi to'g'ri kelsa, Andijon viloyatida 520 kishi to'g'ri keladi.

Nutq jarayonida turli sohalarga tegishli maxsus terminlardan foydalanishda me'yorni bilish zarur. Chunki tinglovchilarining aksariyati bunday so'z va terminlarni mutlaqo tushunmaydi. Shu sababli so'z va terminlarni qo'llashda ularning tushunarligiga, ma'nosiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Nutq aniq va tushunarli bo'lishi uchun ko'proq ko'rgazmali qurollardan foydalanish zarur. Xalq bekorga quyidagi maqolni bejiz aytmag'an: «Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi».

Darhaqiqat, tibbiyot xodimlarini fikricha, ko'rishda eshitishga qaraganda 25 marta ortiq taassurot paydo bo'lar ekan. Shu sababli nutq jarayonida turli surat va rasmlardan foydalanish ko'proq samara beradi. Qolaversa, aniq bir narsani ko'rsatish umumi narsadan ko'proq natija keltiradi. Masalan: «Qush sayrayapti» - aniqroq qilib aytsak, «Bedana sayrayapti».

Nutqda asosiy g'oyani turli so'zlar bilan qaytarish ham yaxshi samara beradi. Turli so'zlarni qo'llash, ammo bir fikrni, g'oyani ifodalash, notiqlikdan katta mahorat talab qiladi. Nutq jarayonida umumi fikrdan ko'ra aniq, konkret misollar katta ta'sir kuchiga ega. Masalan, quyidagi gapni olib ko'raylik: «Shunday soha vakillari borki, ular millionlab pul topishadi». Bu juda umumi gap. Buni aniqroq, konkret qilib yoritib bersak, katta samara beradi. Taniqli futbolchi Devid Bekxen 1 oyda 10 mln. dollar, bokschi Muhammad Ali 20 mln. dollar, taniqli aktyor Arnold Shvartsneger 30 mln. dollar daromad qiladi.

Har bir nutqda ma'lum bir muammoni yoritish zarur. Ba'zilar bir qator muammolarni qamrab olganligi uchun ularni tushunarsiz va chala yoritiladi. Natijada nutqning samarasini bo'lmaydi. Shu sababli qanday mavzuda nutq bo'lishidan qat'iy nazar bir yoki ikki mavzuni qamrab olishi zarur. Har qanday nutqni aytib o'tilgan fikrlar bilan yakunlash kerak.

TINGLOVCHILARNI QIZIQTIRISH

Olimlarning ta'kidlashicha insonlar uchun dunyoda 3 ta muhim narsa mavjud ekan.

- shaxsiy hayot,
- shaxsiy mulk,
- va din.

Ularning birinchisi orqali hayotni yuzaga keltiramiz, ikkinchichi orqali uni quvvatlaymiz, uchinchisi orqali hozirgi va kelajakdagi hayotimizni tartibga solamiz. Demak, nutq jarayonida yuqoridagi 3 narsani nazarda tutish lozim. Notiq tinglovchilarning qiziqishini e'tiborga olsagina, uning nutqi samarali va jonli bo'ladi.

Nutq jarayonida konkretlik va aniqlik tinglovchilarga tez ta'sir qiladi. Aytيلاتقان har bir so'z ta'sirchan va ifodali bo'lishi lozim. Buning uchun nutq jarayonida xalq maqollaridan frazeologik iboralardan, xikmatli so'zlardan keng foydalanish zarur. Masalan, «Adabni beadabdan o'rgan», «Bog' olsang qishda ol, bog' sotsang yozda sot», «Do'sti nodondan, dushmani dono yaxshi», «Jo'jani kuzda sanaydilar», «Ishim bitdi, eshagim loydan o'tdi», «G'at-g'at qilar karnaychi, baloga qolar surnaychi», «Sanamay sakkiz dema», «Quda bo'lguncha ko'p sinash, quda bo'lgach ko'p siylash» kabilar.

NUTQ USLUBINI YAXSHILASH

Har kuni bizni nutqimizga qarab muhokama qilishadi (fikr yuritishadi). Bizning nutqimiz bizning ziyoliligmizni ko'rsatadi; u ziyrak tinglovchilarga biz voyaga etgan jamiyat haqida so'zlab beradi; u bizning ilmiy va madaniy darajamizni ko'rsatadi.

Sizda ham, menda ham o'rabi turgan olam bilan aloqa qilishning 4 ta usuli mavjud. Biz haqimizda quyidagilarga asoslanib fikr yuritishadi: biz nima qilayapmiz; biz qanday namoyon bo'lamic; biz nimani gapiramiz va biz buni qanday gapiramiz. Shunga qaramay ko'pchilik kishilar hayot davomida o'zining so'z boyligini ongli ravishda oshirishga harakat qilmaydilar, turli so'zlarning ma'no nozikliklarini o'zlashtir (o'rgan)maydilar. So'zlarni aniq va tushunarli talaffuz qilmaydilar. Ular ishda va ko'chada eshitgan, siyqasi chiqqan va chaynalgan iboralarni qo'llaydilar. An'anaviy talaffuz qoidalari tez-tez (ko'pincha) buzadilar: ba'zan va asosan grammatik qoidalarga rioya qilmaydilar.

Agar ilmiy darajaga ega bo'lgan kishilar shunday xato qilsalar, unda iqtisodiy zaruriyat ta'sirida o'z bilim olishini uzishga majbur bo'lganlardan nimani kutish mumkin? 30 yildan ortiq Garvard universitetining prezidenti bo'lgan doktor Charlz U. Elliot aytgan edi: «men erkaklar va ayollar ma'lumotining zaruriy qismi sifatida faqat ma'naviy ilm olishni tan olaman. Men ona tilini aniq va nazokat bilan qo'llashni nazarda tutayapman». So'zlarni o'z o'rnida va chiroyli qo'llash uchun ba'zi vositalarga e'tibor berish zarur. Bu hammaga ma'lum bo'lgan vosita - taniqli shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, olimlar, san'atkorlarning ijodidan bahramand bo'lish, foydalanishdir. Ayniqsa, she'riy asarlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Taniqli notiqlar ko'pdan ko'p kitoblar o'qish, o'rganish evaziga so'z boyliklarini ko'paytirganlar. Demak, uslubni shakllantirishda hammaga ma'lum bo'lgan vosita - adabiy asrlarni ko'p va muntazam o'qib borishdir.

Nutq jarayonida so'zlarning ma'nosi, etimologiyasi ham katta ahamiyatga ega: telefon grekcha tele - uzoq, fon - tovush; «shakar» sankritcha: karkara - shirinlik: ruscha «saxar»; kompaniya frantsuzcha com - birga, panis - non ya'ni, kompanon - birga non baham ko'rvuchi; dollar - taler - dolina (vodiya ya'ni, XVI asrda avliyo Ioxim vodiysida ilk bor u zarb qilingan). So'zlarning kelib chiqishi va ma'nosi ko'pchilikka qiziqarli bo'lgani uchun nutq jarayonida unga alohida e'tibor qaratish zarur. Nutqda fikringizning nozik jihatlarini ifodalash muhimdir. Buning uchun fikrni qayta - qayta yozish, qog'ozga tushirish kerak. Ko'pchilikda so'z ustida jiddiy ishlashga vaqt va qiziqish bo'lmaydi. Natijada ularning nutqi quruq va zerikarli bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra o'rtacha odam 2 mingga yaqin so'zni ishlatadi. Holbuki, Navoiy o'z asarlarida 27 mingga yaqin so'zni qo'llagan, hozirga o'zbek tilining izohli lug'atida 60 mingga yaqin so'z va iboralar joy olgan. Nutq uslubini yaxshilash uchun yangi so'z va iboralardan keng foydalanish zarur.

NOTIQLIK VA UNING TURLARI

«**Notiq**» - so'zi arab tilidan olingan. U nutq, mantiq so'zlari bilan o'zakdoshdir. Nutq so'z va tafakkurning uzviy bog'liqligida namoln bo'ladi. Notiq boshqa odamlar xulq-atvoriga va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga so'z orqali ta'sir etuvchi shaxsdir. Notiqning tafakkuri va ongi uzviy bog'liqdir. Notiq mantiqiy fikrlash xususiyatiga ega bo'lgan hamda idroki, xotirasi, o'y-xallari, irodasi, so'zamolligi, gapga chechanligi, bilimliligi bilan oddiy odamlardan farqlanuvchi shaxsdir.

«**Askiyachi**» - arabcha «zakiy» so'zidan olingan bo'lib, «hozirjavob, o'tkir zehnli» degan ma'nolarni anglatadi. Jamoat oldida ma'lum mavzu bo'yicha badiiy so'zda o'z qobiliyatini namoln qilib tortishuvchi kishi - askiyachi deyiladi. Askiyada ikki va undan ortiq kishi lki ma'lum guruhlar o'zaro musobaqalashadi. Askiyachi hozirjavob bo'lishi, ko'p ma'noli kulgili, ta'sirli va qochirimli so'zlashi lozim. U ona tilining boyliklari yaxshi bilishi, kinoya, qochirim, hazil, masxara, kesatiq, o'xshatish, mubolag'a kabi san'atlardan unumli foydalanishi lozim. Askiyachining vazifasi kulgi orqali odamlarga zavq berish, ularning bilimi va aqlini charhlash, hozirjavob bo'lishga o'rnatishdir.

Askiyachining turlari ko'p: payrov, safsata, o'xshatdim, qofiya, laqab va boshqalar.

O'zbek xalqi qadimdan to'y, sayil va bayramlarda askiya bo'yicha musobaqalar o'tkazib keladi. Askiyachilik rivojiga Dehqon Shernazarov, Erka qori Karimov, Yusufjon Shakarjonov, Aka Buxor Zokirov, Ijroqumbuva Aminov, Abdulhay maxsum Qozoqov va boshqalar katta hissa qo'shishgan.

«**Badihago'y**» - arabcha badiha - go'y - so'zlovchi so'zlaridan olingan bo'lib, hozirjavob va chechan kishilarning she'riy yo'sinda birdaniga so'z, she'r lki qo'shiq aytishidir. Badihago'y asarni ijod etadi lki unga ma'lum bir o'zgartishlar kiritadi. Badiha erkin tarzda ijod va ijro etilgan asar bo'lib, badihago'ydan katta tajriba va yuksak iqtidor talab etadi. Badihago'ylikning tur va janrlari ko'p bo'lib, eng ko'p tarqalgani baxshichilikdir. Pulkash, Ergash Jumanbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir va boshqalar baxshilik (badihago'ylik) san'atiga munosib hissa qo'shganlar.

«**Voizlik**» - arabcha «va'z» so'zidan («da'vat», «xitob» ma'nosida) olingan bo'lib, islomda odamlarni ezgulikka va yaxshilikka chaqiruvchi, jamoat oldida nutq so'zlovchi shaxsni anglatadi. Al Basriy islomdag'i ilk voiz bo'lgan. Taniqli olimlar, shoirlar, din arboblari ham voizlik san'atiga munosib hissa qo'shishgan. Ayniqsa Mavlono Rilziy, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Rumiy va boshqalar o'z nutqlari bilan mashhur bo'lganlar. Voiz xushovoz, ishontiradigan, ta'sirchan gapiradigan, talaffuzi aniq va ravshan, yuksak bilimli va madaniyatli, bir necha tillar egallagan shaxs bo'lgan. Keyinchalik voizlikning ahamiyati oshib nafaqat islomiy ma'ruza balki silsiy va xalqaro ahvolga bag'ishlangan ma'ruza, bahs va munozarani qamrab olgan. Juma namozi va hayit kularida voizlik xalq oldida nutq so'zlaganlar. Voizlik san'atining rivojlanishi natijasida uning yangi tarmoqlari vujudga kelgan: xatiblik - diniy va silsiy ma'ruza; muzakkirlik - diniy-axloqiy masalalar; dabirlik - davlat miqilsidagi lzishmalar va uni o'qib berish.

«Maddoh» - arabcha «madh» («maqtov», «ta'rif») so'zidan olingan bo'lib, biror shaxs lki narsa, voqeani madh etuvchidir. U asosan diniy mavzularda, xususan Muhammad payg'ambar va chorilrlarning halmi hamda xislatlari haqidagi ma'lumotlardan badiha tarzida aytuvchi hisoblanadi. Diniy baytlarni, g'azallarni va hikoyalarni baland ovozda keng xalq ommasi oldida ravon va ifodali aytish maddohning asosiy vazifasi hisoblanadi. Demak, maddohlik diniy aytish yo'li bo'lib ijrochidan notiqlik m'horatini talab qilgan. Keyinchalik maddoh so'zining yana bir ma'nosi yuzaga keldi. Biror shaxsni, xislatni lki g'oyani haddan ortiq maqtovchi ham maddoh deb yuritila boshladi.

«Suxandon» - forscha «suxan» («so'z») so'zidan olingan bo'lib, so'zga chechan so'z ustasini anglatadi. Suxandon turli mavzularda nutq so'zlaydigan madaniyatli va ma'rifikatli shaxs hisoblanadi. Uning auditoriyasi nihotda katta: turli bayramlarda keng xalq ommasi oldida, marosim va tadbirlarda, anjuman va kechalarda va boshqalarda.

Mumtoz adabiy merosimizning bilimdoni Nusratullo Atoullo o'g'li Jumaxo'ja suxandonlikning o'tmishdagi va hozirdagi ahvoloti borasida fikr yuritib, uning rasiy va norasmiy davrlaridagi talablar bilan bog'liq mulohazalarni ilgari suradi. «Suxandonlikning quyidagi asosiy shartlari bor: birinchidan, u ma'naviy-axloqiy etuk, ma'rifikatli zot bo'lsin, ikkinchidan - lshi ulug'roq, halmi tajriba ko'rgan bo'lsin, uchinchidan - el taniydigan va elni taniydigan bo'lsin, to'rtinchidan - nutqiy kamchiligi bo'lmasin, beshinchidan - ko'rinishi ko'rakam, nuroni va lqimtoy bo'lsin, oltinchidan - davra tashkilotchisi lki to'y-ma'raka egasiga yaqin bo'lsin, ettinchidan - davra qatnashchilar, xonadon ahli, mehmonu mezbonlarning asosiy qismini taniydigan kishi bo'lsin».

«Diktor» - lotincha «diktor» («so'zlovchi») so'zidan olingan bo'lib, radio va televidenieda nutq so'zlovchi shaxsdir. Diktor so'zi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) telekamera lki mikrofonda tayyor matnni xush ovozda ifodali va to'g'ri talaffuzda o'qib beruvchi shaxs; 2) matnga qaramasdan uni ravon va chiroyli gapiruvchi shaxs.

Diktoring ikkinchi ma'nosiga xos xislatga ega bo'lган notiqlar diktor so'zini suxandonni sinonimii sifatida ishlatischadi. Notiqlik san'atining nazariy va amaliy masalalari bo'yicha taniqli mutaxassis Rahimboy Jumanilzov bu haqda shunday lzadi.

«Qiroatxonlik» - ta'sirchan, ifodali o'qish san'ati. Aslida, qissaxonlik ham uning bir ko'rinishi. O'ziga xos o'qish yo'li va uslubini o'z ichiga olgan bu san'at qiroat qoidalari bilan turli xalqlarda mavjud bo'lgan. Evropada nazmni nasrga, nasmni nazmga moyil qilib o'qish usulida ham qiroatxonlikning ayrim qirralari bor. Qiroat oddiy so'zlashuv uslubi va ohangidan farq qilgan holda musiqiylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Arabiy qiroat talabi, tajvid qoidalari bilan o'qiluvchi Qur'on tilovati shunga misoldir. Qur'on lddan lki manbaning o'zidan o'qiladi. Har ikkalasida ham qiroatga rioya etiladi. So'zlash bilan qo'shiq orasidagi ohang asnosida o'qiladi.

NUTQIY SAN'ATLAR

OG'ZAKI NUTQ

1. voizlik
2. notiqlik
3. suxandonlik
4. qissago'ylik
5. roviylik
6. badihago'ylik
7. askiyachilik
8. maddohlik va hokazo.

LZMA NUTQ

1. dabirlik
2. kotiblik
3. munshiylik
(mirzolik) va hokazo.

QIROATXONLIK

- | | |
|---|-------------------------------------|
| a) adiblar nomi bilan
bog'langanlari | b) janriy
ko'rinishlari |
| navoiyxonlik | qasidaxonlik |
| boburxonlik | masnaviyxonlik |
| bedilxonlik | g'azalxonlik |
| mashrabxonlik | muxammasxonlik |
| ogohiyxonlik | ruboiyxonlik |
| muqimiyxonlik | qissaxonlik |
| va h.k. | xamsaxonlik va hokazo. ¹ |

¹ R.Jumaniyozov. Nutqiy mahorat. T.: Adolat, 34-b.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.: 2000.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul - qulub. T. 1983.
3. A.o'.Muhiddinov. O'quv jarayonida nutq faoliyati T.: 1995.
4. A.Ahmedov. Notiqlik san'ati. T.: 1967.
5. A.Ortiqov, A.Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. T.: 2002.
6. B.O'rınboev, A.Soliev. Notiqlik mahorati. T.: 1984
7. V.G.Kostamorov. Kultura rechi i stil. M.: 1960.
8. Yo.Tojiev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo'ldosheva. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari T.: 1994.
9. Qobusnama. T.: 1994.
10. K.Nazarov, S.Usmonov, Q.Tohirov Yuristning nutq madaniyati. T.: 2003.
- 11.M.Mirtojiev, N.Mahmudov. Til va madaniyat. T.: 1992.
- 12.N.Mahmudov. Ma'rifat manzillari. T.: 1999.
13. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: 1976.
14. N.Jumaxo'ja. Istiqlol va ona tilimiz. T.: 1998.
15. O.Hakimova Mantiq va nutq madaniyati. T.: 2002
16. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.: 1992.
17. R.Rasulov. Istiqlol talabi, Guliston jur. № 2. T.: 1994.
18. R.Rasulov. Til hayotimiz ko'zgusi. Nafosat jur. № 2. T.: 1993.
19. R.Rasulov. O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi. T.: 2001.
20. R.Rasulov, I.Umirov. O'zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug'ati. T.: 1997.
21. S.Usmonov. Umumiyl tilshunoslik. T.: 1972.
22. S.Inomxo'jaev. Notiqlik san'ati asoslari. T.: 1982.
23. S.Mo'min. So'zlashish san'ati. T.: 1997.
24. T.Qudratov Nutq madaniyati asoslari. T.: 1993.
25. E.Begmatov, A.Boboeva, M.Asomiddinova, B.Umurqulov. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. T.: 1988.
26. Q.Mo'ydinov, K.Vahobova. Nutq madaniyati (ma'ruza matnlari) 2001.
27. N.Husanov. O'qituvchining nutq madaniyati (ma'ruza matni). 2003.
28. N.Husanov, Z.Mirahmedova. Mutaxassislik tili. T.: 2001.
29. R.Jumaniyozov. Nutqiy mahorat. T.: Adolat, 2005.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

«NUTQ MAHORATI»

Kishilik jamiyatida turli sohalar va kasblar mavjud. Soha inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat vash u kabilarning ma'lum bir tarmog'ini ifodalaydi. Odamlarning yashash manbai, ya'ni asosiy tirikchiligi ma'lum kasbga asoslanishligi sababli eng avvalo bu so'zning ma'nosini yaxshi bilishimiz lozim. Kasb insoniyat faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi va kishi shug'ullanadigan mashg'ulot hisoblanadi. Kasb o'ziga xos tajriba, bilim va mahorat natijasida shakllanadi. Soddaroq qilib aytganda ish faoliyatini me'lrida amalga oshirish uchun talab etiladigan mahorat kasb deyiladi. Kasb arabcha so'z bo'lib, uning tilimizdagi sinonimlari hunar, mashg'ulot va yumush (ish)dir.

Kasb jamiyatdagi ma'lum bir mehnat faoliyat yo'nalishini, uning tor sohalari esa ixtisoslikni anglatadi. Masalan, iqtisodchi kasbi turli ixtisosliklarga bo'linadi: bank ishi, moliya, soliq, sug'urta, buxgalteriya hisobi va audit, menejment, statistika, kasb ta'limi.

Kasb ta'limi ixtisosligi iqtisodiltning ma'lum bir sohasi bo'yicha iqtisodchi-pedagoglarni tayyorlashga asoslangan. Talabaning iqtisodilt sohasi bo'yicha egallashi shart bo'lgan bilim va ko'nikmasi ta'lim hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda kasb ta'limi ixtisosligi iqtisodchi pedagog (o'qituvchi) demakdir.

Iqtisod arabcha so'z bo'lib «tejash» degan ma'noni anglatadi. Unga -chi so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shish orqali yangi so'z yasalgan: iqtisodchi. Demak, iqtisodchi - iqtisod fanlari va iqtisodiy masalalar bo'yicha mutaxassis hisoblanadi.

Pedagog ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanadigan kishidir, ya'ni o'qituvchi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya ishlar bilan muntazam shug'ullanuvchi shaxs bo'lgani uchun eng sharaflı, hurmatga loyiq inson hisoblanadi. U o'qish, o'rganish va haliy tajriba natijasida to'plagan bilimini lshlarga aniq va to'liq tushuntirishi, berishi lozim. Bu esa nutq madaniyati bilan bog'liq masala hisoblanadi. «Nutq madaniyati» tushunchasini anglash uchun ularning har biriga alohida to'xtalish zarur. Nutq so'zi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) Fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati. 2) So'zlashuv jaralnidagi til (badiiy, og'zaki, poetik). Nutq so'zi arabcha bo'lib notiq va mantiq so'zlari bilan bir o'zakdan yasalgan.

Kishi jamiyat, tabiatdagi predmet, hodisa va voqealarni sezgi organlari hamda nutq orqali idrok etadi.

Madaniyat arabcha «Madina» - shahar so'zidan kelib chiqqan bo'lib, shaharda (madaniy tarzda) o'troq yashovchi aholiga nisbatan qo'llanilgan. Arablarning sahrolarda yashovchi aholimi badaviylar deyiladi va ularning yashash tarzi, muomalasi, kiyinishi shaharliklarga nisbatan bir qadar orqada bo'lgan.

Umuman, sharq allomalari ham shahar turmush tarzini jamoaning etuklik shakli sifatida ta'riflaganlar, ya'ni inson etuklikka asosan shaharda erishadi. Madaniyat so'zi hozirgi o'zbek tilida bir qancha ma'nolarda qo'llaniladi: jamiyat taraqqiqtining muayyan darajasi; insonlar yaratgan moddiy boyliklar; kishilarning ma'naviy hali va merosi; zillilik va ma'rifat.

Madaniyat so'zi G'arbda ikki ma'noda qo'llanilgan: 1) ta'lim-tarbiya berish. 2) kishining tabiatga to'g'ri ta'sir ko'rsatishi. Lotincha «cultura» ya'ni erga ishlov berish so'zidan rus tilidagi kultura so'zi yuzaga kelgan va u ikki ma'noda qo'llaniladi: etishtirish; ma'naviyatni va axloqni yuksaltirish. Bu so'zni o'zbek tiliga tarjima qilganda uning har ikki ma'nosini nazarda tutish lozim. Chunki rus tilidagi «kulturnoe rastenie» birikmasi o'zbek tiliga noto'g'ri tarzda tarjima qilingan: «madaniy o'simliklar». Xolbuki bu birikma «ekiladigan o'simliklar» deb tarjima qilinadi.

Demak «Nutq madaniyati» birikmasi aniq, to'g'ri, chiroyli va sof tilda so'zlashishni aks ettiradi.

«Nutq madaniyati» fanining maqsadi pedagoglarda lzma va og'zaki nutqiy ko'nikmalarни shakllantirishdan iborat bo'lib quyidagilarni qamrab olgan:

1. Talabalarda mantiqiy asoslangan og'zaki va lzma nutqni o'stirish.

2. Pedagog nutqiga xos bo'lgan, ilmiy va amaliy asoslangan malakani shakllantirish.

3. Iqtisodilt tili va uslubiga, uning terminologik tizimiga xos xususiyatlar va qonuniyatlar haqida keng ma'lumot berish.

O'zbek tilining sofligi va boyligi uchun kurashish har bir kishining burchidir. Zilli va rahbarlarga esa yanada katta mas'uliyat yuklangan. «O'z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin»¹.

R.Emerson esa:

«Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi» - deydi (6 bet).

«So'zdan kuchliroq narsa yo'q» (Menandr).

«So'zdan qudratliroq narsa yo'q». O'tkir dalil va yuksak fikrlar safini yorib o'tish mumkin emas. So'z yovuzlarni yakson etadi, qal'alarmi yiqitadi. U ko'zga ko'rinas quroq. So'z bo'lmasa, dunyo dag'al kuchlar qo'lida qolar edi. So'z sehridan kuchliroq sehr yo'q. (A.Frans)

«So'z buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so'z bilan odamlarni birlashtirish, so'z orqali ularni bir-birlari bilan yuz ko'rmas qilib yuborish mumkin, so'z bilan mehr qozonish, so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqish mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishdan saqlan» (A.N.Tolstoy).

«Til - eng xatarli quroq. So'z yarasidan ko'ra tig' yarasini davolash oson» (P.Kalderon).

«Qaerdaki so'z tirik ekan, u erda hali ish ham o'limgan!», «So'z qanday ishga yo'llashi bilangina qimmatlidir» (A.I.Gertsek).

«Jonli so'z mo''jizalar yaratadi» (I.Burdenko).

«So'z shamolga qarab uchadigan o'yinchoq pufak emas. U ish quroli: u ma'lum darajadagi og'irlikni ko'tarib turmog'i lozim. O'zgalar kayfiyatini qanchalik rom etishi va o'zgartirishiga qarabgina biz so'zning ahamiyati va kuchini baholamog'imiz mumkin» (V.G. Korolenko). (10 bet)

«Ardam bashi - til» (Qoshg'ariy)

¹ I.Karimov. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi IX sessiyasi: Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.

«Kishi so'zlashu, yilqi yizlashu» (Qoshg'ariy) (8 bet)

Allomalarimiz so'z va tilga alohida e'tibor berishgan. Kaykovus «Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir» - degan bo'lsa,

Navoiy:

«Ko'ngul durji ichra guhar so'z durur,

Bashar gulshanida samar so'z durur» - deb yozgan edi.

«So'zni ko'ngulda pishqormaguncha tilga kelturma,

Har nekim ko'ngulda bor - tilga so'rma» (Navoiy)

«So'z - gul, ish - meva» (Xorazmiy)

«O'z birodaringni yanchilgan mushkdan ko'ra ham xushbo'y so'zlar bilan maqtab yod et, garchand u sendan uzoq shaharda bo'lsa ham»

«Nodon kishi so'z, hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tumov kishi gulning hidini sezmagani kabi»

«Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni pandu nasihating) ba'zan qo'lingdan (moldunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir»

«Ko'p so'zlar borki, ular seni jangu jadalga solib, halokatga giroftor qiladi yoki ulardan qaytarsa ham elka chuquringni gul kabi qizargan holga keltirgandan keyin qaytaradi» (Mahmuz Zamahshariy) (10-11 bet)

Takrorlash uchun savollar

1. Nutq nima?
2. Madaniyat so'zi nimani bildiradi?
3. Kasb so'zi nimani ifodalaydi?
4. Iqtisod so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
5. Nutq madaniyati qaysi sohalar bilan bog'langan.

Topshiriqlar

«Men sevgan kasb» mavzusida lzma ish lzing.

Qxituvchi, ustoz haqidagi she'rlardan ld oling.

1. Quyidagi hikmatli so'zlar va gaplarni ma'no va uslubiga ko'ra tahlil qiling.
2. Gap sallada emas, kallada.
3. Muallim ila muharrir millatning ikki qo'lidir.
4. Ota-onaga muruvvat, farzandga shafqat, ojizlarga ko'mak, beva-bechoralarga marhamat tuyg'usi bo'lмаган, tili bilan dili, suvrati bilan siyrati nomutanosisib shaxsni komil inson deb bo'larmikan?
5. Shunisi borki, o'zing durustroq bilmagan narsangni aytish gunohi azim.
6. Oz so'zlagin, oz egil va oz uxlagil.
7. Toza qalb, tiniq tafakkur, bedor iymon bo'lsa bas.
8. Yaxshilik suhbatida bo'lish dilni har xil g'ubor va quyqalardan tozalaydi. Qalblarni charog'on qiladi.
9. Yozma nutqi ham, og'zaki nutqi ham birday ravon va farovon, lafzi halol, to'kis va tekis edi.
10. Kallada yo'q narsa tilda ham bo'lmaydi. So'zning kuchi fikrning kuchida mujassam.
11. Kishi o'z nodonliklarini payqab borgani qadar aqllidir.
12. Agar biz ota-bobolarning urf-udumiga, ularning odamiylik, lshlarga shafqat, kattalarga hurmat, qadr-qimmat haqida aytgan o'gitlariga xilnat qilsak, arosatda qolib, o'z milliy qilfamizni butkul yo'qotib qo'yamiz.
13. Badiiy asar «ma'nolar xazinasi» bo'lib, lzuvchining o'zining har bir kitobida qandaydir «yangi gap» aytishga harakat qilar ekan, u o'z muddaosini ona tilining mavjud lug'aviy - ifodaviy vositalari orqali ro'lbga chiqazadi.
14. Ishontirish uchun ishonish kerak.
15. Tilda shunday so'zlar borkim, ular o'zlari ifoda etayotgan ayni narsa yoki hodisaning o'zidan ham totlirog': «odamshavanda», «odamoxun», «zakovatli» deymiz. Oliyjanob insonlarga nisbatan «shafqatli», «ma'rifatli», «marhamatli», «e'tiqodli» sifatlarini qo'llaymiz. Mazkur tushunchalarning mag'zi to'q, salmog'i va qadri baland.
16. Boshqalardan to'g'rilikni talab qilishing uchun o'zing to'g'ri bo'lishing kerak.
17. Milliy axloq deganda men odamlarimizga xos hayo, ibo, sharm, mehmono'stlik, sabr-qanoat, mulohzakorlik, andisha, shafqat, oilaga, ota-onaga, aylolga hurmatni tushunaman. Yana: saxiylik, xokisorlik, javonmardlik. (14)
18. Riyo qaerda tugadi-yu, ziyo qaerda boshlandi? (24)
19. O'zbekning ham jahon xalqlarining insoniy - milliy xazinasiga in'om etishga arzigulik ajoyib - g'aroyib sifatlari (bag'rikenglik, saxovatpeshalik, mehnatsevar-lik, to'g'riso'zlik, yalangto'shlik) mo'l.

20. Har qanday ta'rif o'sha ta'riflanaltgan ashlga mos bo'lmosg'i darkor. Oshirib maqsadga rag'bat ortiq darajada erga urishday gap. Har ikkalasida ham me'lr buzilgan bo'ladi (63).
21. Ko'rishni istasang, har qanday kimsada ham istagancha yaxshiliklarni ko'rishing mumkin. (78)
22. Ilm bilan din o'rtasida «Xitoy devori»ni qo'yib bo'lmaydi. (90)
23. Ta'lim-tarbiya, irsiyat negiziga qurilgandagina samarador bo'ladi. (96)
24. Dil bilan til ayru tushgan joyda nima bo'ladi? Parchalanish, emirilish, chirish, halokat yuz beradi. Bu muqarrar. (103)
25. Olim tahlil qiladi, Izuvchi tasvirlaydi, aktyor xarakter yaratadi. (125)
26. Narsa va hodisalarning aql ko'zi bilan ko'ra olgan kishigina Biron narsa lki hodisotga baho berishda adashmaydi. (141)
27. Oldiga kelganni emak - hayvonning ishi, og'ziga kelganda demak - nodonning ishi. (203)
28. Tangri taolo o'z bandalarini aziz mukarram qilib yaratdi. Badan berdi - jon uchun, jon berdi - iymon uchun, iymon berdi - ikki olam uchun, ong berdi - o'ylash uchun, muhabbat, axloq-odob, kuch-qudrat berdi - o'zini va o'zgalarni boshqarish uchun. (205)
29. Avval o'yla, keyin so'yla (13).
30. Aytishsang so'z chiqadi, turtishsang ko'z chiqadi (16).
31. Aslini bilmay so'z demaslar, naslini bilmay qiz bermaslar (24).
32. Aqcha topguncha aql top (26).
33. Birovning aybinisenga aytgan -sening aybingni ham birovga aytadi (50).
34. Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla (82).

Adabiltlar

1. R.Jumaniyozov, S.Salimov. G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati. T.: 2002.
2. I.Nazarov, S.Usmonov. N.Tohirov. Yuristning nutq madaniyati. T.: 2003.
3. R.Qo'ng'uров, E.Begmatov, L.Tojiev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.: 1992.
4. Alibek Rustamov. So'z xususida so'z. T.: 1987.
5. G'.Salomov. Men suv ichgan darllar. T.: 1990.
6. G'.Salomov. Ezgullikka bog'lan odamzod. T.: 1997.

NUTQ VA NORMA¹

Davriy normani ifadalovchi so'zlarga gaplar tuzing:

XV	XIX asr	XXI (hozir)
bila	birla, ila	bilan, ila
ayog'	alg', olq	olq
aro	aro, ora	ora
bordur	bordur, bordir	bordir
qaro	qaro, qora	qora
quyoshg'a	qulshg'a	qulshga
sing'on	sing'an	singan
borg'il	borg'il-borgil	borgin

II. Ko'p va kam ishlatiluvchi variantlarni aniqlang.

Sabab, bahona, bois, vaj; ahd, va'da, lafz; xasis, ziqlana, qizg'anchiq, mumsik; baland, novcha, daroz; dushman, g'anim; ezma, mijg'ov.

So'zlarni neytral, kitobiy, og'zaki so'zlar guruhlariga ajrating.

Chiroyli, zebo, ketivorgan; llg'onchi, kazzob, aldamchi; chidam, bardosh, to'zim, matonat; loyiq, monand, bop; emoq, tanovul qilmoq, oshamoq, iste'mol qilmoq; jahl, qahr, g'azab, achchiq, zarda; suhbatlashmoq, firklashmoq, hangomalashmoq; qachongacha, tokay, tokaygacha; ozgina, kamgina, qittay, andak, jichcha.

III. Noo'rin qo'llangan so'zlarni aniqlang.

1. Orttirilgan sarmoyasini bir oyda chaynab, yana avvaliga qaytdi (M.M.Do'st. Lolazor).
2. Jo'raqulov lmon yaxshi odamu, ammo qiziqroqda, - dedi Qo'chqorvoy (Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar).
3. Sekin qoch, tezroq, - dedi birov (Oybek, 7 tom).
4. Buzoqni sero'troq joyga qantarib qo'ydi-da, devor oshib, tutzorga tushdi (N.Norqobilov. Zangori ko'l).
5. Jiyafurush yigitlardan bir guruhi zavodga safarbar etilibdi, pistafurush qizaloqlardan paxtakorlar zvenosi tuzilibdi (M.M.Do'st. Lolazor).
6. Biz savdo va umumiy ya'ni obshejit xodimlari tozalikka, gigiena qattiq rioxaya qilishimiz kerak (N.Aminov, Qahqaha).
7. Uning ovozi allaqanday xirillab palag'da chiqdi (N.Aminov, Qahqaha).

IV. Gaplardagi mantiqiy xatolarni aniqlang va ko'rsating.

1. Balki, ular derazadan tushaltgan oyning nurini ko'pdan buln tinglaltgandir (A.A'zam. Asqartog' tomonlarda).
2. Devolning tagiga terak ko'chat aylantiraman. qarabsizki, besh-olti yil ichida odam bo'pqoladi (N.Otaxonov, Dunl keng).
3. Butun poda nomidan kechirim so'radi (A.Mamarasulov, Taftish).
4. Bitni sinf sifatida tugatib yuborganmiz (M.M.Do'st. Lolazor).
5. Ho'kizlarim abed qildi (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi).
6. Xo'roz xursand bo'lib ketganidan ovozining boricha qichqirib yubordi (Mirmuhsin. Ildizlar va yaproqlar).
7. Hazrati raykom, hazrati ispolkom (X.To'xtaboev. Sariq devni minib).

V. So'z ma'nosining matnga ta'sirini aniqlang va izohlang.

- Temirjon kimga uylanyapti?
 - Yulduzga.
 - Nega yulduzga uylanadi, erda qiz topilmadimi? (G'.G'ulom. Bir million mojarosi).
2. Bor, bolam, danagingni chaqib egil. Hazir bo'l, qo'lingni chaqib olma tag'in (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi).
 3. Ertalabki namozdan keyin qori pochcha dami chiqib ketib kasal bo'lган kishilarga bismollo deb, englarini shimarib dam solishga tushib ketdi (X.To'xtaboev, Sariq devni minib).

VI. Adabiy norma va sheva.

1. So'zlarni adabiy tilga va qaysi shevaga mansubligini aniqlang.

Ena, biyi, apa, oyi, aya, ona; dostiq, tana, yastug', bolish, l'stiq; jezda, yazna, pochcha, pochcha; sabiz, gamir, savzi, sabzi; murgan, qimirsqa, qumursqa, chumoli; mayyak, yumurtqa, moyak, tuxum; buzov, xo'jak, bo'zoq, go'sala, bo'zoq; mo'ltoni, jo'g'i, lo'li; halinchak, halganchak, sarinjak, arg'amchoq; zog'izg'on, olashaqshaq, akka, hakka.

2. Quyidagi so'zlarning adabiy tildagi va shevadagi ma'nolarini ayting va izohlang.

Tomir, istamoq, o'sal, tentiramoq.

3. Badiiy matnda noo'rin qo'llanilgan sheva so'zlarini aniqlang.

Rais bova, manavi polvonlarga do'rjiroq qo'ying (T.Murod, Qo'shiq).

Otasi, satta qizdan saylab olmaydimi (M.M.Do'st. Lolazor).

U qilqni qizlarga gartak - gartakdan, Momoqizga mo'lroq berdi (T.Murod. Qo'shiq).

VII. Nutq va okkazionalizmlar.

1. O'zbek tilidagi so'z yasalishiga asoslangan okkazionalizmlarni aniqlang va ularning ma'nosini tushuntiring.

Xalqparvar - paxtaparvar, talikaparvar; cho'lquvar - pulqo'var, yilquvar; ltoqxona - chatoqxona; sportsmen - spirtsman; kosmonavt - saqronavt; guliston - changiston; quroldosh - soqoldosh; oshpazlik - diqqatpazlik; birso'zlik - o'zso'zlik; fizruk - muzruk.

2. Quyida gaplardagi okkazional so'zlarni aniqlang.

1. Jyuri a'zolari eng abjir uch qatnashchini, ya'ni Aldab Sottiev, Qaytim Bermasova, Urib Qolganovni g'olib deb topdi (Mushtum).

2. Oshpaz Yulg'ichboy Qallobov nomiga iliq so'zlar aytildi (Mushtum).

3. Satarov battarov bo'lzin! Anqov, eplolmasa, nima qiladi bu ishga uring (Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar).

4. Lekin bu haqiqatni tan olmaslik ko'rso'xtalik bo'ladi.

5. Yalangqo'mda ham mish-mish.....

6. Xo'p, bu kadrchani otini nima qo'ydilar, Bashirjon.

Adabiltlar

1. B.O'rboev, A.Soliev. Notiqlik mahorati. T.: 1984

2. Yo.Tojiev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo'ldosheva. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari T.: 1994.

3. Qobusnomi. T.: 1994.

4. K.Nazarov, S.Usmonov, Q.Tohirov Yuristning nutq madaniyati. T.: 2003.

5. M.Mirtojiev, N.Mahmudov. Til va madaniyat. T.: 1992.

6. A. Mamatov. hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. T.: 1991.

G'ARB MADANIYATI TARIXIDA NOTIQLIK SAN'ATINING O'RNI

Savollar:

1. Notiqlik san'ati dastlab qaerda shakllangan?
2. Notiqlikning san'at darajasiga ko'tarilishiga nima sabab bo'lgan?
3. Notiqlik haqida ilk bor ma'lumot bergen asar qaysi?
4. Notiqlikning qanday turlari bo'lgan?
5. Qadimgi Yunon va Rim notiqligi haqida nimalar bilasiz?

Laboratoriya ishi (yoki amaliy mashg'ulot uchun material).

Topshiriqlar

1. Quyidagi Yunon notiqlari, ularning notiqlik san'ati, hayoti va ijodi haqida adabiyotlardan foydalananib, ma'lumot toping.

Perikl. Perikl eramizdan oldingi V asrning boshlarida (500-429) yashagan taniqli notiqlardan biridir.

Eramizdan oldingi V asrning 50-30 yillar Afina davlatining siyosiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanish davri bo'ldi. Bu paytda davlat boshida Perikl turgan bo'lib, shunga ko'ra ayni davr tarixda «Perikl asri» deb ham yuritiladi... Perikl asli harbiy qo'mondon bo'lib, Eron-Yunon urushida katta mahorat ko'rsatadi va shu tufayli vatandoshlarining e'tiborini qozonadi... Perikl o'z davrining davlat arbobigina emas, yirik notig'i ham bo'lган.¹

Kleon. Kleon Perekldan keyingi mashhur notiq bo'lib, nafaqat Afinada, balki undan tashqarida ham so'zga chechanligi bilan shuhrat qozongan...

Kleon o'z notiqlik maktabi bilan mavjud rasmiy notiqlik uslublariga qaqshatqich zarba bergen va bunga o'z zamondoshlarini ham ergashtira olgan.²

Lisiy. Lisiy qadimgi Yunon notiqlik san'atining jahonshumul mavqeiga ega bo'lgan namoyandalaridan biridir. Uning otasi Sitsiliyaning Sirakuz shahridan bo'lib, juda yirik dastmoyador, sanoat korxonalarining egasi edi... Lisiy taxminan eramizdan oldingi 459 - 380 yillar orasida yashab, 80 yilcha umr ko'rgan. U 444 - yilda janubiy Italiyadagi Sibaris shahriga boradi va u erda Sirako'zlik Tisiydan notiqlik san'atini o'rgana boshlaydi... Lisiy logograflik bilan shug'ullannib, o'z

¹ Qarang: S.Inomxo'jaev O'sha asar. 62 - bet.

² Qarang: S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 64 – bet.

mahorati bilan tinglovchilarni, sud hay'atini mahliyo etib, ularning mehru muhabbatini qozongan.¹

Isokrat (eramizdan oldingi 436-338 yillar). Isokrat notiqlik, falsafa va huquqshunoslik sohasida o'z zamonasining eng yirik fan va madaniyat arboblari bo'lган Suqrot, Tisiy, Gorgiylardan ta'lif oldi. U 329 - yili Afinada notiqlik mакtabini ochadi va unga qariyb 40 yil davomida rahbarlik qiladi.

Isokratning notiqlik maktabi juda katta shuhurat qozonadi. Shuning uchun ham bu maktabga faqat afinaliklar emas, balki Yunonistonning barcha burchaklaridan o'quvchilar oqib kela boshlaydilar.²

Isey (eramizdan oldingi taxminan 420-350 yillar). Iseyning logografik va notiqlik faoliyatiga xos bo'lган xususiyatlardan biri uning so'zga chechanligidir. U o'zining ana shu iqtidori, notiqlik mahorati tufayli qo'liga tushgan har qanday ishni o'zi va mijoji foydasiga hal qila olardi. U, asosan, logograflik bilan shug'ullangan. Isey logograflik va notiqlikda Lisiy va Isokrat kabi mashhur so'z ustalariga ergashdi.³

Likurg. Likurg o'z davrining gumanist notig'i, davlat, fan va madaniyat arbobi. Uning yoshi Demosfendan sal ulug'roq bo'lib, 324-yili vafot etgan.

Likurg notiqlik san'ati asoslari, falsafa va yurisprudentsiya bo'yicha Platon va Isokratdan maxsus ta'lif olgan. Iste'dodi va notiqlik mahorati tufayli Afina davlatining eng yirik notiqlari va arboblari safidan joy olgan. Eramizdan odingi 388-yildan boshlab, u davlat xazinachisi sifatida (hozirgi tushunchada moliya ministri) Afina iqtisodini boshqaradi.⁴

Demosfen (taxminan 384-322 yillar). Demosfen davlat arbobi va o'z davrining yirik notig'idir. Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra Demosfen falsafani Platondan, notiqlik asoslарини Isokratdan o'rgangan.¹

Demosfen Afina notiqligining yirik namoyondasi bo'lib, uning texnik mashqlari, nutq talqini jarayonidagi usullari nutq ustida ishlash uslublari, til imkoniyatlaridan foydalanish va notiqlikning talqiniy ifoda vositalarini mohirona ishga sola olishi kabi fazilatlari hozirgi davr notiqligi uchun ham amaliy va nazariy ahamiyatga ega.²

Esxin (eramizdan avvalgi 390 - yilda tug'ilgan). Esxin kambag'al oiladan bo'lGANI tufayli notiqlik san'ati asoslарини maxsus mакtablarda emas, mustaqil o'rGANISHGA majbur bo'lган.

Esxin logografiyadan dars olmaganligi uchun uning nutq tekstlari, tili kompozitsion jahatdan uncha ahamiyat kasb etmadidi. Ammo Esxinning notiqlik faoliyatida talaffuzining burroligi, teatr deklamatsiyasiga ustaligi alohida o'rIN tutadi.

¹ Qarang: S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 76 – bet.

² Qarang: S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 79 – bet.

³ S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 81 – bet.

⁴ S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 82 – bet.

¹ S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 83 – bet.

² Qarang. S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 91 – bet.

U o'zining yuksak saviyali, ta'sirchan deklamatsiyasi bilan tinglovchilar qalbini rom etgan va shuning uchun ham bo'lsa kerak, «Attikalik o'nta notiq qonuni» ga kiritilgan.³

Giperid (eramizdan oldingi 389 - yilda). Giperid o'rta hol oilada tug'ilgan. Giperid Demosfenning zamondoshi bo'lib, ayrim tarixchilar notiqlik borasida uni Demosfendan ham yuqori qo'yadilar.

Giperid notiqliknii Isokratdan, falsafani Platondan o'rgangan. O'z davrida Afina davlatining yirik siyosiy arbobi va notig'i bo'lib tanilgan.

Giperid notiq sifatida juda soddalikka va aniqlikka intilgan.⁴

Dinarx (eramizdan oldingi 361-360- yillarda tug'ilgan). Dinarx Afina notiqlik san'ati tushkunlik sari yuz tutgan davrning namoyondalaridan biridir.

Dinarx falsafa bo'yicha Aristoteldan, notiqlik va yurisprudentsiyadan esa Feofrastdan tahsil olgan. Amalda esa notiqlikda Lisiy, Giperid va Demosfenga ergashdi.⁵

³ Qarang. S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 91-92 – betlar.

⁴ Qarang. S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 92 – bet.

⁵ Qarang. S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 94 – bet.

Quyidagi Rim notiqlik san'atining namoyondalari to'g'risida adabiyotlardan foydalangan holda, ma'lumot toping

Rim notiqlik san'ati Yunon notiqlik san'atining davomi sifatida yuzaga kelgan. Rimdag'i iqtisodiy va siyosiy o'sishning xarakteri notiqlik san'atining yangi tipini yaratdi.

Rimlik notiqlardan biri eramizdan ilgari III-II asrlarda yashab o'tgan davlat arboblardan **Mark Partius Kato yoki Katondir**. Katon notiq sifatida nutq san'ati nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan maxsus shug'ullangan. Lekin uning nutqlaridan juda kam qismi bizgacha etib kelgan.

Katon o'z nutqida qarama-qarshi qo'yish usulini juda o'rinali qo'llaydi. Uning nutqida dalillar kuchliligidan hech kim qarshi gapira olmasdi. Shu bilan birga nutqning jonliligi, masalani qisqacha bayon qila bilish, qo'yilgan masalani yorqin ko'rsata bilish uchun nutqiga nafosat bag'ishlardi.¹

Katon notiq sifatida shu qadar kuchli mahorat egasi ediki, bu borada unga Tsitseron ham tan berib yozadi. «Hammasini yanada chiroyliroq, yanada nafisroq qilib aytish mumkin, ammo hech narsani undan kuchliroq va jonliroq qilib aytish mumkin emas». Temperament bilan so'zlash borasida Tsitseron deyarli hech kimga shu qadar yuksak baho bermaydi.

Aka-uka Grakxlar. Aka - uka Grakxlar eramizdan oldingi II asrda yashab o'tishgan. Akasi **Tiberiy** va ukasi **Kay Grakxlarning** notiqlik iste'dodi ularning g'oyaviy-ijtimoiy qarashlari zaminida ochildi va shuhrat qozondi. Ulkan davlat arboblari bo'lган aka - uka Grakxlar Italiyada er reformasi uchun kurash olib bordilar.

Xullas, aka - uka Grakxlar jahon notiqlik san'ati tarixida o'zlarining yorqin dunyoqarashiga, aniq ideal va mustaqil ifoda uslubiga ega bo'lган siymolardir. Shuning uchun ham ular asrlar osha jahon notiqlik madaniyatining kurki bo'lib kelyapti.²

Mark Antoniy (eramizdan oldingi 143-87 yillar). Rim notiqlik san'atining yirik namoyondasi, davlat arbobi Tsitseron o'zining «Notiq haqida» nomli risolasida Mark Antoniyni o'zi bilan teng ko'rgan.

Mark Antoniy davlat konsuli va tsenzerlik martabalarida ishlab, asosan, xalq majlislari va senatda so'zlardi. Notiq sifatida xarakterli xususiyati shundaki, u ko'pincha avvaldan tayyorlanmasdan, **ekspront – badiha** tarzida nutq so'zlardi.³

Tsitseron. Mark Tulliy Tsitseron eramizdan oldingi 106 yilning 3-yanvarida Latsiya degan kichik shaharga qarashli Arpina degan joyda tug'ilgan. U, asosan, sud notiqligida shuhrat qozongan so'z san'atkorlaridan biridir. Tsitseron eramizdan oldingi 63-yilda oliy lavozimga – konsullikka saylanadi. Tsitseron eramizdan oldingi 43-yilda 6-dekabrdan 7-dekabrga o'tar kechasi Antoniy kishilari tomonidan

¹ Qarang. B.O'rabloev, A.Soliev. O'sha asar. 21 – bet.

² S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 99 – bet.

³ S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 101 – bet.

o'ldiriladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Tsitserondan 150 ta nutq, qolgan bo'lib shundan 58 tasi bizgacha etib kelgan.

Bular:

1. Falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar.
2. Notiqlik tarixi va nazariyasiga oid 7 ta risola.
3. Jami 800 tacha maktub

Tsitseronning hayoti, ijodi, falsafiy va adabiy qarashlari, notiqlik mahorati va bu sohadagi ta'limoti hozirgi kunda ham amaliy va nazariy ahamiyatga molikdir.¹

Tsitseron va Demosfen qadimgi notiqlarning eng buyuklari edi. Demosfen ko'proq o'zining siyosiy notiqligi bilan shuhrat topgan bo'lsa, Tsitseron sud notiqligi bilan tanildi. Albatta, Tsitseron nutqlari siyosiy jihatdan ham kuchli edi.²

Mark Fabiy Kvintilian. Rim notiqlik san'atining buyuk nazariyotchilaridan biri Kvintiliandir (35 yilda tug'ilib, 96 yilda vafot etgan). Uning «Notiq bilimi haqida» nomli asari mavjuddir. Kvintilian Tsitseron va boshqa Rim notiqlari fikriga qo'shilgan holda hamma notiq birinchi navbatda bilimli bo'lishi lozimligini aytadi. Shu bilan birga Kvintilian axloq printsiplarini olg'a suradi. U notiq axloqli, oljanob bo'lishi lozim, busiz hech qachon haqiqiy notiq darajasiga ko'tarila olmaydi, deb biladi.³

Topshiriq

Gomerning «Iliada» va «Odisseya» dostonlaridan notiqlik san'ati tasvirlangan asar qahramonlarining nutqlaridan namuna yozing.

Adabiyotlar

1. S.Inomxo'jaev Notiqlik san'ati asoslari. T. 1982.
2. B.O'rabloev, A.Soliev Notiqlik mahorati. T. 1984.
3. A.Alimuhamedov Antik adabiyot tarixi. T. 1969.
4. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T. 1992.
5. K.Nazarov, S.Usmonov, Q.Tohirov Yuristning nutq madaniyati. T. 2003.

¹ Qarang: S.Inomxo'jaev. O'sha asar. 104-106 – betlar.

² Qarang: B.O'rabloev, A.Soliev. O'sha asar. 22 – bet.

³ Qarang: B.O'rabloev, A.Soliev. O'sha asar. 24 – bet.

SHARQ MADANIYATI TARIXIDA NOTIQLIK SAN'ATINING O'RNI

S a v o l l a r

1. Va'z nima? Voiz deb kimgarga aytildi?
2. Sharq notiqligi haqida nimalar bilasiz?
3. o'arb notiqligi bilan Sharq notiqligining qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?
4. Sharqda notiqlik va nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullangan olimlardan kimlarni bilasiz?
5. Notiqlar qaysi jihatlari bilan voizlardan ajralib turadi?

Topshiriqlar

Quyidagi buyuk mutafakkirlarning notiqlik san'ati va nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan asarlari haqida ma'lumot toping.

Abu Nasr Forobiy. Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' ibn Tparxon Forobiy 872-873 - yillarda (260 hijriy yilda) Aris suvi Sirdaryoga quyiladigan erdag'i Forob degan joyda tug'ilgan. XIII - XIV asr tarixchilarining guvohlik berishicha Forob Shoshning (Toshkentning) shimolrog'ida joylashgan. Shuningdek, manbalarda Forob yaqinidagi Sutkant shahri haqida ham ma'lumotlar uchraydi.¹

Abu Nasr Forobiy ham IX - X asrlarda – iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda yashab ijod etdi. U ilmning turli sohalarini mukammal bilgan va ular haqida mustaqil fikrlar bayon qilgan buyuk allomadir. Nutq va aql tarbiyasiga oid ilmlar to'g'risida Forobiy qimmatli fikrlar aytgan.

Forobiyning aytishicha, mantiq shunday bir san'atki, kishi notiqlikdan adashib qoladigan bo'lsa, to'g'ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror xulosa chiqariladigan bo'lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o'z ichiga oladi. Uning aqlga munosabati grammatika san'atining tilga munosabati kabidir.¹

Abu Ali ibn Sino (980-1037). O'rta asr Sharqining buyuk allomalari orasida mashhur tabib, faylasuf, sho'ir Abu Ali ibn Sino alohida o'r'in tutadi. Uning turli sohalar bilan birga ta'lim – tarbiya, axloq va nutq haqida ham fikrlari mavjudki, ular bilan yaqindan tanishish notiqlik san'atini mukammal o'rganishga yordam beradi. Yaxshi do'st qaysi yo'l bilan axloqiy kamchiliklarni tuzatishda boshqalarga yordam berishi mumkinligi masalasiga ibn Sino alohida e'tibor beradi va notiq quyidagilarga amal qilishi lozim deb biladi:

¹ M.M.Xayrullaev. Forobiy. -T. 1991. 3-bet.

¹ Qarang: B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 25 – bet.

1. Nasihat (Nutq - B.O' va A.S) qo'pol ohangda berilishi kerak emas.
2. Suhbatdoshning ilm darajasini hisobga olish zarur.
3. Nasihatga (va'zxonlikka) ko'p berilmaslik kerak, uni o'rtoqlik suhbati tarzida olib borish kerak.
4. Nasihatni muloyim ohangda, yolg'iz olib borish kerak.
5. Agar ta'na qilmoqchi bo'lsang, boshqalar kamchiligi bilan qiyoslab ta'na qil.
6. Agar o'z e'tiqodingni aytmoqchi bo'lsang, faqat bir faktga tayanma, balki ko'p masalalar bilan isbotla, suhbatdoshingni buni yuragiga yaqin olishga, shu narsa haqida o'ylashga va haqiqatni izlashga ishontir.
7. Agar suhbatdoshing sening gaplaringga e'tibor bilan qulq solayotgan bo'lsa, suhbatni oxirigacha davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin uning e'tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur.²

Unsurulmaoliy Kaykovus. Unsurulmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashagan Gilon qabilasidandir. U 412 - hijriy, 1021-1022 - milodiy yilida mayda feudal oilasida tug'ildi. «Qobusnama»ni 475-hijriy, 1082-1083 milodiy yilida yaratdi. Bu haqda Kaykovus asarida: «Sana 475 da boshladim» - deb ma'lumot beradi. Bu davrda Kaykovus 63 yoshda bo'lib, anchagina keksayib qolgan edi, u o'g'liga: «Pisaram, man pir shudam» - deb o'zining qariganligidan ma'lumot beradi va o'z asari «Qobusnama»ni o'g'liga bag'ishlaydi.

«Qobusnama» 44 bobdan iborat bo'lib, bulardan to'rt bobi diniy xarakterdadir, qolgan 40 bobi hayotiy voqealarni ifoda etadi.

Kaykovus o'z asarida yoshlarning xulq - atvoriga alohida e'tibor berdi. Ularga insonparvar bo'lishni, xalqqa shirin muomala qilishni ta'kidladi. Shuningdek, do'st va dushmanga qanday munosabatda bo'lish kabi masalalarni ham asarida yoritdi.¹

Abu Rayxon Beruniy. Dunyo madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, fan tarixida juda katta iz qoldirgan qomusiy olimlarimizdan yana biri Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad al Beruniydir. Abu Rayhon Beruniy, U.I.Karimovning ta'kidlashicha, milodiy 973 – yilning 4 - sentyabrda (hijriy 362-yil zulhijja oyining 2 - kunida) Xorazmning qadimiy poytaxti Qiyatda tavallud topdi. 1009-1017 - yillarda Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma'mun ibn Ma'mun saroyida xizmat qilib, katta obro' - e'tibor qozongan. 1017 yilda Mahmud o'aznaviy Xorazmni bosib olgandan so'ng Xorazmdagi bir qancha olimlar qatori Beruniy ham o'aznaga yo'l olishga majbur bo'ldi va umrining oxiriga qadar shu erda ijod qildi.

U o'z davridagi barcha fan sohalari bo'yicha qalam tebratib, 150 dan ortiq asar qoldirdi. Bizgacha etib kelgan asarlari orasida «Xronologiya», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Mas'ud qonuni» hamda «Saydana» nomi bilan mashhur bo'lgan «Kitob as-saydana fi-t-tibb» asarlari tadqiqotchilar tomonidan

² Qarang: B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 27 – bet.

¹ Qarang: Kaykovus Qobusnama. 11, 21 - betlar.

maxsus o'rganildi va arab, rus, ingliz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilinib, nashr etildi.²

Mahmud Qoshg'ariy. Tilshunoslik tarixida Mahmud Qoshg'ariy salmoqli o'rIN egallaydi. U tilshunoslikning juda ko'p sohalari bo'yicha qalam tebratdi. Qiyosiy - tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist - fonolog, leksikolog, leksikograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

S.Mutalibov ta'kidlaganidek, Mahmud Qoshg'ariy yaratgan «Devonu lug'atit turk» asari faqat o'sha davr uchungina katta voqeа bo'lib qolmay, bugungi turkologiya fani uchun ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. U haqli ravishda turkologiya fanining asoschisi hisoblanadi.³

Mahmud Qoshg'ariyning hayoti haqida juda oz ma'lumotga egamiz. Uning to'liq ismi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn Muhammad-al-Qoshg'ariydir. Mahmud Qoshg'ariyning tug'ilgan yili aniq emas. Lekin «Devon»ning oxirida bu «kitob umrini oxiriga etkazganini» quyidagi misralarda bayon qiladi:

«Kuchandi bilagim, eg'udi tilagim,
Tilindi bilagim, tegrab angar jartilur».

Lug'at yozilganda muallifning keksayib qolganligini hisobga olsak, u XI asr boshlarida tug'ilgan deb hisoblash mumkin.¹

Mahmud Qoshg'ariyning turkiy tillarga bag'ishlangan ikkita asar yozganligi ma'lum. Ulardan biri «Javohirun nahv fil lug'atit turk» («Turkiy tillarning (sintaksisi) javohirlari» deb, ikkinchisi esa «Devonu lug'atit turk» («Turkiy so'zlar to'plami») deb ataladi.

Uning semasiologiya sohasidagi fikrlari ham juda qimmatli. U so'zlarning ma'nolarini izohlabgina qolmay, ma'no o'zgarishlari yuzasidan ham nozik kuzatishlar olib borganligi ma'lum. Ma'noning kengayishi, torayishi va ma'no ko'chish usullari bilan birga so'zlardagi omonimiya va sinonimiya hodisalari ham asarda tilga olinadi.

Mahmud Qoshg'ariyning boshqa tillardan so'z olish masalasidagi pozitsiyasi uni bizning davrimizga yaqinlashtiradi. Chunki Mahmud Qoshg'ariy turmushda ishlatiladigan asbob va boshqa narsalar, kiyimlar, ovqatlar, dorilar nomlari sifatida kirgan chet so'zlarni zarur va foydali deb hisoblagan, bunday so'zlarni o'z asariga kiritgan. Ammo ona tilida mavjud bo'lgan so'zlar o'rnida chet so'zlardan foydalanishni zararli deb hisoblagan. Masalan, o'g'uzlarning qumg'on so'zi o'rnida forscha oftoba so'zini ishlatishlarini u tanqid qiladi.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asari tarixiy dialektologiya uchun, ayniqsa, qimmatli material va fikrlar beradi. Bu materiallar o'zbek xalq tilining shakllanishini yoritish uchun juda ham muhimdir.²

«Devonu lug'atit turk»ning adabiy qimmati ham benihoya kattadir. Unda uch yuzga yaqin she'riy parcha va ko'plab maqol hamda hikmatli so'zlar bo'lib, shoir

² A.Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi. -T.: 2002. 13-14 bet.

³ Qarang. A.Nurmonov. O'sha asar, 26-28 – betlar.

¹ Qarang. A.Nurmonov. O'sha asar. 26-28 betlar.

² S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. -T. 1972. 50-52 betlar.

bunday she'riy parchalarga qisqa-qisqa sharhlar beradi, xalq maqollarining mohiyatini yoritib, ularning ishlatalish o'rmini ham ko'rsatadi.

Ardam boshi til³ – adab va fazilatning boshi til, deb ta'kidlaydi.

Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Uning to'liq ismi Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad (ba'zi manbalarda Ahmad) bo'lib, u hijriy 467 sana rajab oyining yigirma ettinchisida chorshanba kuni (milodiy hisobda 1075 - yilning 19 - martida) Xorazmning katta qishloqlaridan biri Zamahsharda tavallud topgan va shu boisdan ham az Zamaxshariy taxallusini olgan.¹

Az-Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat emasdi. Lekin o'z davrining savodli, ancha taqvodor, diyonatli kishisi bo'lган, aksar vaqtini Qur'oni karim tilovati va toat - ibodat bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. U xulq - atvori yaxshi, shirinsuxan va g'oyatda muruvvatli kishi bo'lib, bu fazilati bilan el orasida katta obro' - e'tibor topgan. Az - Zamaxshariyning onasi ham g'oyatda taqvodor va dindor ayollardan hisoblangan.²

Az-Zamaxshariy dastlabki bilimni ona yurti Zamahsharda o'z davrining o'qimishli kishilaridan sanalgan otasidan oladi. Uning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlardan yana shu narsa ma'lumki, uning bir oyog'i bo'lmay, yog'och oyoqda yurgan. Manbalarda cho'loqligining sabablari haqida ham turli - tuman rivoyatlar keltiriladi. Tarixchilardan ba'zilari, qahraton qishda sovuq olganligidan, deb yozsa, ayrimlari, bolaligida otdan yiqilgan deydi, yana boshqasi yoshligida bir nojo'ya ish qilib qo'yganligi uchun onasining qarg'ishiga uchragan, deb yozadi.³ Ammo yoshligidan ilmg'a havasmand Mahmud oldiniga Xorazmda – madrasada, keyinchalik Buxoroda hamda dong'i ketgan madrasalarda tahsil oladi.

Az-Zamaxshariy davrining buyuk olimi darajasiga ko'tarildi. U tilshunoslik, adabiyot, jo'g'rofiya, tafsir, hadis, fikh va ilmi alqiroatga oid ellikdan ortiq asarlar yaratdi. ularning ko'pi bizgacha etib kelgan.

³ N.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. -T. 1976. 107 – bet.

¹ Abu-l.Qosim Mahmud az Zamahshariy. Nozik iboralar, -T. 1992. 4-bet.

² Qarang: Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. O'sha asar. 5 – bet.

³ Abu-l Qosim Mahmud az-Zamaxshariy, O'sha asar. 6-bet.

Zamaxshariy hikmatlaridan namunalar:

- Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan.
- Men ro'zadorman deysan-u, ammo o'zing bo'lsa birodaring go'shtini eysan, (g'iybatlar va xo'rliklardan so'zlaysan).
- Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni pandu nasihating va mav'izayu hasanang) ba'zan qo'lingdan (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir.
- Ko'p so'z-iboralar borki, odamlarga ular fasohatli ko'rinsa-da, Allah nazdida ular nomaqbuldir – so'zlovchini ham, eshituvchini ham mulzam qilur.
- Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar.
- Vijdon azobiyu ta'nadan to'g'ri bo'limgan odamni (kimsani) ta'lim-tarbiya va qiyash ham to'g'rilashi amrimahol.
- Tiliyu dili to'g'ri va haqgo'y bo'lgan odamning xatoyu nuqsoni kam bo'lur.

O'z va'dasida turmaganda turli-tuman vaj karsonlar ko'rsatuvchi kimsa hech qachon mard va himmatli inson bo'lolmaydi.

- Aldamchilik va hiylakorlik bilan mashhur bo'lgan bursaq degan yirtqich xayvondan ham ko'ra ba'zi Bani odamlar ko'proq aldamchiroqdir.
- Tog' tepasidagi qoyalarni ko'chirish minnat eshitish yuklariga nisbatan engilroqdir.
- Biror masalada fikr - mulohaza qila boshlaganingda hech bir oshiqma, har tomonlama o'ylab, obdon fikrlab ish tutgin.
- Sidqidil va saxiy kimsaning qalbidan boshqa narsani sirlarning sandig'i qilma, ya'ni har bir uchragan kimsani sirdosh etmagin.
- Ey bo'tam, tilingni yomon so'zlardan saqla.
- Kimki baxt - iqbolli, solih kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murodu maqsadiga erishib, xayru baraka topar.¹

Yusuf Xos Hojib. Yusuf Xos Hojib XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobidir. Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim») dostonidir. Bu doston hijriy yil

¹ Abu-l Qosim az-Zamahshariy. O'sha asar. 48-77-etlar.

hisobi bilan 462- (milodiy 1069-70) yilda yozilgan. Muallif dostonning muqaddimasida yoshi ellikdan oshganini ta'kidlaydi. Shunga qarab Yusuf Xos Hojib XI asrning 20 – yillari arafasida tug'ilgan, deb ayta olamiz. Yusuf Xos Hojibning vatani – Balasog'un (Quz o'rda) XI-XII asrlarning yirik savdo-sotiqlari hamda madaniy markazlaridan biri edi. Bu shahar ikki marta qoraxoniylarning poytaxti ham bo'lgan edi.²

«Qutadg'u bilig»ning uch qo'lyozma nusxasi ma'lum. Bu nussxalar «Vena» (yoki «Hirot»), «Qohira» va «Namangan» nusxalari deb yuritiladi. Birinchi nusxasi XIX asrning 20 yillarda Istambulda topildi. – Hirot nusxasi. Ikkinci qo'lyozma nusxasi 1896 yilda Qohirada topildi. – Qohira nushasi, 1913 yilda Namanganda topildi – Namangan nusxasi.¹

«Qutadg'u bilig» jami Namangan nusxasida 6500 baytga 13000 misraga yaqin bo'lib, u 73 fasl-bobga bo'lingan. O'n bir bobi dostonning muqaddimasi bo'lib, asosiy qismi 12-bobdan, Kuntug'di degan hukmdorning ta'rifi bilan boshlanadi.² «Qutadg'u bilig» axloqiy - ta'limiy asardir. Uning axloq va odob masalalariga bag'ishlangan maxsus boblarigina emas, balki ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan maxsus boblarida ham Yusuf Xos Hojib o'z axloqiy - ta'limiy qarashlarini ifodalaydi. Xalqning turli tabaqalariga o'git beradi, ularga pand-nasihat qiladi. Uning axloqiy - ta'limiy fikrlari jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, madaniyat va ma'rifatni ravnaq toptirishga, oljanob insoniy xislatlarni targ'ib qilishga qaratilgan.

«Qutadg'u bilig» didaktik dostoni axloq va odobga doir qimmatli pand - nasihatlarni o'z ichiga oladi. Doston til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo'ylik va halollik kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar so'zlaydi, mayxo'rlik va mutakabbirlikni tanqid qiladi, kishining yurish – turishi, o'zini tutishi haqida o'git beradi. Bular dostonning butun mazmuni va mohiyatiga singdiriladi

«Qutadg'u bilig»ning bir necha bobi bevosita axloq va odob masalalariga bag'ishlangan. Shunday boblardan biri «Til ardam» («Til odobi») deb atalgan 7-bob bo'lib, unda shoir o'qish va bilim olishda tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so'zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli o'gitlar beradi:

Uqushqa biligka bu tilmachi til,
Yaruttachi arni yo'riq tilni bil.
Kishig til og'irlar bulur qut kishi,
Kishig til ujuzlar yarir ar bashi.
Til asrlan turur, ko'r eshikda yatur,
Aya avlug orsiq boshingni yatur.
Tilin emgamish er naku ter eshit,
Bu so'z ishka tutg'il o'zunga ish et.
Mani emgatur til ezi o'g talim,
Boshim kasmasuni kasayin tilim.
So'zungni ko'dazgil boshing bormasun,

² Bolasog'unning vayronalari Qirg'izistonning To'qmoq shahri yaqinida bo'lgan qadimgi Oqpeshin shahri o'rnida hozir ham bor. N.Mallaev. «O'zbek adabiyoti tarixi». -T. 1976. 111-bet.

¹ N.Mallaev, O'sha asar, 11-bet.

² N.Mallaev. O'sha asar, 116 – bet.

Tilingni ko'dazgil tishing sinmasun...
 Esanlik tilasa saning bu o'zung,
 Tilingda chiqarma yarog'siz so'zung.
 Bilib so'zlasa so'z biligka sonur,
 Biligsiz so'zi o'z boshini eyur.
 O'gush so'zda ortuq osig' ko'rmadim,
 Yana so'zlamishida osig' bulmadim.
 O'gush so'zlama so'z birar so'zla oz,
 Tuman so'z tugunin bu bir so'zda yoz.
 Sanga so'zladim man so'zum, ey o'g'ul,
 Sanga bardi bu pand o'zum, ey o'g'ul...¹
 Uquvga, bilimga tilmoch – bu til,
 Kishini ro'shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.
 Kishini til e'zozlaydi, kishi u tufayli baxtga
 erishadi,
 Kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi.
 Til hovlida (ya'ni qafasda) yotgan arslon kabidir,
 Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni eydi.
 Tili tufayli ozor topgan kishi nima deydi, eshit,
 Bu so'zga amal qilgin, o'z foydangga ishlat:
 Til meni juda ko'p kulfatlarga soladi,
 (U) boshimni kesmasin, (men) tilimni kesayin.
 So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,
 Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin...
 Sening o'zing esonlik tilasang,
 Tilingdan yarog'siz so'zingni chiqarma.
 Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi,
 Nodonning so'zi o'z boshini eydi.
 Ko'p so'zda ortiq foyda ko'rmadim,
 Yana (ko'p) so'zlashdan naf topmadim.
 So'zni ko'p so'zlama, bir oz ozroq so'zla.
 Tuman ming so'z tuguni (jumbog'i)ni shu bir so'zda ech.
 Men so'zimni senga so'zladim, ey o'g'il,
 Bu pandni o'zim senga berdim, ey o'g'il.

Yusuf Xos Hojib shoир sifatida badiiy so'zning qimmati va ta'sir kuchini alohida ta'kidlaydi, o'z so'zini ko'p o'rinda «shoir tilidan» (donishmandlar tilidan) so'zlaydi va yaxshi so'zni har qanday oltin-kumushdan ham ortiqroq biladi:

¹ N.Mallaev. O'sha asar, 128-bet.

Kumush qolsa oltun maning sanga,
Oni tutmag'il san bu, so'zga teng-a:
Kumush ishka tutsa tugar olqinur,
So'zim ishga tutsa kumush qizg'onur.

Mendan senga kumush, oltin qolsa,
U (lar)ni sen bu so'zga teng tutmagan.
Kumushni ishga solsang tugaydi, olqinadi,
So'zimni ishga tutsang, (sen uchun) kumush qozonadi.¹

Ahmad Yugnakiy. Ahmad Yugnakiy iste'dodli shoir va donishmand murabbiyidir. Undan saqlanib qolgan yagona adabiy meros «Hibatul - haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni»), badiiy so'z san'ati va adabiy tilning juda qimmatli hamda nodir yodgorligidir.²

Adib Ahmad Yugnakiyning shaxsiy hayoti va tug'ilib o'sgan eri haqida ma'lumotlar kam. Ayrim manbalarda adibning hayoti haqida berilgan ma'lumotlar to'liq emas.

«Hibatul - haqoyiq»ning kim tomonidan yozilgani, muallifning ismi, otasining ismi, uning qaerda yashagani, boshqa adiblarga nisbatan tutgan mavqeい, jismoniy zaifligi haqida asarda qisqacha ma'lumotlar mavjud:

Adib Ahmad otim, adab, pand so'zim,
So'zum munda qolur, borur bu o'zum.

Otim – adib Ahmad, so'zim-pand-nasihat, adab berishdan iborat, so'zim esa bu dunyoda qolib, o'zim u dunyoga ketaman.³

Shoirning otasi Mahmud Yugnakiy ekanligini shaxsan o'zi aytib o'tishi Ahmad Yugnakiy chindan ham Yugnak degan shaharda tug'ilib o'sganligi va u erda ijod etganligiga hech qanday shubha qoldirmaydi. Bundan tashqari Alisher Navoiy «Nasoyimul - muhabbat» degan asarida adib Ahmad Yugnakiy haqida ma'lumot beradi.

«Hibatul-haqoyiq»ning 1480 yilda ko'chirilgan nusxasi 235 bayt, 11 bobdan tashkil topgan.⁴ (Asar nusxalari haqida turlicha ma'lumotlar bor).⁵

Asarning beshinchi bobi (40-62 - baytlar) bilim maqtovi va johillikning zarariga, oltinchi bobi (63-86-baytlar) til odobiga bag'ishlangan.

«Hibatul - haqoyiq» didaktik doston bo'lib, axloq- odob masalalari undagi ko'pchilik boblarning tematik asosini tashkil etadi. Shoir til odobi, saxiylik, baxillik, kamtarlik, ezgulik va boshqalar haqida xuddi Yusuf Xos Hojib kabi zamonasining peshqadam murabbiysi sifatida fikr yuritib, kishilarga o'git beradi.

¹ N.Mallaev. O'sha asar. 128–129 - betlar.

² N.Mallaev. O'sha asar, 138-bet.

³ N.Mallaev. O'sha asar, 139-bet.

⁴ .Qarang: N.Mallaev. O'sha asar, 140-bet.

⁵ Qarang: Ahmad Yugnakiy Hibotul - haqoyiq. T. 1971. 10-11 betlar.

Rost, sog'lom va mazmunli so'zlashni, kerak bo'lganda, sir saqlay olishni maqtab, laqmalik, yolg'on so'zlash va sergaplikni qoralagan shoir tilni tiyish odobning boshi deydi:

Eshitgil, biliklik naku teb ayur:
Adablar bashi til kutazmak turur.
Tiling bakta tutg'il, tishing sinmasun,
Qoli chiqsa bakta tishingni siyur.
Sonip so'zlagan er so'zi so'z sog'i;
O'kush yangshagan til ey olmas yog'i.
So'zung bo'shlug' esma yig'a tut tiling,
Etar boshqa bir kun bu til bo'shlug'i.
Xiradliqmu, bo'lur tili bo'sh kishi?
Tilim boshni edi bu til, so'z bo'shi...
Iki neng biriksa bir erda qoli,
Bukandi ul erga muruvvat yo'li:
Bir ul yangshir ersa keraksiz so'zin,
Ikinch yalg'on ersa ul arning tili...

(Eshitgil, olimlar nima deb ayturlar: adablarning boshi til saqlashdir. Tilingni tiy, toki tishingni sindirmasin, agar tilingni tiymasang, tishing sinadi. Er kishi ehtiyot bilan sog'lom so'zlaydi, ko'p gapirgan laqma til ayovsiz dushmandir. Bekor so'z so'zlashdan saqlan, tilning bo'shlig'i bir kuni boshga etadi. Tili bo'sh odam aqlli bo'larmidi? Bu tilning bo'shligi kishi boshini eydi... Agar kishida ikki narsa biriksa: u o'rinsiz so'zlar bilan laqmalik qilsa, ikkinchidan, uning so'zları yolg'on bo'lsa, u kishi uchun muruvvat yo'llari bekiladi...)¹

Shoir kishilarni birovni achchiq va yomon so'zlar bilan ranjitmaslikka chaqirib, tilning yarasi bitmas yaradir deydi:

O'chukturma erni tilin, bil, bu til
Bashaqtursa, butmas, butar o'q boshi.

(Tiling bilan o'ch hissini qo'zg'ama, bil, o'q yarasi bitib ketadi-yu, lekin til yarasi bitmaydi).

Shoir dostonning to'rtinchi bobida saxiylik va baxillik haqida so'zlab, himmat va saxiylikni baxillik va ziqnalikka qarama - qarshi qo'yadi, bu masalalarga doir pandomiz mulOhazalarini qisman bo'lsa - da, boshqa boblarga ham singdiradi, badiiy til vositalaridan, xususan, o'xshatishlardan va xalq maqollari hamda ta'birlaridan foydalanadi.

Axi arni o'ggil o'gar ersa san,
Baxilga qatig' yo o'qun kizlagil.

¹ Qarang: Ahmad Yughnakiy. O'sha asar. 10 - 11–betlar.

(Maqtamoqchi bo'lsang, saxiyarlarni maqta, baxillarga o'q-yoyni to'g'rila).¹

Alisher Navoiy.

Alisher Navoiy 1441 - yil 9 - fevralda Hirot shahrida tug'ildi.

Sharq madaniyatining salmoqli zarvaraqlarini tashkil etuvchi notiqlik san'ati tarixiga oid talaygina manbalar bor bo'lsa-da, ulardan hech biri Alisher Navoiy qoldirgan meros kabi qimmatli va boy emas.

Navoiy o'z davrining buyuk mutafakkiri, so'z ustasi bo'lism bilan birga, kishilarga yaxshi so'z bilan ta'sir eta bilish san'atini juda qadrlovchi, ulug'lovchi, bunday san'at ustalariga e'tibor qilib, ehtirom ko'rsatuvchi bir shaxs edi.

«Haq yo'lida kim sanga bir xarf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila», --

deb har bir kishini bilimli bo'lib etishishiga sababchi bo'lgan ustozini e'zozlashga da'vat etgan. Navoiy omma o'rtasida yaxshi nutqning ta'siri va tarbiyasini ham chuqur his etadi. Navoiy notiqlikdagi yaxshi va yomon tomonlarni ko'ra bilish va ularni farqlay olishga chaqiradi. Navoiy notiqlik san'atining buyuk qudratiga alohida e'tibor beradi. U «Mahbub ul - qulub» nomli falsafiy asarining 24-faslini «Nasihat ahli va voizlar zikrida» deb aytadi. Bunda voizlik san'atiga, va'zga, voizga o'z munosabatini bildiradi. Navoiyning fikricha, voiz quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Voizning so'zlari ta'sirchan va foydali bo'lmg'i lozim. Voiz kerakki «qolalloh» so'z aytsa.
2. Nutq tinglovchi uchun yangilik bilimlar va o'zgarishlar xabarchisi bo'lmg'i lozim. «Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur».
3. Notiqning o'zi biror sohani egallagan bo'lishi va undan so'ng va'z orqali kishilarga ta'sir etishi lozim.
4. Notiq olim va bilimdon har narsadan xabardor kishidur. «Voizkim, bo'lg'ay olim va muttaqiy-aning nasihatidin chiqqan shaqiy».
5. Notiqning so'zi bilan ishi bir bo'lmg'i lozim. Aks holda nutqning ta'siri bo'lmaydi. «Ulki buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay».

Alisher Navoiy notiqlikda qisqalik va ravshanlikni yoqtiradi. Bu jihatdan uning «Mahbub-ul qulub» asaridagi 60 - tanbehi o'rinnlidir. «Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar. Ko'p deguvchi mumil, muqarrar deguvchi loya'qil» (ya'ni: Chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'ladi. Ko'p so'zlovchi zeriktiruvchi, qayta gapiradigan - aqldan ozgan), - deydi. U tuturuqsiz gap bilan kishilarning g'ashiga teguvchilarni aqli

¹ N.M.Mallaev. O'sha asar. 143-bet.

past, nosog'lom kishilardir, deb baholaydi. «Ulkim, dimog'ida habt - so'zida yo'q rabt (kimning dimog'ida illat bo'lsa, so'zida bog'lanish yo'q).¹

Dimog'i sahih - guftori fasih (miya sog'lom bo'lsa, gap-so'z ham yoqimi va xatosiz bo'lur). So'zi hisobsiz-o'zi ixtisobsiz (boshvoqsiz). So'zida parishonlik, o'zida pushaymonlik).²

Navoiy voizlik san'atida nom qozongan-Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Xusayn Voiz Koshifiy, Mavlono Muin Voizlar haqida o'zining «Majolisun nafois» nomli tazkirasida fikr bildirgan.

Hoja Muayyad Mehnagiy

Alisher Navoiy qadrlagan voizlardan biri – Xoja Muayyad Mehnagiy mashhurgina emas, balki notiq, donishmand, yuksak bilim egasi bo'lган, mavjud bilimlarni o'rganib qolmasdan, ularni takomillashtirgan, to'lдirgan. U mozorda shayxlik qilsa - da, o'zini xalqqa juda yaqin tutgan va o'z bilimini ularga berishga intilgan: «va'z majolisi bag'oyat garm va pursho'r voqe' bo'lur erdi».³

Xo'ja Mehnagiy muvaffaqiyatlari va mahoratining kaliti bilim doirasining keng, mazmunan chuqur ekanligida edi. Navoiy iborasi bilan aytsak, u «zohir ulumin» bo'lган, ya'ni o'sha davrda ajdodlarimiz to'plagan bilimlarning deyarli hammasini puxta o'zlashtirgan, buning ustiga ularni boyitgan ham.

Mehnagiy o'z davrining zo'r suxandonlaridan biri, hokisor shayx bo'lighiga qaramay, benazir donishmandligi, zo'r voizlik zakovati tufayli hatto toj-taxt, arkonı davlat a'yonlarini ham ta'zim qildira oladigan notiq edi.⁴

Mavlono Riyoziy

Alisher Navoiyning yozishicha: «Va'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qur, yig'lab vajdi hol qilur». Ko'rindiki, Riyoziy nutq so'zlaganda, uning ta'sirchanligini ta'minlashda, ijrochilikni birinchi o'ringa qo'yadi. Kerak bo'lganda, o'z nutqini kishilar qalbiga yaqin olib, ular bilan birdamlikni, qayg'usiga, iztirobiga sheriklikni bildirish maqsadida yig'lashgacha borib etadiki, bu nutq ijrochiligidagi ulkan qobilyatdan dalolat beradi.

Mavlono Riyoziyning xalqqa yaqinligini, nutqining ta'sirchan va emotSIONalligini ta'minlashda, uning ijtimoiy kelib chiqishi va ahvoli ham muhim rol o'ynaganligi ko'zga tashlanadi. Riyoziy avval Zova viloyatida qozi bo'ladi.¹

Xulosa shuki, boy ilm sohibi, hayot - mamot uchun ayovsiz kurash olovida toblangan va voizlik san'atida shuhrat qozongan Riyoziy o'zining darbadar, xokisor qismati bilangina emas, balki g'oyaviy ezgu amallari, ijrochilik uslublari, murabbiylik mahorati bilan ham zamondoshlari orasida yaqqol ajralib turgan. Taxallusidan ham, sezilib turibdiki, u uzlusiz riyozot chekkan, ammo mashaqqatli mehnati, mardonavor jasorati va benazir voizlik mahorati, ma'rifatparvarligi tufayli o'ziga mangu haykal o'rnatib ketgan suxandondir.²

¹ B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 31-bet.

² B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 32-bet.

³ Qarang. B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar. 32-bet.

⁴ A.Ortiqov, A.Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. -T.: 2002. 18-bet.

¹ B.O'rboev, A.Soliev. O'sha asar, 32-bet.

² A.Ortiqov, A.Ortiqov. O'sha asar. 19-bet.

Husayn Voiz Koshifiy

Husayn Voiz Koshifiy sabzavorlik bo'lib, tug'ilgan yili noma'lum. 1604-1605-yillarda vafot etgan. Husayn Voiz Koshifiy voiz sifatida o'z davrida eng mashhur kishilardan bo'lishi bilan birga o'z davrining zabardast olimi, astronomi, shoiri ham edi. Eron olimi Said Nafisiy Koshifiyning 40 ta asari borligini aytadi. Navoiyning e'tirof qilishicha, Husayn Voizning «Oz fan bo'lg'aykim, dahli bo'limg'ay, xususan, va'z, insho (nasriy she'r usulida yoziladigan xat) va nujumki (yulduzshunoslik, astronomiya), aning haqqidur va har qaysisida mutaayyin (ko'zga ko'rinarli) va mashhur ishlari bor...». Uning nutqlari jo'shqin va ehtirosli bo'lganligidan kishilarni ko'plab jalg'eb etar edi.

Husayn Voiz nutqlarining ta'sirchanligi, jozibadorligi haqida eslab, uning o'g'li Faxriddin Ali Safiy «Latoyifut tavoyif» nomli asarida shunday voqeani keltiradi:

Kunlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayid-o'iyosiddin degan mashhur so'z ustasi kechikib kelgan. Shu majlisda Abdurahmon Jomiy ham bor ekan. Sayid o'iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so'rabdi:

-- Nechuk kechikdingiz, Mavlono o'iyosiddin?

-- Meni ma'zur tuting, ustod, - debdi o'iyosiddin, - kelayotgan edim, masjidi jome'da Husayn Voiz nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib qolibman.

Koshifiyning nutqlari o'zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalg'eb qila olgan. Aytishlaricha, uning bunday so'z san'atidagi mahoratini Alisher Navoiy bilan birga Sulton Husayn Boyqaro ham yuksak baholagan va ular o'z asarlarini aholi o'rtasida rasmiy ijro etish lozim bo'lgan paytlarda, bu ishga Husayn Voizni munosib ko'rganlar.

Husayn Voiz Kashofiyning nutqlari mazmundorligi, ta'sirchanligi, o'ziga jalg'eb etish quvvatini mujassam etganligi, uning texnikasini o'rganish hozirgi davr notiqligi uchun ham xarakterlidir.¹

Mavlono Muin Voiz

Alisher Navoiy davridagi mashhur notiqlardan biri. U haqda Navoiy: «Holo o'zi dag'i azim voizdurur va muridlari ko'p» - deb yozadi. Ko'rindiki, Muin Voiz notiqqina bo'lib qolmay, o'zining notiqlik matabiga, shogirdlariga ham ega bo'lgan. Uning nutq, ijrochilik mahoratini tahlil etib, Navoiy: «Minbar ustida devanovor ilk tashlamog'i va taxtani tepmog'i ko'pdur va o'zin «Muin devona» bila ta'bir qilur va ko'p baland va past so'zlar aytur. Chun junung'a mu'tarif, har nav so'z aytса mazurdur...» - deb yozadi.

Bundan anglashiladiki, Muin Voiz nutqning ijrochilik tomoniga alohida e'tibor qilgan va butun hatti-harakatlarini, imo-ishoralarini ishga sola bilganki, garchi u o'zini «Muin devona» deb e'lon qilgan bo'lsada, uning «devona sifat» gaplari xalq diliga yaqin bo'lganligidan yig'ilganlarga manzur bo'lgan.

U har qanday mansabdan voizlikni a'lo bilgan va o'z akasi Mavlono Nizomiddin unga Hirot shahri qozilagini ikki marta tavsiya etsa-da, uni rad etgan. Shu tufayli, uning akasi: «Muini mo qobilyati bis'yor dosht, ni zinapoyai cho'bin o'ro

¹ Qarang: B.O'rınboev, A.Soliev. O'sha asar. 1984. 34-bet.

zoe' soxt» (Muinimizning qobilyati ko'p edi, uni bu yog'och zinapoya (minbar) ishdan chiqardi), deganligini Navoiy qayd etadi.²

Voizlik san'ati O'rta Osiyo xalqlarining, xususan, o'zbek millatining ma'naviyati tarixida zarhal harflar bilan yozilishiga arzigulik sahifalarni bizga meros qilib qoldirgan.

Adabiyotlar

1. A.Ortiqov, A.Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. T.: 2002.
2. A.Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi. T.: 2002.
3. Az - Zamashariy. Nozik iboralar. T.: 1992.
4. Ahmad Yugnakiy. Hibatul - haqoyiq. T.: 1971.
5. B.O'rabloev, A.Soliev. Notiqlik mahorati. T.: 1984.
6. M.M.Xayrullaev. Forobiy. T.: 1991.
7. N.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: 1976.
8. S.Inomxo'jaev. Notiqlik san'ati asoslari. T.: 1982.
9. S.Usmonov. Umumiyl tilshunoslik. T.: 1972.
- 10.T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T.: 1993.
11. R.Qo'ng'uров, E.Begmatov, Yo.Tojiev. Nutq madaniyati va uslubiyati va uslubiyat asoslari. T.: 1992.
12. U.Tursunov, B.O'rabloev, A.Aliev O'zbek adabiy tili tarixi. T.: 1995.

² Qarang: B.O'rabloev, A.Soliev. O'sha asar. 1984. 35-bet.

XALQ OG'ZAKI IJODIDA NUTQ ODOBI MASALALARI

Savollar

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi nima uchun xalq qadriyatlarining tarbiyaviy qismi hisoblanadi?
2. Miflar nima?
3. Maqollar va matallar o'rtasidagi farq nimada?
4. Topishmoqlar boshqa janrlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlandi?
5. Afsonalar qanday xususiyatlari bilan miflardan farqlanadi?
6. Latifa va loflarning umumiy xususiyati nimadan iborat?
7. Ertaklar boshqa janrlardan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
8. Xalq qo'shiqlarining qanday ko'rinishlari bor?
9. Nima uchun askiya faqat o'zbek xalq og'zaki ijodiga xos janr hisoblanadi?
10. Dostonchilik an'analari haqida nimalar bilasiz?

Topshiriqlar

1. O'rta Osiyoda yashaydigan xalqlarning o'tmish hayoti bilan bog'liq miflar haqida yozing.
2. «Xalq maqollarini bilaman» mavzuida ijodiy musobaqaga tayyorlaning (yozma tarzda, masalalarni izohlang).
3. Topishmoqlar aytish va ularni topish bo'yicha musobaqaga tayyorlaning (yozma tarzda).
4. Mustaqil ravishda afsona va rivoyatlar yozib oling va tahlil qiling.
5. Afandi obrazi uchraydigan latifalardan yozib keling.
6. «Ertaklarda nutq odobi masalasi» mavzusida yozma ish yozing.
7. Allalardan yod olish.
8. Askiyada nutq madaniyati mavzusida yozma ish yozing.
9. Dostonlardan parchalar yodlang.
10. Marosim qo'shiqlaridan namunalar keltiring (yozing).

Xalq og'zaki ijodidan namunalar (majmua)

Maqollar

1. Aytar so'zni ayt,
Aytmas so'zdan qayt.
2. Haq so'zga o'lim yo'q.
3. Oz so'z – soz so'z.
4. Tilni bilish – dilni bilish.
5. Notiq mahmadona bo'lsa, majlisning burdi ketar.
6. Tildan qoqlishdan ko'ra, oyoqdan qoqlish afzal.
7. Gapning tagini gap ochar.
8. Befoyda so'zni aytma, foydali so'zdan qaytma.
9. Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi.
10. Aytilgan so'z otilgan o'q.
11. Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til.
12. Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla.
13. Ko'p bilgan oz so'zlar, oz bo'lsa ham soz so'zlar.
14. Qilichning zahri ketsa ham, so'zning zahri ketmas.
15. Otalar so'zi – aqlning ko'zi.

Topishmoqlar

1. Zarga sotilmas, zo'rga topilmas. (vaqt)
2. Otlari har xil, yoshlari bir xil. (hafta kunlari)
3. Temir qo'rg'on ichida Qizil toychoq o'ynaydi. (Til)
4. Bir nafasda olamni kezar. (fikr)
5. Yugurgandan o'tadi,
Bir vaqtda etadi,
O'q emas, otiladi,
Qush emas, uchadi (fikr).
6. Uzoqning u yog'inda,
Yaqinning bu yog'inda.
Ko'rinas ko'zga,
Tinch bermas bizga (hayol).
7. Asaldan shirin,
Zahardan achchiq (so'z, gap).
8. Birovni suydirar,
Birovni kuydirar (so'z, gap)
9. Og'zimni ochdim, uchdi ketdi,
Samarqandu Buxor borib etdi (so'z, gap).
10. Og'izdan chiqqancha meniki,
Og'izdan chiqqani elniki (so'z, gap).
11. O't emas, kuydirar,
Pichoq emas, so'ydirar (yolg'on so'z).
12. Kim suyaldi,
O'sha uyaldi (yolg'on so'z).
13. Tinmas bitta
Tinglar mingta (radio).
14. Katta quti, ko'zi bor,
Ko'p tomosha, so'zi bor (televizor).
15. Asal emas, yoqadi

Ari emas, chaqadi *(gap, so'z).*

16. Jo'shib kuylar akasi
Raqsga tushar ukasi *(shamol, o'simlik).*

Hazil so'roqlar va so'z o'yini.

1. Nima hamma tilda ham gapiradi? *(aks sado).*
2. Odamzodda nima ko'p? *(umid, reja).*
3. Dunyoda nima chaqqon? *(fikr).*
4. Dunyoda nima yugurik? *(fikr).*
5. Dunyoda nima qimmat? *(rostlik).*
6. Dunyoda nima ko'rinxaydi? *(sevgi).*
7. Yumuq ko'z bilan nimani ko'rish mumkin? *(tush).*
8. Qaysi joyda osmon past bo'ladi? *(suvda).*
9. Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi? *(quruq tosh).*
10. Dunyoda bir narsa borki, u bo'lmasa hech kim bir - birini tanimaydi, u nima? *(ism)*
11. Yuki bo'lsa yuradi,
yuksiz to'xtaydi. *(osma soat).*
12. Yomg'ir yog'ib turganda, qarg'a
qanday daraxtga qo'nadi? *(ho'l daraxtga).*
13. Qora mushuk qay vaqt uyg'a
osongina kira oladi? *(eshik ochiq bo'lsa).*
14. Bir oilada cholu kampir yashaydi.
Ularning ikki o'g'li bor.
Har bir o'g'lining bittadan singlisi bor.
Shu oilada nechta jon bor?
(5 ta: cholu kampir, ikki o'g'il, bir qiz)

15. Anhor bo'yida uch qarag'ay o'sadi. Ularning har birida uchtadan yo'g'on shoxi bor, har bir yo'g'on shoxida beshtadan novda bor. Har bir novdada etti donadan olma bo'lsa, hammasi bo'lib nechta dona olma bor?

(*bitta ham olma yo'q, qarag'ayda olma bo'lmaydi*)

R I V O Y A T

O'tmishda ovi yursa ham dovi yurmay, tobora kambag'allashib borayotgan bir dehqon yo'l chetida o'ylanib tursa, faqirgina yo'lovchi o'tib qolibdi. Shunda dehqon:

-- Ey donishmand, nima eksam, men boyib ketaman? – deb maslahat so'rabdi.

Yo'lovchi unga piyoz ekishni tavsiya etibdi. Qarangki, notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib ketibdi. Shodligidan bosar-tusarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchranganida:

-- Ey gado, nima eksam, men yanada boyib ketaman? – deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi.

Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida davom etibdi. Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag'allashib ketibdi.

Bundan g'oyatda g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, u notanish yo'lovchi bilan duch kelibdi va :

-- Ey notavon yo'lovchi, nega meni aldading? Sening gapingga kirib, yanada boyish o'rniga butkul kambag'allashib ketdim-ku?, – deb g'azab qilibdi.

-- O'zingni bos, - debdi yo'lovchi. – Birinchi yili sen menga «donishmand» deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar esa menga «gado» so'zini munosib ko'rning va men senga gadoning javobini berdim, - degan ekan...¹

«E to'nim, e...» afandi.

«Afandi bir kuni to'yga borgan edi, usti-boshi eski bo'lganligi uchun unga hech kim e'tibor bermadi. U to'yxonadan tezda chiqib, bir oshnasining kiyimlarini kiyib, yana qaytib keldi. Afandini izzat-ikrom bilan to'rga o'tkazdilar, oldiga turli-tuman noz-ne'matlar keltirib qo'ydilar. Bu ahvolni ko'rgan Afandi ustidagi to'nga qarab:

-- Bu ovqatlardan e, to'nim, e!, – deydi.

Ajablangan odamlar buning sababini so'raganlarida u:

-- Madomiki, butun hurmat, ehtirom yangi to'nga ekan, taomni ham u esinda, - deb javob beribdi».²

«Luqmoni hakim yo'lda borayotsalar, bir uydan nola eshitilibdi. Kirsalar, xasta odam og'riqqa chidayolmay dod der emish. Tabiblar kelib, uni bugun-erta o'ladi,

¹ Qarang. Siddiq Mo'min. So'zlashishi san'ati. Farg'ona. 1997. 60-bet.

² Siddiq Mo'min. O'sha asar. 81-bet.

deyishibdi ekan. Luqmoni hakim xastaning bilak tomirini ushlab ko'rib debdilarki: «Dardingizga davo bor. Ilon zahri sizga shifo bergay». Xasta debdiki: «Ilon zahrini men qanday topay? Bir bedavo bo'lsam... Yo meni shu ahvolda tashlab ketaverasizmi? Olloh mening zorimni eshitib, Luqmoni hakimga ro'baro qilganida edi, u zot meni tashlamas edilar». Luqmoni hakim bu nolani tinglab, aytibdilarki: - «Zinhor tashlamasman». Xullas, hazrat Luqmoni hakim ilonzorga borib, bir yoshroq ilonni bo'g'zidan bo'g'ib turibdilar. Shunda ilon ittifoqo tilga kiribdi va debdiki: «Ey inson farzandi, sen nechun meni bo'g'ayotirsan? Ollohning menga bergen jabrlari kammi edi?». «Olloh senga qanday jabrlar qildi?», deb so'rabdilar Luqmoni hakim. «Meni ko'rmsiz qilib yaratdi, odamlar ko'rsalar mendan qochadilar. Meni ertuban qilib qo'ydi, sudralib yurishga mahkum etdi. Endi sen meni bo'g'ib, jonimni olarsanmi?». Luqmoni hakim debdilar: «Shunday qilmasam bir odam hayotdan ko'z yumar». Ilon debdi: «Ajab! U odamni saqlab qolmoq uchun meni o'ldirasammi? Axir u ham Ollohning bir mahluqi, men ham. Bir jonne saqlamoq uchun ikkinchisini mahv etmoq shartmi? Ey inson bolasi, sen ayt: men birovni chaqsam, mening zahrimni daf eta olasanmi?» Luqmoni hakim aytibdilar: «ha, daf eta olaman». Ilon debdi: «Unda mening zahrim kuchli emas ekan. Dunyoda shunday zahar borki, sen uni zinhor daf eta olmassan!». «Qanday zahar?. Qora qurnikimi?», - debdilar Luqmoni hakim. «E, yo'q, -- debdi ilon. – Dunyoda eng kuchli zahar – odamning zahri. Bunga davo yo'qtur. Odam odamni chaqsa, albatta, o'lim haqdir! Olloh biz – ilonlarni tuban qilib yaratdi. Ammo biz bir-birimizni chaqmaymiz. Siz – odam bolalarini yuqori qilib yaratdi, siz bir-biringizni chaqib o'ldirasiz. Sen saqlab qolmoqchi bo'layotgan xastaga mening zahrim davo emas, yanglishma. Uni o'z do'sti chaqqan. Uning zahriga davo topa olmassan. Bunga xatto Luqmoni hakim ham davo topmagay. Qo'y, u o'laversin, azoblaridan qutula qolsin...»¹

¹ T.Malik Shaytanat III kitob 315-bet.

MEHR BAYTLARI

(Allalardan namunalar)

Tog'lardagi shunqorim-a, alla,
Bog'imdag'i bulbulim-a, alla,
Beshikdagi qoplonim-a, alla,
Qo'limdag'i botirim-a, alla.

Ulg'ayib o'sa, alla,
Ko'kdagi yulduzim-a alla,
Belginamning quvvati-ya, alla.
Ko'zginamning gavhari-ya, alla.

Alla aytib yurayin-a, alla.
Qo'zichog'im bolam-a, alla,
Katta bo'lib jonim-a, alla,
Vatanga sodiq bo'l-a, alla.

Ko'zimning nuri-ya, alla,
Mehr-oqibatli bo'l-a, alla.

* * *

To'yib - to'yib o'pay seni,
Shirin do'mbog'im, alla.
Quchog'imda yashab turgan,
Mash'al chirog'im, alla.
Erka o'g'lim katta bo'lgin,
Qo'riqchi bo'lgin, alla.
Boshga kelgan balolarni,
Yo'q qilib turgin, alla.

Alla-alla aytayin, alla,
Ustingga to'nim yopayin, alla,
Bu g'ariblik hasratin, alla,
Kimlarga borib aytayin, alla.

Uxla, erkam, ol orom,
Alla-alla jon bolam, alla.
Mendan surriyod, mendan nom,
Bog'da ochilgan lolam, alla.

Senga qo'ydim yaxshi ot, alla,
Yaxshi niyatdur murod, alla,
Yurtu elga suyansang, alla.

Senga bo'lg'usi qanot, alla,

Osmonda uchgan qushlar, alla,
Sekin chiqar tovushlar, alla,
Meni solma qayg'uga, alla,
Bolam to'yсин uyquga, alla.

Boshingda o'ltiraman,
Alla aytib tun bo'yi, alla.
Yuragimni payvand qilay,
Senga jonim shu ko'yi, alla.

Alla desam bor bo'lgin, alla,
Menga nomus-or bo'lgin, alla,
Katta bo'lgan chog'ingda, alla,
Xalqqa vafodor bo'lgin, alla.

Ulg'ay bolam, gul Vatan, alla,
Botir bo'lib o'sgil qo'zim, alla,
Seni ko'rib bu chamanda, alla,
Yayray-quvonay, yulduzim, alla.

Alla aytay jonim bolam,
Uxlab qolgin-a, alla...
Beshiklarda rohatlanib,
Orom olgin, alla...

Uylarimni yorituvchi,
Yorug' yulduzim, alla-yo...
Dillarimni ravshan qilgin,
Ravshan chirog'im, alla...

Arslon bilakli, sher yurakli,
Qoplonginam bo'lgin-a, alla,
Katta bo'lib Vataningga,
Sodiq bo'lgina, alla...¹

¹ Qarang: Tafakkur chechaklari (O'zbek xalq qo'shiqlari). –T. 1992.

Adabiyotlar

1. Aql aqldan quvvat oladi. Hikmatli so'zlar. T.: 1967.
2. Ipak yo'li afsonalari. T.: 1993.
3. Mahmud Sattor. O'zbekning gapi qiziq. T.: 1994.
4. M.Abdurahmonov. O'zbek topishmoqlari. T.: 1991
5. N.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: 1976.
6. O.Madaev, T.Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. T. 2001.
7. Oz – oz o'rganib dono bo'lur. T.: 1998.
8. S.Mo'min. So'zlashish san'ati. Farg'ona. 1997.
9. T.Malik. Shaytanat. I-II-III-IV kitob. T.: 1997.
10. Tafakkur chechaklari. O'zbek xalq qo'shiqlari. T.: 1992.
11. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Ma'nolar mahzani. T.: 2001.

Kaykovusning «Qobusnomा» asaridagi suxandonlik xususida

Savollar

1. Sharq allomalarining axloqiy - tarbiyaviy asarlaridan qaysilarini bilasiz?
2. Kaykovus qachon va qaerda tug'ilgan?
3. «Qobusnomा» qachon yozilgan?
4. Kaykovus «Qobusnomा»ni kimga bag'ishlab yozgan?
5. «Qobusnomা» qaysi tillarga va kimlar tomonidan tarjima qilingan?
6. «Qobusnomা» necha bobdan iborat va unda qanday voqealar beriladi?
7. Asarda kishilar necha toifaga ajratilgan?
8. So'zlar necha toifaga ajratilgan?

Topshiriqlar

1. «Qobusnomা»ni sinchiklab o'qib chiqing.
2. Hayotdan «to'rt nav so'zlarga» misol yozing.
3. «Xaloyiq ham to'rt nav»iga hayotdan misol yozing.
4. Asarning ettinchi bobini sinchiklab o'qing va gapirib bering.
5. Badiiy adabiyotlardagi nutq odobi haqidagi hikoyalardan ko'chirib yozing.
6. Asarning ettinchi bobidagi hikoyalarni ko'chirib yozing.

Kaykovus «Qobusnama». Kaykovus qalamiga mansub «Qobusnama» asari sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Asardagi mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlar uni yanada jozibali, o'kishli bo'lishini ta'minlagan.

XI asrning 82-83 – yillarda o'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab «Nasihatnama»sini yaratadi va o'sha davr an'anasiga ko'ra uni bobosi podshoh Shamsulmaoliy Qobus sharafiga «Qobusnama» deb ataydi.

«Qobusnama» asrlar mobaynida o'arb va Sharq mutafakkirlarining e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. Olimlar «Qobusnama»ni diqqat bilan o'rgandilar va o'z tillariga tarjima qildilar. Masalan: 1702-1705 - yillarda turk tiliga, 1786-1787 - yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan tatar tiliga tarjima qilinadi.

Bundan tashqari 1886 - yilda rus tiliga, shu yili frantsuz tiliga, 1811 – yilda nemis tiliga, E,E,Bertels tomonidan 1953 - yilda ikkinchi marta rus tiliga tarjima qilinadi. Demak, XIX asrdanoq asar ingliz, farang, olmon, rus tillariga tarjima qilinadi. 1935 - yilda Tehronda Said Nafisiy tomonidan bosmadan chiqarildi.

1860 - yilda «Qobusnama» ilk bor o'zbek tiliga buyuk shoir va mutaffakir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilindi. Ogahiy tarjimalari ichida «Qobusnama» alohida o'rinnidan birini egallaydi. Bu nodir asar 1965 - 1973 va 1986 - yillarda adabiyotshunos olim Subutoy Dolimovning katta sa'y-harakatlari tufayli uch marta nashr qilingan edi. 1994 - yilda «Qobusnama» Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi asosida hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida yana S.Doliev tomonidan nashrdan chiqarildi.¹

Asarning ettinchi bobi: Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida.

Kishi suxandon, suxango'y (notiq bo'lishi kerak. Ammo ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin durug'go'y (yolg'onchi) bo'limg'il. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozong'il, tokim biror vaqt zarurat yuzidin yolg'on so'z desang qabul qilg'aylar. Har so'z desang ham rost deg'il va lekin, yolg'onga o'xshag'on rostni demag'ilkim, rostga o'xshagan durug' durug'ga o'xshag'on rostdin yaxshidur, nedinkim ul durug' maqbul bo'lar, ammo ul rost maqbul bo'lmas. Demak, nomaqbul rostni aytishdan parhez qil, toki mening bila Abu Suvor Shopur bilan Abu al-Fazlning orasindag'i voqeа sening boshingda sodir bo'lmasin.

¹ Qarang. Qobusnama. -T. 1994, 3-9 betlar.

H I K O Y A T

Bilg'il, men amiralmo''min zamonida bir yil hajdan qaytib kelib, Ganjada qarf tutdim..

Hindistonga ko'p g'azot qilmish erdim, Rumga ham yurish qilmoqni o'ylardim. Abu Suvor Ganjada ulug' podshoh erdi. Ul bag'oyat xushman, odil, sahiy va fozil kishi erdi. Bir kuni meni ko'rub, ko'p hurmat qildi va mening bila so'zlashmoq maqsadinda har turli so'z so'rар va mendin ma'qul javob eshitar erdi. Mening so'zlarim unga ma'qul tushib, ko'p karamlar qilib, menga ko'ngul qo'ydi. Men ham uning ehsonlarin ko'rib, unga ko'ngul qo'ydim. Shul sabab bila bir necha yil Ganjada muqim bo'ldim va hamisha podshohning majlisida hozir erdim. Podshoh mendan ham turli so'zlarni so'rар erdi. Bir kuni so'z orasig'a mening viloyatim tushdi va mendin Gurgon qishlog'i holdin so'radi. Viloyatlarning ajoyib - g'aroyiblaridin so'z ochildi. So'z asnosinda men dedim: «Gurgonda Siyovaks deg'on bir kent bordur va uning bir chashma suvi bordurkim, ul kentdin uzoqroqdur. Xotinlar jam bo'lub, har biri bir ko'za ko'tarib, ul chashmaga borib suv olurlar va ko'zani boshlariga ko'tarib, barchasi hamroh bo'lib uylariga qaytadilar. Ularning orasida bir xotin ko'za ko'tarmay, barchadin ilgari yurub, yo'liga ehtiyot bo'lub, nazar tashlab boradi. Nedinkim ul erlarda bir ko'k qurt bordur. Uni sizak derlar. Agar ul qurtdin birini topsalar, yo'ldin olib, yiroqqa tashlaydurlar, tokim xotinlar ul qurtni bilmay bosib o'ldurmasunlar. Agar suv ko'targ'on xotinlardan biri qurtni bosib o'ldursa, boshiga ko'torg'on ko'zadagi suv sasib, badbo'y bo'lib ketadi. Shundan keyin avval suvni to'kish, ko'zani yuvish kerak bo'ladi va ko'zani tozalag'on xotin qaytib borib chashmadin suv oladi.

Men bu so'zni dedim, ammo amir Abu Suvor turshro'y (badburush, qovog'i soliq) bo'lib, mendin yuz o'gurdi va bir necha kun menga burung'idek (avvalgidek) muloqot va iltifot qilmadi.

Bir kuni Firuzon Daylimiy bu ahvolni menga aytdi: «Amir sendin gina qilib dedi: «Falon kishi bag'oyat donodur, ammo yosh o'g'lonlarg'a aytgudek yolg'on so'zni menga aytadur. Uningdek kishidan meningdek podshoning oldida buningdek durug' so'zni aytmoq munosib emasdur».

Men bu so'zni eshitg'ondin so'ng darhol Gurgonga bir kishi yuborib, ulamoning shahodati bila bir guvoh xat talab qildim. Gurgonning barcha ulamo, qozilari bu kentning, qurtning holi va qissasi rostlig'i haqida guvoh bo'lishib, bu bobda bir xat yozib yubordilar..

Bu xat to'rt oy muddattida menga etib keldi. Men uni podshohga ko'rguzdum. Podshoh uni o'qidi va tabassum qilib dedi: «Men hud¹ tahqiq² bulurmankim, seningdek kishidan yolg'on so'z zohir bo'lmag'usidir, xususan, meningdek podshohning oldida... Ammo to'rt oy muddattida ikki yuz odil kishining guvohlig'i bila bir rost so'zni aytmoq munosib emasdur. Buningdek so'zlar avval isbot etilg'ay, undin so'ng ul so'zni qabul etgaylar.

¹ Hud - o'z, o'zim.

² Tahqiq - biror narsaning haqiqatini izlash.

Ey farzand bilg'ilki, so'z to'rt nav bo'lur, undoqkim xaloyiq ham to'rt nav bo'lg'ondek. Biri ulkim, bilur va bilg'onin ham bilur. Ul olimdur, unga tobe bo'lmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag'onin bilur, ul qobildur, unga o'rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg'onin bilmas, ul uyqudadur, uni bedor qilmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag'onin ham bilmas, u johildur... undin qochmoq kerakdur. Ammo deb erdimki, so'z ham to'rt navdur; biri, bilinmayturg'on va aytilmayturg'on; ikkinchisi, aytilaturg'on va bilinaturg'on: uchinchisi, ham bilinaturg'on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytsa bo'laturg'on, to'rtinchisi, bilanturg'on va aytilmayturg'on. Ammo aytilmayturg'on va bilinmay turg'on undoq so'zdurki... dunyoning salohi unga bog'liqdir. Ul so'zdin aytguvchiga ham, eshituvchiga ham ko'p naf etar. Ammo bilinaturg'on, biroq aytilmayturg'on undoq so'zdirkim, bir muhtasham odamning aybi senga ma'lum bo'lur. Lekin aql tariqidin xayolga kelsang, uni aytmoq besharmlikdir. Chunki aytsang ul muhtashamning qahri yo u do'stning ozori senda hosil bo'lur, yohud o'z boshingga ulug' sho'rish va g'avg'o paydo qilursan. Shul vajdin ham bul so'z bilinaturg'on, ammo aytilmayturg'on so'zdur. Bu so'zlarning yaxshirog'i ham bilinaturg'on va ham aytilaturg'on so'zdur.

Bu to'rt nav so'zning ikki yuzi bordur. Biri xo'b va biri zisht. Har so'zni xaloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul bo'lsun va xaloyiq sening so'z bila baland martabaga egalig'ingni bilsunlar. Nedinkim kishining martabasini so'z bila bilurlar, ammo so'zning martabasini kishi bila bilmalar, chunki har kishining ahvoli o'z so'zining ostida pinhondur, ya'ni bir so'zni bir iborat bila aytsa bo'lur, eshitg'on kishining esa ko'ngli undin tira¹ bo'lg'ay va yana o'shal so'zni bir iborat bila aytsa bo'lurkim, eshitg'on kishining joni undin rohatda bo'lg'ay.

¹ Tira – korongu

H I K O Y A T

Undoq eshitdimki, bir kecha Xorun-ar Rashid bir tush ko'rdikim, og'zidin barcha tishlari to'kulmish. Erta tong turib bir muabbirni² chaqirib so'radikim, «bu tushning ta'biri nedur?». Muabbir dedi: «Ey amiralmo''minin, sening oldingda barcha xesh, aqrabo va qarindoshlarin o'lg'usidir. Andog'kim, sendin o'zga hech kishi qolmag'usidur». Bu so'zni eshitg'on Xorun-ar Rashid: «Mening yuzimga bundoq dardlig' va anduhlig' so'zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o'lsalar, so'ngra men qandog' ishga yararman va na yang'lig' ro'zg'or surarman?» - dedi va unga yuz tayoq urmoq buyurdi. So'ng boshqa bir muabbirni chaqirib, tushin unga tahrir³ qildi. Muabbir dedi: «Ey amiralmo''minin, sening umring barcha aqrabolaring umridin uzoq bo'lur». Xorun-ar Rashid dedi: «Barcha aqlning yo'li birdur va ikkovining ta'birining negizi bir erga borur, ammo bu ibora bila ul iboraning orasida farq bag'oyat ko'pdur». Buyurdi, so'nggi muabbiriga yuz tillo berdilar...

Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas.

Suxango'y shul kishi bo'lg'ayki, ul har so'zni desa, xalqqa ma'qul bo'lg'ay va xalq ham har so'z desa unga ma'qul bo'lg'ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirg'ay, yo'q ersa ul inson suratida mavjud bo'lg'on bir hayvondur.

So'zni bag'oyat ulug' bilg'il, so'z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdur. Qay bir so'zniki bilsang joyini o'tkarmay aytg'il... vaqt ni zoe qilmag'il, yo'q ersa donishg'a sitam qilg'on bo'lg'aysan. Har so'z desang rost deg'il va be'manilikni da'vo qilg'uvchi bo'limg'il.

Bilmag'on ilmdin dam urmag'il va undin non talab qilmag'il. Har na matlubing bo'lsa, bilg'on ilm va hunardin hosil bo'lur. Bilmag'on hunar da'vosidin hech narsa hosil bo'lmas, faqat behuda zahmat chekarsan.

² Muabbir – tushni ta'birkiluvchi.

³ Taxrir – maqsadini ogzaki anglatish.

H I K O Y A T

Bundog' ayturlarki, Anushirovon Odilning zamonida bir xotin Abuzurjmehrning oldiga kelib, undin bir savol so'rdi. Abuzurjmehr ul savolni bilmamish erdi va xotinga qarab dedi: «Ey xotin, ul so'zni sen so'rorsan, uni bilmasman». U xotin dedi: «Sen bugina so'zniki bilmassan, podshohning ne'matin nechun ersan?» Abuzurjmehr dedi: «Bilg'on so'z uchun erman, ammo bilmag'on so'z uchun emasman. Har so'zniki bilmasman podshoh menga ul so'z uchun hech narsa bermas va harna bersa bilg'on so'zim uchun berur».

Ammo, ey farzand, hech kishining oldida ifrot¹ qilmag'il va ifrotni shumliq deb bilg'il. Har ishda miyona (o'rtacha) bo'lg'il, so'z aytmoqda va ish qilmoqda... sangin² bo'lg'il. Rozingni³ o'zingdin o'zga kishiga aytmag'il, agar aytsang so'ngra uni roz demag'il.

Xaloyiqning orasida bir kishining qulog'iga so'z aytish yaxshi emasdur. Agar bu so'z garchand yaxshi so'z bo'lsa ham, tashqarisindan uni yomon so'z deb gumon qiladilar va ko'p odamlar bir-birlaridan dargumon bo'ladilar. Gar so'z demoqchi bo'lsang, shunday so'z degilki, so'zingning rostlig'iga guvohlik bersinlar. Agar o'zingni zo'rlik bila aybdor qilmoq tilamasang, biror narsaga guvoh bo'limg'il va agar guvoh bo'lsang, guvohlik berar vaqtida ehtiroyz⁴ bo'lg'il. Agar guvohlik bersang, mayl bila bermag'il.

Har so'zni andisha bila boshlag'il, toki aytg'on so'zingdin pushaymon bo'limg'aysan.

Andishani ilgari tutmoq ham bir nav karomatdur. Hech so'zni eshitishdan diltang bo'limg'il. Ul so'z ishingga xoh yarasun, xoh yaramasun, uni eshitg'il, to yuzingga so'z eshigi beklanmasun va foydasi favt⁵ bo'lmasin.

Sovuq so'zlik bilmag'il. Sovuq so'z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo'lur.

Adabiyotlar

1. Kaykovus Qobusnoma. T. 1994.
2. Kaykovus Qobusnoma. T. 1986.
3. Kaykovus Qobusnoma. T. 1973.

¹ Ifrot - haddan oshish.

² Sangin – og'ir.

³ Roz – sir.

⁴ Ehtiroyz – saqlanish, ehtiyotlanish.

⁵ Favt – yo'qotish, o'lim; favt bo'lmoq - o'lmoq.

ABDULLA AVLONIYNING «TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ» ASARIDA NOTIQLIK HAQIDA

Savollar

1. Abdulla Avloniyning qanday asarlarini bilasiz?
2. «Turkiy guliston yoxud axloq» qanday asar va u necha bobdan iborat?
3. Asarda odamlar xulqi, hatti - harakati nuqtai nazaridan necha guruhga bo'linadi?
4. Muallif tarbiyaning qanday turlari haqida fikr yuritadi?
5. Bola tarbiyasida nimalar muhim ekanligini ta'kidlaydi?
6. «Hifzi lison» deb nimaga aytildi?
7. Abdulla Avloniy milliy tilni saqlash masalasida nima deydi?
8. Axloq nima? Uning qanday ko'rinishlari bor?
9. Xulq nima? Uning qanday ko'rinishlari bor?
10. Diyonat deganda nimani tushunasiz?

Topshiriqlar

1. Turkiy guliston yoxud axloq asarini sinchiklab o'qing.
2. Asar yuzasidan bahs-munozara o'tkazish uchun savollar tuzing.
3. Asardan kerakli va muhim o'rirlarni daftaringizga yozib oling.
4. Kishi tabiatini bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni izohi bilan yozing.
5. Vijdon, hayo, diyonat, qanoat, sabr, ilm,adolat to'g'risida qisqa yozib oling.
6. Yomon xulqlar: g'azab, jaholat, adovat, namimat, g'iylat, haqorat, hasad, tama to'g'risida qisqacha daftaringizga yozib qo'ying.
7. Yaxshi va yomon xulqlarni ifodalovchi so'zlarni o'zbek tilining izohli lug'ati yordamida ko'chirib yozing.
8. Vatan tuyg'usi kitobini o'qing va bahsga tayyorgarlik ko'ring.

Abdulla Avloniyning Turkiy guliston yoxud axloq kitobi to'g'risida

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida uning 1913 - yilda yozgan va 1917 yilda ikkinchi bor nashr qilingan «Turkiy guliston yoxud axloq asari» XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Bu asar mazmun tomonidan muallifning boshqa ijtimoiy va pedagogik asarlari bilan uzviy bog'liqdir.

XX asr boshlarida bunday asarni o'zbek tilida birinchi bo'lib Abdulla Avloniy yaratdi va ta'lism - tarbiya ishlarida uni tadbiq etdi. Abdulla Avloniy arab, fors, rus va ozarbayjon tillarini yaxshi bilgan olim edi. Uning qardosh xalqlar va chet tillarini bilishi pedagogik va poetik ijodining taraqqiyoti uchun katta zamin hozirladi.

«Turkiy guliston yoxud axloq» kitobi katta - kichik 64 bobdan iborat bo'lib, har bir bob ta'lism - tarbiya masalasiga bag'ishlanadi, hamda biri ikkinchisini to'ldiradi, takomillashtiradi. Yozuvchi bu asarini yaratishda xalq pedagogikasidan keng foydalanadi.

Abdulla Avloniy «Tarbiya» sarlavhasi ostida tarbiya turlari haqida fikr yuritadi: 1. «Tarbiyaning zamoni», 2. «Badan tarbiyasi», 3. «Fikr tarbiyasi», 4. «Ahloq tarbiyasi». Bolani tarbiyalashda bu to'rt masala g'oyat muhim ahamiyat kasb qilishini ta'kidlaydi.

Bola tarbiyasida muallif bola yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta ekanligini ko'rsatadi va bu soha oila, maktab sharoitini ham nazar-e'tibordan chetda qoldirmaydi. Tarbiya bolaning ahloqiga, xulq-atvoriga kuchli ta'sir etishni e'tirof qiladi va ota-onalarni o'z bolalarini tarbiya qilishga chaqiradi. Ta'lism bilan tarbiya bir-biri bilan bog'liq bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy til masalasiga katta e'tibor beradi, tilni xalq bilan bog'lab talqin qiladi: «Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur». U o'z asarida har bir kishining o'z ona tilini mukammal bilishi, har bir so'zni o'z o'rnila ishlatishi, milliy-adabiy tilning taraqqiyisi uchun jonkuyarlik qilishi zarurligini qayd qiladi. «Hifzi lison» deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini saqlamakni aytilar».

«Turkiy guliston yoxud axloq»ning birinchi sahifasidan to so'nggi sahifasigacha Avloniyning insonparvarlik g'oyalari ifodalangan. U hamma narsadan avval xalq manfaatini ko'zlashni, xalqqa xizmat qilishni birinchi o'ringa qo'yadi.

Abdulla Avloniy insonning eng yomon xulqlaridan g'iybat va adovatning bir-biriga yaqinligini va g'iybatning oqibati adovat bilan tugashini ko'rsatib o'tadi. U deydi: «o'iybat sohibi lazzat o'rniliga o'z boshiga yoki bir boshqa kishining boshiga bir balo hozirlaydur. Chunki so'z borub g'iybat qilinmish kishining qulog'iga etar,g'azab qoni harakatga kirar, g'iybatchidan o'ch olmak fursatini poylar... Shu tariqa g'iybatdan tug'ilgan adovat cho'zilmoqg'a oid bo'lib, dushmanlik zo'rayib, o'z oralaridagi xususiy janjallar ila aziz umrlarini o'zdirub, umumiy xalq foydasi uchun ishlanadurgan milliy ishlardan mahrum bo'lmlamlari ila barobar aholining orasidan ittifoqning yo'qoluviga sabab bo'lurlar». ¹

¹ Qarang. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. T. 1992. 3-9 – betlar.

Axloq

So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardan,
Yo'qsa jim turmoqing erur yaxshi.
O'ylasang yaxshi fikrlar, o'yla,
Yo'qsa gung bo'lmoqing erur yaxshi.
Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,
Yo'qsa bekorlig'ing erur yaxshi.²

Fikr tarbiyasi

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir - biridan oyilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur.

Masalan: joy solinmagan yaxshi bir uyning ichida o'tirmak mumkin o'lmadig'i kabi, ichiga har xil yangi ashyolar to'ldurub ziynatlangan eski imorat ham o'lturishga yaramaydur. Basharti o'ltursa, insonlar: «Eski uyga yangi zoldivor», «Kir ko'yakka jun jiyak», «Mis qozong'a loy tuvoq» deb hajv, kulgi qilurlar.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.
Fikrning oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur.¹

Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo'lur,
Yursa nodonlar ila, bir kun borib qotil bo'lur.
Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo'lur²

² Abdulla Avloniy. O'sha asar. 17-bet.

¹ Abdulla Avloniy. O'sha asar. 15-bet.

² Abdulla Avloniy. O'sha asar. 17-bet.

Iffat

Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytur. Boshimizga keladurgan kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, andozadan ortiq so'ylaganimizdan kelur.

O'ylamay so'ylagan og'rimay o'lar,
Fikr ila so'ylagan yig'lamay kular.

Hifzi Lison

Hifzi lison deb har bir millat o'z ona til va adabiyotini saqlamagini aytur. Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan - kun unutmak va yo'qotmaqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiyl, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdirmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o'z erinda ishlatmak va so'zlamak lozimdur. Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur.³

«Yohu! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqub ketduk. Yaxshi qo'shningdan olguncha yomon uyingni qidir», - demishlar. Bobolarimizga etushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va ahtarsak, yo'qolganlarini ham toparmiz. «Yo'qolsa yo'qolsun o'zi boshimga tor edi», - deb Yovrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmak zo'r ayb va uyatdurd. Payg'ambarimiz: «Erlarda jamol lison va tildur», - demishlar.

Ey ona til, aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, rahmonim,
Tug'ildig'im kundan aylading ulfat,
O'lguncha ayilma, ey jonim.
Menga ilmu adab san o'rgatding,
Chin adib, muallim shonim.
Millating ruhini ko'targuchisan
Eng muqaddas karamli sultonim.

Umumiyl milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdir. Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozisidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar. «Quruq so'z quloqg'a yoqmas», - demishlar.

Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgan bo'lmasa, asallarilari orasida g'ung'ullab yurgan qovoqlari kabi quruq g'ung'ullamoq faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga

³ Abdulla Avloniy. O'sha asar. 32-bet.

keladurgan qattig' kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «Ko'p o'yla, oz so'yala», - demishlar.

Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilub, oxirini o'ylab so'ylangan so'zdur.

Go'zallik yuzda ermas, ey birodar,
So'zi shirin kishi har kimga yoqar.
So'zing oz bo'lzinu ma'noli bo'lsun,
Eshitkanlar qulog'i durga to'lsun.
So'zing bo'lsa kumush, jim turmak oltun.,
Misi chiqg'ay so'zing ko'p bo'lsa bir kun.
Ko'paygan so'zni bo'lgay to'g'risi oz,
Shakarning ko'pidan ozi bo'lur soz.

o'iybat

Agar jurmu gunah bo'lsun desang oz,
Tilingni saqla g'iybatdan qishu yoz.
Qulooqqa paxta tiq, g'iybat eshitma,
Shikoyatchi kishiga bo'lma damsoz.¹

Adovat

Adovat balosi bizlarni netdi,
Adovat qilma deb haq bizga aytdi.
Zudlik qilduk, mol va davlatlar ketdi,
Moldan o'tub, oxir jonlarga etdi.¹

Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 1992.
2. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'raev. Vatan tuyg'usi T.: 1996.

¹ Abdulla Avloniy. O'sha asar. 51-bet.

¹ Abdulla Avloniy. O'sha asar. 15-bet.

ALISHER NAVOIY IJODIDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI MASALARINING TALQINI

Savollar

1. Navoiyning fikricha voiz qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
2. Navoiy qaysi asarida voizlik san'atiga alohida to'xtalib o'tadi?
3. Navoiy tan olgan voizlardan kimlarni bilasiz?
4. Voizlik qanday baholanadi?
5. Tilshunoslikka bag'ishlab yozgan qanday asarlarini bilasiz?
6. Navoiyning quyidagi matla'li g'azalini kim yuqori baholagan edi?
Orazin yopqoch ko'zimdan sochilur har lahza yosh,
Bo'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh...
7. Navoiy haqida qanday rivoyatlar bilasiz?
8. Navoiy haqida qanday she'r va qushiqlar bilasiz?
9. Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy haqida qaysi asarida ma'lumot beradi?

Topshiriqlar

1. Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq san'ati haqida aytgan fikrlaridan yozing.
2. Navoiyning notiqligi ifodalangan rivoyatlardan topib yozing.
3. «Ko'p degan ko'p engilur, ko'p yogan ko'p yiqilur», maqolini izohlang.
4. «Va'zzon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga bo'sh kirgan odam to'lib chiqsin; to'la kirgan odam esa engil tortib, holi qaytsin», fikrini izohlang.
5. «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa, tilning ofatidir», ma'nosini izohlang.

Alisher Navoiy

Alisher Navoiy ibrat bo'lgulik hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. Bolaligidan ziyrak va qobiliyatli bo'lgan Alisherni to'rt yoshida o'qishga beradilar. Ota va ona uning har tomonlama bilim olishi uchun barcha shart – sharoitlarni yaratib beradilar. U adabiy asarlarni qunt bilan o'qiy boshlaydi. Sa'diy, Farididdin Attor asarlarini qayta - qayta o'qir va yod olar edi. Alisher badiiy asarlarni o'qish va o'rganish bilan kifoyalanib qolmadi. Uning o'zi ham she'rlari bilan tanilib, katta san'tkorlar va olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan edi. Navoiyning zamondoshi tarixchi Xondamirning xabar berishicha, kunlardan birida ancha keksayib qolgan Lutfiy shogirdi navqiron Alisherdan yozgan yangi she'rlaridan o'qib berishni so'ragan. Navoiy quyidagi matla'li g'azalni o'qigan;

Orazin yopqoch ko'zimdan sochilur har lahza yosh,
Bo'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh...

Bu ajoyib g'azaldan qattiq hayajonlangan Lutfiy: «Agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming bayt she'rimni shu bir g'azalga almashar edim», - degan.¹

Navoiy do'sti Husayn Bayqaro taxtni egallagach, uning saroyida muhrdor, vazir lavozimlarini bajardi. Mamlakatning obod va farovon bo'lishi, san'at va adabiyotning rivojlanishiga o'zining bebahohissasini qo'shdi. Ayni paytda ijoddan bir soat ham bo'shamay, o'zbek adabiyoti xazinasini she'riy durdonalar bilan boyitdi. O'lmas asarlar yaratdi.

Alisher Navoiy ijodida suhbat va nutq odobi qoidalari qiyomiga etkazib bayon etilgan.

Navoiy so'zning hashamadorligidan ko'ra, haqqoniyligini ulug'laydi. Fikring xalq uchun foydali va tushunarli bo'lsin desang, sodda tilda gapir, deydi: «So'zki fasohat zevaridin muzayyan emasdир, anga chinlik zevari basdur. Yolg'onchi har necha so'zida fasihiroq, so'zi qabihroq. Chin so'z nechakim betakalluf, qoyilg'i iborat soddalig'idin yo'q taassuf».

Navoiy yaxshi so'zli, el uchun foydali notiqlarga yon bosadi. Ularning xizmatini masjid imomlarining qilayotgan ishlaridan yuqori qo'yadi. Shu tufayli ular uchun imomlarga nisbatan ancha ko'p mablag' ajratishni tavsiya etadi: «Voizga yillik naqdi besh yuz oltun, bug'doy o'n yuk. Imomg'a masjidi jome'da xatib bo'lib, maktabdag'i tutg'ay, yillik naqdi ikki yuz oltun, bug'doy o'n yuk».¹

Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutq madaniyati, nutq san'ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

Navoiy asarlarida chunonchi, nutq odobining talablari haqida fikrlar bor.

¹ Qarang: N.M.Mallaev O'zbek adabiyoti tarixi. -T. 1976. 363-364 – betlar.

¹ B.O'rboev, A.Soliev. Notiqlik mahorati. -T, 1984. 32-bet.

1. Tilni, so'zni qadrla, uni hurmat qil:

Donau dur so'zini afsona bil,

So'zni jahon bahrinda durdona bil.

(«Xamsa», 34-bet).

2. Yaxshi so'zli olish (nutq) – san'atdir, noyob hunardir.

Uni egallashga intilgin:

Erdin so'z hunar, enchdin bo'z hunar

(«Mahbub ul-qulub» 82-bet).

3. Insonning odob ahloqini belgilaydigan omillardan biri uning so'zi, nutqidir:

Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig'i so'z bila.

(«Mahbub ul-qulub» 79-bet).

So'z zohir etar zamir ishi ko'pragidin,

Til muxbir erur ko'ngul nihon emgagidin,

Fahm ayla kishi holini so'z demagidin,

Kim berdi xabar hadisi ko'nglidagidin

(«Nazmul-javohir»dan, 41-bet).

4. Kishining so'zi (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

Odamki demak birla kiromiydiru bas,

So'z durri ishining intizomiduru bas,

Sihat onchaki, ahli aql komiduru bas,

Aqlig'a dalil aning kalomiduru bas.

(«Nazmul-javohir» dan, 25-bet).

5. So'zlaganda diling bilan tiling bir bo'lsin, chunki dildagi tilga chiqadi:

Haq seni sevgay el bila bo'lsang,

Tilu ko'nglungni bir qilib birro'y,

Nuqta sursang shukuftau xandon,

Zist qilsang, kushodou xushro'y.

(«Arbain» dan, 59-bet).

6. So'zlaganda o'ylab so'zla, tushunib, bilib gapir: So'zni ko'nglungda pishqarmaguncha tilga kelturma, Harnakim ko'nglungda bo'lsa til surma.

(«Mahbub ul-qulub» 83-bet).

7. Xushmuomala, shirinso'z bo'l. Tiling bilan kishilarga ozor berma:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har neki ag'yor durur yor aylar,
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar.
Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar.
(«Nazmul-javohir» dan, 43-bet).

8. Chin, to'g'ri so'zla, nutqingda halol bo'l. Yolg'on so'z baxtsizlik keltiradi. Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar... so'zki fasohat zevaridin muayan emasdur, anga chinlik zevari basdur. Yolg'onchi har necha so'zida fasihiroq, so'zi qabih.

(«Mahbub ul-qulub» 63-bet).

Xiradmand chin so'zdin o'zga demas,
Vale bari chin ham deguluk emas.
Kishi chinda so'z zebo, durur,
Necha muxtasar bo'lsa avlo durur.
(«Mahbub ul-qulub» 83-bet).

9. Yaxshi, ezgu so'z (nutq) kishiga obro', baxt keltiradi. Ezgu so'zli bo'l:

Kim istasa mazhari karomat bo'lmoq,
Har nav' ishda istiqomat bo'lmoq
So'zdir anga mo'jibi g'aromat bo'lmoq,
Til zabtidadur anga salomat bo'lmoq.
(«Nazmul-javohir» dan, 43-bet).

10. Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuhmatchidan qoch, undan nafratlan:

Birovkim yolg'on so'zni birovga bog'lag'ay, o'z qaro bo'lg'on yuzin yog'lag'ay. Kabira gunohdur – oz so'z hamki o'trukdur, zahra gunohdur – oz so'z hamki o'trukdur, zahri muhlikdur – agarchi miqdori o'ksukdur.

(«Mahbub ul-qulub» 61-bet).

El aybini ayturg'a birovkim uzotir til,
O'z aybini fosh aylagali til uzotur bil.
(«Mahbub ul-qulub» 69-bet).

11. Tilingni tiy. Ko'p so'z, ezma va vaysaqi bo'lma. Bu zararlidir.

Befoya so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni ko'p eshiturdin qaytma. Oz degan oz yanchilur, oz egan oz yiqilur.

(«Mahbub ul-qulub» 82-bet).

Til ildamidin bo'lur g'aromat hosil,
Yuz nav' nadomatu malomat hosil.
Oz so'zlagandin istiqomat hosil,
Soqitligidin vale salomat hosil.

(«Nazmul-javohir» dan, 31-bet).

12. So'zlaganda sharoitni, suhbatdoshingni hisobga ol, beo'rin so'z aytma... «...Zolim va be dard suhbatida nuqta surma, nammom va nomard muloyamatida dam urma. Dono ilikdin borg'ondin so'z aytma, o'tgan yigitlik orzu bilan qaytmas».

(«Mahbub ul-qulub» 84-bet).

13. Bo'shog'iz bo'lma, suhbat sirlarini saqlashga o'rghan:

Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,
Bilgil ul so'z sanga omonatdur,
Gar ani o'zga erga naql etsang,
Ul omonatg'a bu xiyonatdur.

(«Arbain» dan, 57-bet).

14. Gapirganda qaytariqlardan qoch, chunki ular fikrning ta'sirini susaytiradi:

Bir deganni ikki demak xush emas,
So'z chu takror topti dilkash emas.

(«Xamsa», 484-bet).

Nutq odobining qayd qilingan madaniy - ahloqiy talab va asoslari nutq me'yorlari sifatida qadimi davrlardan beri avloddan - avlodga o'tib kelgan. Ushbu nutqiy me'yorlarning saqlanishi, o'zgartirilishi va yashab kelishida oilaviy an'analar, bir til jamoasi doirasida amal qilingan an'anaviy qoidalar, suhbatdoshlar (so'zlovchi va tinglovchilar)ning bir-birini o'zaro nazorat qilishi, ta'lim tarbiya, o'git-nasihat jarayoni, shuningdek nutqiy odob me'yorlari haqida yozilgan adabiyotlarni mutolaa qilish asosiy o'rinn tutgan.

Demak, kishilarning qandaydir to'g'ri, ta'sirchan, chiroyli va yaxshi gapirishga intilishi va unga oid odatiy qoidalar qadimi tarixga egadir. Bunday odat qadimi o'tmishdan hozirga qadar mangu an'ana sifatida yashab va takomillashib kelgan. Biroq, nutq madaniyati tushunchasi bilan bog'liq ushbu nutqiy odatlar turli davrlarda muayan xususiyatlari bilan farqlanib turgan. Ayniqsa, adabiy til paydo bo'lgunga

qadar mavjud bo'lgan nutq odobi (nutq madaniyati) tasavvurlari, adabiy til paydo bo'lgandan keyingi davr nutq madaniyati tasavvuridan farqlanadi.¹

NASIHAT AHLI VA VOIZLAR ZIKRIDA

Voiz kerakki, «qolalloh» so'z aytsa va «qola rasululloh» muxolafatidin qaytsa, xudo va rasul yo'lig'a qadam ursa. O'zi kirgondin so'ngra nasihat bila elni ham kivursa. Yurumagon yo'lga elni boshqarmoq - musofirni yo'ldin chiqormoqdur va biyobong'a keturmak va bodiyada iturmakdur. Usrukki, elga buyurg'ay xushyorliq - uyquvchidekdurki, elga buyurg'ay bedorliq. Uyqusida so'z degan jevligon bo'lur va degondek qilmoq ne degon bo'lur.

Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo'lni bormoq kerak, andin so'ngra elni boshqarmoq kerak. Yo'lni yurmay kirgan itar va g'ayri maqsud erga etar.

Voiz uldurki, majlisig'a xoli kirgan to'lg'ay va to'la kirgan xoli bo'lg'ay. Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqqiy – aning nasihatidin chiqqan shaqiy. Ulki, buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay. Nazoirxon bila surguvchi maqol – dastiyor bila yirlag'uvchi qavvol.

Qit'a:

Voizki, dastyorsiz o'lmas suxanguzor,
Anga yorodu munga ayolg'uvchi hukmi bor.
Tengri so'zin ayolg'uvchi bo'lmay deya olmag'ay,
Bir soz bo'lsa ham kerak ul qilg'ay ixtiyor.¹

Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz. Harzago'ykim, ko'p taqallum surgay, itdebdurkim, kecha tong otqunga hurgay. Yamon tillik andoqkim el ko'ngliga jarohat etkurur, o'z boshig'a ham ofat etkurur. Nodonning muvahhish-harzag'a bo'g'zin kirmog'i-eshakning jihatsiz qichqirmog'i. Xo'shgo'ykim, so'zni rifq va musovo bila aytg'ay, ko'ngulga yuz g'am keladurg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytg'ay. So'zdadur har yaxshiliqni imkonli bor, munda debdurlarki, nafasning joni bor. Masihokim, nafas bila o'lukka jon berdi, go'yo bu jihatdin erdi.

Makruheki, harzasi tavil va ovozi karihdur, o'zi savti bila qurbaqag'a shahibdur. Ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig'a manba' ham til, ahli shaqovatlar nahs qavqabig'a matla' ham til. Tiliga iqtidorlig'-hakimi xiradmand; so'ziga ixtiyorsiz – laimi najand. Tilki fasih va dilpazir bo'lg'ay-xo'broq, agar ko'ngul bila bir bo'lg'ay.

Til va ko'ngul xo'broq a'zodurlar insonda; savsan va g'uncha marg'ubroq rayohindurlar bo'stonda. Odame til bila soyir bila hayvondan mumtoz bo'lur va ham

¹ R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T. 1992. 24-25 bet.

¹ Alisher navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-tom -T. 1998. 32-33 – betlar.

aning bila insonga sarafroz bo'lur. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir.

Ayn ul-quzot til sharafidin Masih guftor bo'ldi va Husayn Mansur til sur'tidin dorg'a sazavor.

Bayt:

Har necha biymi hajr so'zi oshiq o'lturur,
Vuslat bashorati yana jismig'a jon berur.

Tildin azubat dilpisanddur va liynat sudmand. Chuchuk tilki, achchig'liqqa evruldi, zarari om bo'ldi, qandniki, muskir boda qildilar, xarom bo'ldi. Chuchuk so'z sof ko'ngullarg'a qo'shdur, barcha atfol tab'ig'a muloyim halvofurushdur.

Bayt:

Xush so'zga kim o'lsa mastu behush,
Sharbat aro zahrni qilur no'sh.

Harkimki, so'zi yolg'on zohir bo'lg'och uyolg'on. Yolg'oni chindek aytquvchi suxanvar-kumushni oltun ro'kach qiluvchi zargar. Yolg'on afsonalarda uyltirguvchi, yolg'onchi uyquda takallum surguvchi. Yolg'on aytguvchi g'aflatdadur. So'zning asnofi bag'oyat cho'qdur, yolg'ondin yamonroq sinfi yo'qdur.

Ulki yolg'on bila sarfi avkot etgay, anga bu yamon kelmagay yana mubohot etgay. Agar mustami'nni g'ofil topqay, yolg'onin ching'a o'tkarsa maqsudin hosil topqay. Zihi tengrig'a yamon, ne tengridin, ne xalqdin sharmanda. Mundoq nahsning chun erur yuzi yamonliq sari, bu nuhusatshior qutlug' uydin tashqari.

Bayt:

Ul kishini qutlug' evdin tashqari surmak kerak,
Qutlug' ev dunyo durur, ya'niki, o'lturmak kerak.

Birovkim, yolg'on so'zni birovga bog'lag'ay, o'z qaro bo'lg'on yuzin yoqlag'ay, kabira gunohdur-agarchi miqdori o'ksukdur.

Bayt:

Zahrning oz esa miqdori dog'i muhlikdur,
Ignaning no'gi zaif ersa dog'i ko'r qilur.

Ulki, so'zni bir erdin yana bir erga etkurgay, elning o'tgan gunohini o'z bo'ynug'a indurg'ay. Nammomliq chin so'zga ma'mnudur. Agar zuhur etgay-xayol qilki, yolg'on so'zga ne etgay. So'z terguvchining agar ulug'i, agar kichigi-bilki erurlar tamug' o'tining tutrug'i.

Bayt:

Kim so'zni terib aytguvchi og'ziga bergay,
Molik ani do'zax o'tining dudig'a tergay.

Ulki, juz quvvat da'visi izhor qilmas, go'yoki, haqning qaviy ul-matin erkanin bilmas. Odameki, quvvat xayolin ko'ngliga kechirur-tufrog'edurkim, el urg'och uchurur. Dunyo dor ul-havodisdur va anga ko'ngul bog'lamoqqa g'aflat boisdur. Olam umrdek bevafodur va aning davlatig'a e'timod qilmoq xato.¹

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 13 tom. T.: 1997.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14 tom. T. 1998.
3. Alisher Navoiy. Vaqfiyya. T. 1991.
4. Alisher navoiy. Lisonut tayr. 11 tom. T. 1996.
5. B.Ahmedov. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T. 1985.
6. B.Hasanov. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at T. 1993.
7. M.Jo'raev. El desa Navoiyni T. 1991.
8. B.O'rboev, A.Soliev. Notiqlik mahorati T. 1984.
9. Nusratullo Atoullo o'g'li Jumaxo'ja. Istiqlol va ona tilimiz T. 1998.
10. N.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T. 1976.
11. R.Qo'ng'uров, E.Begmatov, Yo.Tojiev. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari T. 1992.

¹ R.Qo'ng'uров va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T. 1992. 22-23-24 - betlar.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY IJODIDA NUTQ VA NOTIQLIK SAN'ATI MASALALARI

Savollar

1. Husayin Voiz Koshifiyning voizlik san'atiga bag'ishlangan qanday asarlari mayjud?
2. Alisher Navoiy va Husayin Voiz Koshifiy o'rtaisdagi munosabat qanday bo'lgan?
3. Voiz va Koshifiy so'zlarining ma'nosi nima anglatadi?
4. Husayin Voiz Koshifiy haqida nimalarni bilasiz?

Topshiriqlar

1. Husayin Voiz Koshifiyning «Futvvatnomai sultoniy» asaridagi nutqqa, nutq san'atiga bag'ishlangan fikrlarni lzib chiqing.
2. Husayin Voiz Koshifiy maddohlarni necha guruhga ajratadi.
3. Husayin Voiz Koshifiy hikoya aytishning necha qoidasini ko'rsatib o'tadi.

HUSAYIN VOIZ KOSHIFIY

Husayin Voiz Koshifiy XV asrda Xirotda yashab ijod etgan taniqli olim va notiq bo'lgan. Uning «Tafsiri Husayni», «Axloqi Muhsiniy», «Anvori Suxayliy» kabi asarlari juda mashhur bo'lgan. Husayin Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning zamondoshi va do'sti bo'lgan. U notiqlikda, xususan, va'zxonlikda nihoyatda mashhur bo'lganligi uchun ham «voiz» unvoniga sazovor bo'lgan. «Koshifiy» - kashf etuvchi, degan ma'noni anglatadi. Odamlar Husayin Voizning har bir va'zidan so'ng yangi-yangi narsalarni kashf qilganlar, egallaganlar. Husayin Voiz Koshifiyning asarlarida hikoya, rivoyat, she'riy parchalar joy olgan bo'lib, yuksak axloqiy g'oyalalar - poklik, imon, e'tiqod, ezgulik tarannum etiladi. Uning asarlarida pand-nasihat va hikmat keng o'rinni olgan. Husayin Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy» asarida javonmardlik, uning qoida va xususiyatlari asoslari berilgan. Ayniqsa, futuvvat asoslari va tasavvuf g'oyalari o'rtasidagi o'xshashlik keng talqin etilgan. Husayin Voiz Koshifiy 1505 yilda Xirotda vafot etgan.

FUTUVVATNOMAI SULTONIY LXUD JAVONMARDLIK TARIQATI

Ikkinchি fasl: Ma'raka tuzuvchi so'z ahli haqida.

Ular uch toifa bo'ladiлar: birinchi toifa - maddohlar, g'azalxonlar va saqqollar. Ikkinchи toifa - xosago'ylar va bisotandozlar. Uchinchi toifa - qissa so'ylaguvchiylar va afsona aytuvchilar (ya'ni, baxshilar). Bularning har biri haqida alohida qismlarda to'xtab o'tamiz.

Birinchi qism. Maddohlar va g'azalxonlar zikrida

Shuni bilgilki, futuvvat ahli (ahli shadd) orasida maddohlarning martabasi eng balanddir. Buning sababi shuki, ahli bayt, xonodon muhabbati barchaning ko'nglida mavjud va agar birov boshqa birovni sevsа, sevgilisining ta'rifini tilidan qo'y maydi... Maddohlar shunday xususiyatga ega kishilardirlar va uzuksiz ahli bayt ta'rifida so'z aytadilar va xonadonning ldida so'z aytish bilan vaqt o'tkazadilar.

Agar maddohlar necha xil bo'ladi, deb so'rasalar, to'rt xil deb aytgil: Birinchidan - o'zлari badehatan ijod qiluvchilar, ular o'zлari she'r aytish qobiliyatiga ega bo'lib, hikoyatu rivoyatlarni nazmga tushurib, baln qilaveradilar. Ikkinchи xili - boshqa shoirlarning she'r, hikoya lki badehalarini ijro etib, xalqqa foyda etkazuvchilardir. Bu toifani roviylar deb ataydilar va ular ham maddohlar jumlasidandirlar. Uchinchi xili maddohlik barobarida boshqa ishlar bilan ham shug'ullanib, xalqqa fayz etkazuvchilardir. Masalan, saqqolar (suv tarqatuvchilar) shunday kishilar bo'lib, ularning ishidan odamlar xursanddirlar. To'rtinchidan toifa har erdan har xil baytlarni ld olgan kishilar bo'lib, ular eshikma-eshik yuradilar, qasida aytib non yig'adilar va maddohlikni gadoylik, deb tushunadilar. Bularni agarchi qilfalariga qarab maddoh desalarda, aslida ushbu jamoaga muvofiq emasdirlar.

Agar maddohlik odobi nechta bo'ladi, deb so'rasalar, beshta deb aytgil: avval shuki, doimo taqvo va tahoratda bo'lsin... Uchinchidan, g'arazli niyatda va qasd olish uchun maddohlik qilmasin. To'rtinchidan, boylikka berilgan bo'lmasin. Beshinchidan, madhda oshirib mubolag'a qilish bilan shug'ullanmasin.

Agar maddohning nechta sifati bo'lishi kerak, deb so'rasalar, aytgilki, maddohning yigirma sifati bo'ladi. Bular: sidh, sabr, shukr, zudh (parhez), toat, qanoat, muhosaba (umr hisobini olish), muroqaba, xudo ldida tafakkurga berilish (tavozu', taslim, ixlos, karam, nisor, mujohada (jidu jahd qilmoq), tafakkur, tavakkul kam eyish, kam uxlash va shafqatli bo'lism).

Agar maddoh hazar qiladigan sifatlar nechta, deb so'rasalar, o'ttizta deb aytgil. Bular: g'aflat, g'urur, aybjo'ylik, ril, mayxo'rlik, qaro ko'ngillilik, zino, badaxloqlik, janjalkashdik, yaramas va noshoista so'z aytish, va'dani buzish, masxara-mazax qilish, noo'rin ta'na, llg'on gapirish, llg'on qasam ichish, birodarlarni g'iybat qilish, tuhmat qilish, gap, tashish, g'ammozlik, hasad, makkorlik, odamlarni lmonlash, boylikka hirs qo'yish, zulm, baxillik, ko'p yxlash va ko'p eyish.

Agar maddohlar bir-birlari bilan munosabatda qaysi qoidalarga rioya qilishlari kerak, deb so'rasalar quyidagi oltita qoidaga deb aytgil: avval shuki, bir-birlari bilan do'st bo'lsinlar... Uchinchidan, bir-birlari bilan kelishmay ish boshlamasinlar.

To'rtinchidan, zaif-ojizalarni qatorlaridan surub chiqarmasinlar. Beshinchidan, bir-birlarining hurmatini saqlashda qilcha gumon-shbhaga yo'l qo'ymasinlar, toki hamma erda muhtaram va aziz bo'lsinlar.

Agar maddohlar necha xil bo'ladi, deb so'rasalar, uch xil deb aytgil. Bir xillari faqat she'r o'qiydilar, she'rni ravon va ifodali o'qib, tinglovchilarga zavq bag'ishlaydilar. Ikkinchisi xillari nasriy asarlar, mo''jaz gaplar, ibora va ta'rifu tavsiflar (qasidaxonlikni) nasr bilan ado etadilar va bu toifani g'arraxon (chiroyli o'qiydiganlar) deb ataydilar. Uchinchi xillari nas rva nazmni aralashtirib o'qiydilar. Bu toifani murassa'xon (so'z ustasi), deb aytadilar. Va bularning kamol fazli, martabalari oldingi ikki guruhdan balanddir.

Agar maddohlarga xos alomatlar nimdaan iborat, deb so'rasalar, aytgil: maddohlarning o'ziga xos alomati to'n va xirqa kiyishda emas. Ular har qanday to'nni kiyib yurishlari mumkin. Ammo ularning boshqalardan ajralib turuvchi tashqi alomatlari bor. Bu - nayza, tavq (xalqa, belbog') sufra (dasturxon), chiroq va bolta (qurol) olib yurishlaridir... Nayza - o'zini himoya qilish belgisi, tavq - maddohning qaysi martabada ekanligini ko'rsatuvchi belgi, dasturxon - saxiylik va qo'li ochiqlik alomati, chiroq - ko'ngil ravshanligi, ya'ni futuvvat erlari muhabbatini ko'ngil ichida lniq saqlash, o'zini lndirib bo'lsa ham, o'zgalarni isitish, o'zgalar diliga lrug'lik, safo bag'ishlash alomati...

Uchinchi qism. Qissaxonlar va afsona aytuvchilar haqida

Shuni bilki, qissa o'qish va qissa eshitishning foydasi katta. Birinchidan, kishi o'tgan ajdodlarning ishi va ahvoldidan habardor bo'ladi. Ikkinchidan, odam g'aroyib va ajoyib voqe, sarguzashtlarni eshitsa, fikri va ko'zi ochiladi. Uchinchidan, o'tganlarning zaxmatu uqubatlaridan habardor bo'lsa, hech kim bu dunlda tashvishg'amdan ozod emasligini anglab, ko'ngli taskin topadi, tasalli bo'ladi. To'rtinchidan, o'tgan podsholar davlati va mulkinining zavolini eshitsa, dunl moliga mehri susayadi, boylik kishigavafo qilmasligini bilib oladi. Beshinchidan, qissa eshitgan behad ko'p ibrat oladi, tajriba orttiradi. Bas, ma'lum bo'ladikim, o'tmis ajdodlarning qissalarida foyda ko'p, agar bo'lib o'tgan voqealar bo'lsa, aytuvchi va o'quvchi bilan birga eshituvchi ham undan naf' topadi va agar g'ayri voqe' (to'qima) bo'lsa, aytuvchi uchun gunoh hisoblansa-da, ammo eshituvchi uchun foydali va savobdir...

Agar ma'rakada kursi (sandali) qo'yishning ma'nosи nima, deb so'rasalar, javob berib aytgil: buning ma'nosи shuki, kimningkim iste'dodi hunari bo'lsa, u qolgan odamlardan balandroq o'tirishga loyiq, chunki boshqalar uning diydoridan bahramand bo'lishlari kerak. Agar sandalini kim uchun qo'yadilar, deb so'rasalar, san'atkor, hunarmand kishilar uchun de bayt. Zero podsholar ham pahlavonlikda, so'z hunarida nom qozonganlarni siylab, ularni kursiga o'tqazadilar. Bas, so'z maydonining pahlavoni bo'lgan kishilarni kursiga o'tqazib, qadrlasa arziydi. Agar kursining nechta rukni bor, deb so'rasalar, to'rtta deb aytgil: ikkita ostki va ikkita ustki ruknlar. Ikkita ustki rukn nimaga ishora, deb so'rasalar, aytgil: biri - bilim va ikkinchisi - aqlu farosat, zehnu zakovatga ishora. Ya'ni sandalida o'tirgan odam bilimi va zakovati bilan har bir ma'rakada qanday so'zga talab borligini anglasin va shunga qarab so'z aytsin. Sandalining ostki ikki rukni nimaga ishora, deb so'rasalar,

biri - sabrga, ikkinchisi - sabotga ishora deb aytgil. Ya’ni, sandaliga chiqib o’tirgan odam chidamli bo’lishi, o’z ishiga mustahkam, sobit bo’lmog’i lozim. Har narsaga o’rnidan turib, engiltaklik qilmasligi kerak.

Agar qissaxonlik necha xil bo’ladi, deb so’rasalar, ikki xil bo’ladi deb aytgil: birinchisi hikoyat aytish (o’qish), ikkinchisi - she’rxonlik. Hikoyat aytishning esa sakkizta qoidasi bor. Avval shuki, qissaxonlik boshlanganda, agar kishi qissani boshlovchi bo’lsa, u ustoz ta’limini olgan, ustoz huzurida o’tkargan kishi bo’lishi kerak. Va agar qissani tugatuvchi bo’lsa, o’zi mustaqil takrorlagan bo’lsin, toki esidan chiqib, tutilib qolmasin. Ikkinchidan, chapdastlik bilan dadil so’zga kirishsin, xomlik va lanjlik ko’rsatmasin. Uchinchidan, ma’raka qanday asarni qabul qilishini anglasin va el rag’bati ko’proq bo’lgan asarlarni tanlasin. Ammo me’lrni saqlasin. To’rtinchidan, hikoya davomida nasrni gohi-gohida nazm bilan qo’shib olib borsin, lekin bu eshituvchilarga malol kelmaydigan darajada bo’lsin. Ulug’ ustozlar: nazm-qissaxonlikda bamisolai taomga solinadigan tuzdir - agar kam bo’lsa, taom ta’msiz bo’ladi va agar ko’paysa sho’r bo’ladi, deganlar. Bas, me’lrni saqlash lozim. Beshinchidan, llg’on va ishonarsiz so’zlarni gapirmas, toki elning nazaridan qolmasinyu Oltinchidan, kinoyali tushunilmaydigan so’zlarni aytmas, chunki bu eshituvchilarni ranjitadi. Etinchidan, tama’ bilan odamar joniga tegmasin, gadoylik qilmasin. Sakkizinchidan, qissaxonlikni tez tugatmasin va haddan zild cho’zmasin ham, o’rtalikni saqlasin.

Agar she’rxonlik odobi nechta, deb so’rasalar, oltita deb aytgil: birinchidan, she’rni ahong bilan o’qisin, ikkinchidan, so’zni odamlar qalbiga joylay olsin. Uchinchidan, agar biror mushkil (tushinilishi og’ir) bayt paydo bo’lsa, yig’ilganlarga uni sharxlab, mazmunini izohlab bersin. To’rtinchidan, eshituvchiga malol keladigan ish qilmasin. Beshinchidan, gadoylik qilmasin, mubolag’ali qasamlar ichmasin. Oltinchidan, o’qigan she’rining muallifini ma’raka oxiri lki boshida tilga olib, duo qilsin.

Afsona aytuvchilar ham qissaxonlarga o’xshash bo’lib, aytib o’tilgan qoidalar ularga ham tegishlidir.

Adabiyotlar

1. Husayin Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy lxud javonmardolik tariqati. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashrilti, 1994.
2. R.Jumanilzov. Nutqiy mahorat. T.: Adolat, 2005.

NUTQ VA USLUB

Topshiriqlar

- 1.Har bir uslubga xos matnlarni o'qib chiqing va matnning ma'nosini og'zaki so'zlab bering.
2. Matndagi uslubni ifodalovchi so'zlarga izoh bering.
- 3.Badiiy, publitsistik va ilmiy uslublar orasidagi farqni tushuntiring.

Badiiy uslub

Husayn Bayqaro kirib, qalin zar to'shakka o'tirdi. Uning ko'zlarida, ertaroq qarimsigan yuzining chiziqlarida ifrot ichkilik Bilan uyqusiz kechirilgan tunning izlari ravshan ko'rinar edi. U viloyatlarga doir ba'zi farmonlar lzishni farmonachiga buyurib, mazmunini bir necha og'iz chalkash-chulkash so'z bilan aytib berdi. Majididdin shu erda lzmoqqa kirishdi. Husayn Bayqaro ko'zlarini horg'in suzib, vazirlariga murojaat etdi:

- Bizga ikki tuman oqcha hozirlangiz!

Xo'ja Afzal yalt etib, nizomulmulkka qaradi. Sersavlat, serviqor vazir boshini quyi solib, sukut qildi. Xo'ja Afzal o'ng'aysizlandi, qisildi. Xazinada mablag' kecha deyarli tugagan edi. Hashamat va dabdabaga berilgan saroy xazinani yutib turardi. Xo'ja Afzal haqiqiy axvolni baln qilishga botinolmay, qizarib, sukut etmoqqa majbur bo'ldi.

- Ne sababdan tillaringiz qimirlamaydi? - har ikala vazirga o'shshaydi Husayn Bayqaro.

Xo'ja Afzal talab qilingan miqdorda oqcha hozircha yo'qligini, agar fursat berilsa, chora ko'rish mumkinligini so'zлади. Husayn Bayqaroning tusi o'chdi, ko'zlarida g'azab yiltirab ketdi.

- Xuroson hukmdorining xazinasida ikki tuman oqcha torilmasin! - dedi u yuzini vazirlardan tez o'girib.

Devonni daxshatli, ezuvchi bir jimjitlik to'ldirdi. Parvonachi lzishdan to'xtab, g'olib xo'rozday bo'ynini cho'zdi-da, poshshohga ma'nodor boqdi, taassuflangandek boshini asta, og'ir tebratib qo'ydi.

Vazirlar oqcha topishni endi va'da qilishga botinolmadilar. Endi qancha mablag' tayyorla - behuda! Poshshohning g'azabi ostida o'tirish og'ir edi. Vazirlar ruhsat tilab, aybdorlardek enkayib, ezilib, tashqari chiqdilar. Majididdin yashnab-lnib ketti, Husayn Bayqaro tadbirsiz boshliqlardan shikoyat qildi. Parvonachi ko'p yillardan buln ko'kchida saqlab yurgan orzulari uchun eng qulay fursat kelganligini angladi. Poshshohning keyingi vaqtlarida unga bo'lган alohida iltifoti uni jasoratlantirdi. Majididdin kuyib-pishib, o'z yuragidagi ginalarini bo'shata boshladi. Davlat ishlaridagi hamma nuqsonlarni Navoiy va uning odamlari ustiga ag'dardi, yangi kamchiliklarni to'qib chiqardi. Navoiyning qurilish ishlari xazinani qo'rqtganini isbot qilmoqqa urindi. Poshshoh diqqat bilan tinglar edi. Nihoyat, jang maydonida axvol tang bo'lган paytda o'z ishtiroki bilan muqarrar zafar va'da etgan bahodirning ishonch va g'ururi bilan dedi:

- Olampanoh, davlatingizda xazinani aqlga sig'mas bir darajada simu-zar bilan to'ldirmoq mumkin... Men, masalan, ikki tuman emas, ikki ming tumanni bahoyat osonlik bilan eg'ib bermoqqa va'da qilib olurmen.

- Ishonmoq mumkinmi? - so'radi poshshoh engillanib.

- Shubha qilmoqqa o'rın yo'q, - javob berdi Majididdin qat'iy, ammo buning uchun xoqonim, bu kamina quallarga davlatda tegishli mavqe, huquq va iqtidor bermoqlari shart.

Husayn Bayqaro qaddini rostlab, ko'zlarini bir nuqtaga tikdi. Oqara boshlagan soqolini silab, o'yga toldi.

Publitsistik uslub

Kalom (so'z) bilan ish ko'rurvchi faoliyatning mas'uliyati katta. Tarixan olib qaraganda, «so'z» ning bir ma'nosi - «kuydirish», «o'rtash», «olov», «alanga» demak. Binobarin, ana shu «Indirish san'ati»ga lshlarni da'vat etishga, ularning qalbini «lqishga» chorlangan murabbiy, ustodlarning o'zlar ham «lnishlari», yashnab turgan qalb to'riga ega bo'lishlari kerak. Zero, ular o'zlarini lnmasalar, qanday qilib zil taratadilar?

Ta'lif, tahsil, tadqiqot va tarbiya sohasida barchamizning faoliyatimizga dahldor achchiq bir haqiqatni tan olishga to'g'ri keladi.

Jumhuriyatimizda so'zshunoslik (filologiya) sohasida bilag'on fan nomzodalari kam emas. O'nglab fan doktorlari, professorlar, fan arboblarimiz bor. Lekin lzuv, matn, imlo, insho, tarix va nazariyada biron jiddiy ilmiy masalani hal qilish gali kelganda baquvvat mutaxassis-anqoning urug'i.

Butun Ovrupo madaniyati uchun lotin tili qanday maqomga ega bo'lsa, o'zbek madaniyat tarixida baayni shunday mavqeiga ega bo'lgan arab va fors tillari, o'zimizning eski lzuvimizdan gap ochilsa, aksariyat olimlarimiz «xatimiz andak badxatroq», deb chekga chiqishadi.

Biron ishni ko'ngildagiday tahrir qildirish, oqilona bir maslahat so'rash, muayyan mavzu lxud davrni chuqur Iritishni ishonib topshiradigan olimlar, didli muharrirlarimiz kamdan-kam. Sababi oliy gumanitar ta'linda ham inson omili, ta'bir joiz bo'lsa, «olim omili» dolzarb muammo bo'lib qolgan.

Vasiqali ilmiy martaba sohiblari ko'p, chinakam savodxon olim kam. Natijada chuqur ilmiy risolalar, allaqancha fanlardan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, qomus, lug'at, bilgich (spravochnik)larimiz tanqis. Borlari ham ba'zan salz, qurama, hatto ro'yi-rost ko'chirmakashlikdan iborat bo'lganlari ham yo'q emas. Qo'yinkki, hamon polyak adibi Stanislav Eji Lets aytgan o'sha gap-gap: «Davr bizga daholarni hadya etishda sahiylik ko'rgazdi. Shoyad, ular orasidan bir nechta «pichoqqa ilinadiganlari» ham topilib qolsa»...

Bu nuqsonlarning ildizi qaerda?

Obbaholam, 1973 yillar edi. Ldimda, Toshkent dorilfununi jurnalistika fakultetining ilmiy kengashida so'zga chiqib, studentlarimizning xat-savodi nihoyatda pastligidan o'kinib gapirganim. Chunonchi, qo'limga tushgan bir diplom ishidan 490 ta imloviy va uslubiy qusur ko'zga chalingani davlat imtihon hay'ati esa o'sha ishga... «besh» baho qo'yanligini taassuf bilan qayd etdim. Beg'araz. Nima

bo'ldi? Aqli-idrok vaadolat sodir bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etishni, har xil noplari, nahs narsalardan forig' bo'lishni taqozo etar edi. Ammo bunday bo'lmadi.

Ilmiy uslub

Dastlabki qog'oz pullar o'rta asrlarda muomalaga chiqarilgan. Ularning muomalaga chiqarilishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: Birinchi sabab - bu pul paydo bo'lguna qadar muomalada bo'lgan qimmatbaho metallar, xususan, oltin tanga pullarining real va nomenal qiymatlari o'rtasida farqning vujudga kelishidir.

Ma'lumki, tovarlar muomalaga (bozorga) chiqib tushadi va iste'molni qondirish uchun undan chiqib ketadi. Oltin tangalar, ya'ni pul esa doimo muomalada qoladi. Ular bir necha o'n yillab muomalada bo'lib, qo'ldan-qo'lga o'tish natijasida ma'lum miqdorda emiriladi. Natijada uning real va nominal qiymatlari o'rtasida farq vujudga keladi. Masalan, 10 gramm oltin qiymatiga ega bo'lgan tangada haqiqatda 7-8 gramm oltin qoladi. Ushbu oltin tanganing muomal qiymati 10 gramm oltinga teng bo'lsa, haqiqiy qiymati esa 7-8 grammga tengdir.

Ikkinci sabab - bu ba'zi bir mamlakatlar tomonidan muomalaga qalbaki, ya'ni real va nominal qiymatlari bir-biriga mos kelmaydigan oltin tangalarni chiqarilishidir.

Bu sabablar muomalaga real pullar o'rniga ularning «o'rribbosarlari», qiymat belgilari bo'lgan qog'oz chiqarilishiga olib keladi. Shunday qilib, qog'oz pullar real, haqiqiy pullarning muomaladagi qiymat belgilari sifatida maydonga keladi. Ammo ular o'zlarining haqiqiy qiymatiga ega emasdir.

Masalan, 1 so'mlik va 10 so'mlik qog'oz pulni olaylik. Bu degan so'z 100 so'mlikni emissiya qilish uchun 1 so'mlikni emissiya qilishga nisbatan 100 baravar ko'p mehnat sarflangan so'z degan emas. Faqat 100 so'mlik 1 so'mlik pulga nisbatan 100 baravar ko'p qiymat belgisidir.

Adabiltlar

1. Nusratullo Atoullo o'g'li Jumaxo'ja. Istiqlol va ona tilimiz T. 1998.
2. N.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T. 1976.
3. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari T. 1992.
4. L.Abdullaev, T.Qoraliev. Pul: 100 savol va javob. 1996.
5. G'.Salomov. Men suv ichgan darlllar. 1990.
6. Oybek. Navoiy. 1995.